O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

XOLBO‘TAYEVA DILFUZA USMON QIZI

PEDAGOGIKA TURKUM FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING REFLEKSIV-MADANIY DUNYOQARASHINI TARBIYALASH METODIKASI

MONOGRAFIYA

Toshkent – 2026

UDK 378.147
KBK 74.58
X10

Xolbo‘tayeva.D.U

Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash metodikasi.Monografiya-T. Toshkent: “BROK CLASS SERVIS”, 2026-yil. 106 bet.

Mazkur monografiya zamonaviy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishidagi eng dolzarb muammolardan biri, ya’ni ularning refleksiv-madaniy dunyoqarashini shakllantirish va tarbiyalash masalasiga bag‘ishlangan. Monografiyada “refleksiya”, “madaniyat”, “dunyoqarash” va “refleksiv-madaniy dunyoqarash” tushunchalarining mazmun-mohiyati falsafiy, psixologik va pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Muallif refleksiv-madaniy dunyoqarashning tarkibiy tuzilmasini (qadriyatli-motivatsion, bilish-tahliliy, madaniy-kommunikativ va faoliyat-refleksiv komponentlar) aniqlab, uning shakllanish mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalarini ishlab chiqqan. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, O‘zbekiston xalqining ma’naviy-madaniy merosi hamda sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari bo‘lajak o‘qituvchilar dunyoqarashini boyitishning muhim manbai sifatida ko‘rsatilgan.
Monografiya pedagogika oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrlar, shuningdek, bakalavriat yo‘nalishi talabalari va pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimi mutaxassislari uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

Ma’sul muharrir: ***p.f.d., prof.R.G.Safarova***

p.f.d(DSc) prof S.U.Ibraximov

Taqrizchilar: ***p.f.d., dots J.A.Mardankulov***

Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi Ilmiy kengashining 2026 yil 29 oktabrdagi № 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-302-37-3

© "BROK CLASS SERVIS"

© Xolbo‘tayeva.D.U

MUNDARIJA

Kirish 4

I-BOB. PEDAGOGIKA TURKUM FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING REFLEKSIV-MADANIY DUNYOQARASHINI TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI 9

1.1-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash metodikasi – ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida. 9

1.2-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari. 20

1.3-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashning pedagogik yo‘nalishlari. 33

II-BOB. PEDAGOGIKA TURKUM FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING REFLEKSIV-MADANIY DUNYOQARASHINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI . 48

2.1-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashning mazmuni 48

2.2-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash bosqichlari va texnologiyalari. 65

2.3-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash jarayonining modeli 75

Xulosa 88

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 91

Kirish

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida shaxsning madaniy dunyoqarashini shakllantirishga, madaniy boyliklarni saralab qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga, milliy madaniy boyliklardan kundalik kasbiy faoliyatda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maqsad ta’lim oluvchilarda umuminsoniy hamda milliy madaniy boyliklarga qiziqish va hurmat tuyg‘usini tarbiyalashdir. Milliy madaniy boyliklar haqidagi bilimlar shaxs, ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik kamolotida alohida ahamiyatga ega. Shu sababli Yaponiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy va Singapurdagi oliy ta’lim hamda ilmiy tadqiqot muassasalarida bu yo‘nalishda ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning shaxs madaniy saviyasi va madaniy dunyoqarashini shakllantirish sohasidagi yutuqlari YuNESKO tomonidan e’tirof etilib, muntazam ommalashtirib borilmoqda. Madaniyat va ta’limning shaxs, ayniqsa o‘qituvchi madaniy dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rniga oid tadqiqotlar ilmiy jamoatchilikda alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash orqali ularning shaxsiy kasbiy-madaniyatini shakllantirishga tobora ko‘proq e’tibor qaratmoqda. Globallashuv jarayoni kechayotgan, ommaviy madaniyat xurujlari kuchayayotgan hozirgi sharoitda bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashi va pedagogik madaniyatning boyishi o‘zaro aloqador, bir-birini to‘ldiruvchi hodisalardir. Bu sohada jahon miqyosida katta tajriba to‘plangan.

Respublikamizda ham tarixiy tajribaga tayangan holda bo‘lajak o‘qituvchilar va pedagogik jamoa a’zolarining madaniy dunyoqarashi hamda kasbiy madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yoshlar ongini ommaviy madaniyat xurujlaridan asrashda pedagoglarning kasbiy-madaniy faoliyati dunyo miqyosida muhim o‘rin egallaydi. O‘z madaniy dunyoqarashini muntazam boyitib borish uchun talabalarning refleksiv yondashuvga ega bo‘lishi,

o‘z madaniy saviyasini doimiy tahlil qilib borishi ham alohida ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, refleksiv yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniy dunyoqarashni shakllantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda va bu muammo doirasida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur ish O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni, Respublika Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son hamda 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmonlari, shuningdek Prezidentning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son, 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son va 2024-yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-232-son qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Pedagogik madaniyat, shaxs madaniyatini shakllantirish va madaniyatshunoslik yondashuvi asosida bo’lajak o’qituvchilarning shaxsiy kasbiy madaniyatini rivojlantirish masalalari mamlakatimiz olimlaridan R.Djurayev, X.Ibraimov, G.Boymurodova, N.Dilova, G.Ibraimova, Sh.Mardonov, B.Ma’murov, N.Muslimov, R.G.Safarova, X.Tojiboyeva va B.Xodjayevning tadqiqot, qo’llanma va monografiyalarida yoritilgan. MDH olimlaridan B.G.Ananev, L.I.Bojovich, P.Ya.Galperin, N.D.Levitov, N.G.Morozova va L.S.Slavina bo’lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish asosida ijodiy psixologik jarayonlarni faollashtirish masalalarini o’rgangan. I.Lerner, M.N.Skatkin,

N.F.Talizina, T.I.Shamova va G.I.Shukina esa kognitiv xarakterdagi o'quv9 topshiriqlarini bajarish muammolariga e'tibor qaratgan. Xorijlik olimlardan K.Naranxo bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyat hissini shakllantirish masalalarini tadqiq etgan. E.Fromm, A.G.Maslou va K.Rodjers izlanishlarida bo'lajak o'qituvchining ijodiy faolligini ta'minlash masalalari o'rganilgan. Shaxsning kasbiy jihatdan yuksak yetuklikka erishish muammolari G.Myunsterberg va D.Syuper tomonidan, kasbiy martabaga ega bo'lish jarayoni va uning pedagogik-psixologik jihatlari esa A.Bandura va D.Rotter tomonidan tadqiq etilgan.

Mazkur tadqiqotlar mavzuning pedagogik, psixologik va madaniyatshunoslik jihatlarini yoritadi. Ushbu monografiyada esa pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashning nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari va mexanizmlari aniqlanadi hamda shu maqsadga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar va takliflar bayon etiladi. Bu maqsadga erishish uchun kitobda, birinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash metodikasining nazariy asoslari aniqlanadi; ikkinchidan, tarbiyalashning pedagogik va psixologik yo‘nalishlari hamda shart-sharoitlari takomillashtiriladi; uchinchidan, tarbiyalash mazmuni, uni tanlash prinsiplari, shakl, vosita, usul va metodlari belgilanadi; to‘rtinchidan, tarbiyalash mexanizmlari va pedagogik jarayon modeli takomillashtiriladi.

Tadqiqot obyekti sifatida “Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash”ga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon olingan; unga Jizzax davlat pedagogika universiteti, Samarqand davlat universiteti va Qarshi davlat universitetidan jami 387 nafar respondent jalb etilgan. Tadqiqot predmetini mazkur jarayonning mazmuni, prinsiplari, shakllari, vositalari, usullari, metodlari, mexanizmlari va mezonlari tashkil etadi. Holatni adekvat o‘rganishni ta’minlash uchun metodlar majmuidan foydalanilgan: nazariy (tahliliy-statistik, modellashtirish), diagnostik (so‘rovlar, suhbat, kuzatish) va prognostik (umumlashtirish, baholash) metodlar, pedagogik eksperiment hamda matematik statistik metodlar (ma’lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar).

Tadqiqot natijalari bir necha jihatdan yangilik xarakteriga ega. Birinchidan, pedagogika turkum fanlarini o‘qitish mazmuni motivatsion-diagnostik, amaliy va refleksiv-transformativ bosqichlar kesimida refleksiv kundalik, pedagogik keys, portfolio, mikrodars va madaniy interpretatsiya texnologiyalarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan integrativ qo‘llash asosida takomillashtirildi. Ikkinchidan, refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash metodikasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv fikrlashini, pedagogik jarayonni milliy mentalitetga xos insonparvarlik, tolerantlik, o‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlik asosida tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini kengaytirish orqali takomillashtirildi. Uchinchidan, tarbiyalash modeli bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatga oid pedagogik bilimlari va metodik mahoratini kasbiy faoliyatni refleksiv baholash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan pedagogik munosabatni qaror toptirish asosida takomillashtirildi. To‘rtinchidan, tarbiyalash samaradorligi bo‘lajak o‘qituvchilarning milliy hamda umuminsoniy madaniyatga oid bilim va ko‘nikmalari rivojlanganligining yuqori (chuqur o‘zlashtirish va mustaqil qo‘llash), o‘rta (qisman o‘zlashtirish va vaziyatli qo‘llash) hamda quyi (sust o‘zlashtirish va amalda qo‘llay olmaslik) darajalarini baholashning maqsadga muvofiqligi asosida aniqlandi.

Ishning ilmiy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning nazariy asoslari aniqlanganida, refleksiv yondashuv asosida madaniy dunyoqarashni shakllantirish mazmunini tanlashga asos bo‘lgan prinsiplar ishlab chiqilganida, tarbiyalanganlik darajasini baholovchi mezon ko‘rsatkichlari aniqlanib, nazariy jihatdan asoslanganida namoyon bo‘ladi. Amaliy ahamiyati esa pedagogik va psixologik yo‘nalishlar hamda shart-sharoitlar, madaniy dunyoqarash asosini tashkil etuvchi bilimlar va uni shakllantirish bosqichlari aniqlanganida, pedagogik refleksiyaning bo‘lajak o‘qituvchilar refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashdagi o‘rni ko‘rsatib berilganida, refleksiv yondashuv asosida talabalarning madaniy dunyoqarashini tarbiyalash usullari, metodlari va texnologiyalari ishlab chiqilganida hamda pedagogik jarayon modeli takomillashtirilganida ifodasini topgan.

Monografiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Birinchi bobda bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash metodikasi ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida asoslanadi, tarbiyalash jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari va pedagogik yo‘nalishlari ochib beriladi. Ikkinchi bobda shu nazariy asoslarga tayangan holda tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari — mazmuni, bosqichlari va texnologiyalari hamda jarayon modeli yoritiladi.

I-BOB. PEDAGOGIKA TURKUM FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING REFLEKSIV-MADANIY DUNYOQARASHINI TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash metodikasi – ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida.

Ushbu bobda pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashning (bundan keyin matnda qisqacha – refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash) nazariy asoslari ko‘rib chiqiladi. Avval bu jarayonning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati va refleksiya tushunchasining mohiyati yoritiladi (1.1-§), so‘ng uning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi (1.2-§), shundan keyin tarbiyalashning pedagogik yo‘nalishlariga o‘tiladi (1.3-§).

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash bugungi kunda pedagogik zaruriyat darajasiga ko‘tarilmoqda. Chunki bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashini shakllantirish davlatning oliy pedagogik ta’lim oldiga qo‘yayotgan muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Muammoning nazariy asosi sifatida avvalo refleksiya tushunchasiga to‘xtalish lozim. Pedagogika ensiklopediyasida “Refleksiya – (lot. reflexio - ortga qaytish, aks etish) pedagogik jarayon subyektlarining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, anglashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli” deb ta’rif berilgan. Shuningdek “Refleksiv faoliyat – refleksiya va faoliyat birligini anglatuvchi tushuncha. Refleksiya va faoliyat birligi refleksiyaning faoliyatga doir tabiati bilan belgilanadi. U ta’lim oluvchilarning faoliyat jarayoniga yo‘nalganligida namoyon bo‘ladi. Uning prosessual parametrlariga ta’sir ko‘rsatadi. Refleksiyaning o‘zi ham faoliyatni o‘ziga xos ko‘rinishidir. U faoliyatning barcha komponentlarini qamrab olgan. «Men» konsepsiyasi va faoliyat refleksiya natijalari ular dinamikasiga ta’sir ko‘rsatadi. Refleksiya intellekt darajasining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi” degan izoh

berilgan. Shu manbada ta’kidlanishicha, “Refleksiya o‘quv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini madaniy jihatdan anglashiga ko‘maklashadi. Bunday madaniy jihatdan o‘z-o‘zini anglash aniq pedagogik vaziyatlarda vujudga keladi. Refleksiv yondashuv asosida maxsus tashkil etilgan pedagogik vaziyatlar bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy rivojlanish imkoniyatlari, shart-sharoitlari, buning uchun zarur bo‘lgan madaniy muhitni mujassamlashtiradi”.

Refleksiv yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi va o‘z-o‘zini madaniy jihatdan namoyon qilishiga imkoniyat yaratadi. Pedagogik refleksiya yordamida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilar va hamkasblari ularni madaniy jihatdan qay darajada anglashini his qiladilar. Madaniy rivojlanish jarayonida ular ajdodlarimiz yaratgan tarixiy-madaniy meros bilan munosabatga kirishadilar, o‘quvchilar va ta’lim jarayonining boshqa subyektlariga qanday munosabatda bo‘lishlari lozimligini tushunib yetadilar, o‘z pedagogik faoliyatini qaysi madaniy me’yorlar asosida amalga oshirishni tasavvur qiladilar hamda buning uchun zarur bilimlar va madaniy me’yorlarni o‘zlashtiradilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv layoqatlarini rivojlantirish asosida ularni kasbiy, madaniy munosabatga tayyorlash uchun dastlab talabalarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirish talab qilinmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga refleksiv yondashuvni tadbiq etish masalasi bilan pedagoglar, psixologlar va madaniyatshunoslar shug‘ullanmoqda. Biroq muammoning nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, refleksiv yondashuv doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyati o‘quvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirishga bag‘ishlangan; bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalash jarayoniga bu yondashuvni tadbiq etish masalasiga juda kam murojaat etilgan. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash masalasi esa deyarli tadqiq etilmagan. Ushbu muammoga ayrim maqolalar doirasida murojaat qilingan; bunga R.G.Safarov, B.B.Ma’murov, X.Tojiboeva kabilarning ishlari misol bo‘la oladi.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash asosida madaniy dunyoqarashni rivojlantirish jarayoni o‘ziga xos pedagogik va psixologik

xususiyatlarga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalari yordamida ajdodlarimiz merosi va global madaniy hodisalarni tahlil qilishlari uchun sharoit yaratiladi. Refleksiya yordamida ular mustaqil qarorlar qabul qilish, madaniy jarayonlarni baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida yondashish va qo‘shimcha imkoniyatlarni safarbar qilish talab etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchi uchun zarur ko‘nikmalardan biri o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qila olishdir: talabalar o‘z dunyoqarashlari doirasida egallagan kasbiy ko‘nikma va malakalarni mustaqil tahlil qiladilar. Buning uchun ularga ajdodlarimiz merosi va innovatsion usullar yordamida turlicha madaniy ta’sirlar ko‘rsatiladi, o‘quv jarayonida taqdim etiladigan didaktik vositalar esa refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda madaniy dunyoqarashni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Tarixiy meros bilan bir qatorda kasbiy pedagogik rivojlanish muammolariga bag‘ishlangan manbalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil bilim olish vaziyatlarida madaniy hodisa va jarayonlarni refleksiyalash asosida talabalar kasbiy-madaniy dunyoqarashlarini rivojlantiradilar; buning uchun madaniyatga oid bilimlarni o‘zlashtirish va ulardan konstruktiv tarzda foydalanish tajribasiga ega bo‘lishlari kerak. Bu esa kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham ko‘maklashadi.

Zamonaviy pedagogikada kasbiy-madaniy, refleksiv ko‘nikmalar shaxsni har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Shaxs o‘z-o‘zini refleksiv-madaniy rivojlantirish natijasida o‘quv-biluv harakatlarini takomillashtiradi. Bunday ko‘nikmalarni bo‘lajak o‘qituvchilar puxta o‘zlashtirishlari va kasbiy rivojlanish bilan bog‘liq muammolarni yechishda ulardan samarali foydalana olishlari nazarda tutiladi. Taniqli mutaxassis A.S.Obuxov refleksiv yondashuv haqida o‘z qarashlarini bayon qilib, quyidagi fikrni ilgari surgan: “Refleksiya shaxsning rivojlanish maqsadi bilan bog‘liq holda o‘z xatti-harakatlarini anglash imkonini beradi”. U fikrini davom ettirib, refleksiya mutaxassisning kasbiy-shaxsiy rivojlanish usuli ekanligini ta’kidlaydi. T.F.Usheva esa refleksiv ko‘nikmalarni

o‘ziga xos tarzda ta’riflab: “Refleksiv ko‘nikmalar ta’lim oluvchilarning refleksiv harakatlarini amalga oshirishlari natijasida namoyon bo‘lib, u shaxsning muayyan faoliyatni amalga oshirish usuli hisoblanadi”– deb ko‘rsatgan. V.V.Davidovning ta’biricha: “Refleksiv ko‘nikmalar o‘quv harakatlarining ichki tayanch asosi hisoblanadi”. Mazkur ko‘nikmalar shaxsning ehtiyojlarini, mayllarini o‘zaro muvofiqlashtiradi va o‘quv-biluv harakatlari mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Refleksiv faoliyat bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil bilim olishi, izlanishi natijasida rivojlanadi va madaniy dunyoqarashning shakllanishiga asos bo‘ladi. Madaniyatshunoslik, pedagogika, psixologiya, falsafa fanlarida refleksiya tushunchasi shu sohalar nuqtai nazaridan talqin qilingan. Pedagogikada u quyidagi yo‘nalishlarda talqin etilgan:

1. Refleksiya muayyan hodisalar, shart-sharoitlar, jarayonlarni tahliliy jihatdan o‘rganishni ifodalaydi.
2. Refleksiyaning obyektlari shaxsning ta’lim-tarbiyasi, madaniy-kasbiy rivojlanishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi.
3. Refleksiya jarayonlari bo‘lajak mutaxassisning kasbiy-madaniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, mavjud kamchiliklarni aniqlash va korreksiyalash imkonini beradi.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- oliy pedagogik ta’lim jarayonida tarixiy-innovatsion yondashuvlar asosida refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash shart-sharoitlarini yaratish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning bilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida madaniy-tarixiy xarakterdagi didaktik vositalar va ommaviy axborot materiallaridan foydalangan holda talabalarga madaniyatshunoslikka oid bilimlarni taqdim etish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularda refleksiv-madaniy dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalarni saralab, tizimlashtirish va ulardan foydalanish metodlarini tavsiya etish;

- refleksiv-madaniy dunyoqarashning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va formativ baholash metodidan foydalanish;

- refleksiv yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniy dunyoqarashni rivojlantirish mazmunini belgilashga qo‘yiladigan talablar va uni tanlash prinsiplarini ishlab chiqish;

- refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, talabalarning madaniy rivojlanishlari uchun qulay pedagogik-psixologik muhit yaratish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy rivojlanish motivatsiyasini hosil qilish, ularning madaniy dunyoqarashini shakllanishiga xizmat qiladigan topshiriqlarni ishlab chiqish va vaziyatlarni loyihalashtirishda refleksiv yondashuvdan foydalanish.

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining bilish jarayonlariga muvofiq refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashga xizmat qiladigan didaktik vositalarni tanlash alohida pedagogik ahamiyatga ega. Qadriyatli munosabatlar pedagogik jarayonga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Kuzatishlar jarayonida oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga har qachongidan ko‘ra ko‘proq e’tibor qaratish zarurligi ayon bo‘ldi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil bilim olishi, o‘zbek xalqiga xos madaniy modellarni refleksiv yondashuv asosida o‘rganishi muhim hisoblanadi. Shuningdek, madaniy modellarni o‘zlashtirishga oid faoliyatni mustaqil tashkil etishga qo‘yiladigan talablarni aniqlash taqozo qilinmoqda. Madaniy modellarni o‘zlashtirish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniy dunyoqarashni egallash maqsadlarini ilgari surish, zarur didaktik vositalarni izlab topish va refleksiv yondashuv asosida tahlil qilish, madaniy modellarni o‘zlashtirishda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradigan strategiyalarni topish hamda o‘zining shaxsiy rivojlanish dasturlarini korreksiyalash va ularga tuzatishlar kiritish kompetensiyasini shakllantirish lozim.

Oliy pedagogik ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan islohotlar bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv-madaniy faoliyati va dunyoqarashini boyitishni ham talab

qilmoqda. Bunda birinchi navbatda o‘z madaniy dunyoqarashini va madaniy-pedagogik ko‘nikmalarini refleksiyalash ko‘nikmasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Bunday refleksiyani amalga oshiradigan bo‘lajak o‘qituvchilar bilish mustaqilligiga ega bo‘ladilar, madaniy munosabatlar jarayonida jamiyat a’zolari bilan mahsuldor muloqot o‘rnata oladilar hamda o‘zining madaniy-pedagogik faoliyatini muntazam tahlil qilib, shaxsiy-kasbiy, madaniy faoliyatni maqsadga yo‘naltirgan holda egallashga muvaffaq bo‘ladilar.

Refleksiyalash ko‘nikmasini hosil qilish murakkab pedagogik jarayondir: unda mavjud madaniy modellar va tajribalar muhim didaktik vosita sifatida taqdim etilib, talabalar refleksiyalash faoliyatiga faol kirishadilar. Professor-o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati esa kasbiy-madaniy dunyoqarashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayonda talabalarni refleksiv faoliyatga jalb etishga qaratiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy dunyoqarashi ular tomonidan o‘zlashtirilgan va o‘zlashtiriladigan madaniyatga oid bilimlar va axborotlar mazmuniga bog‘liq. Bu jarayonda ular o‘zlarining ijtimoiy-madaniy tajribalariga tayangan holda muayyan kasbiy tanlovlarni, shu jumladan madaniyatning u yoki bu turini egallash bilan bog‘liq tanlovlarni amalga oshiradilar. Shu bois madaniy boyliklarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq o‘quv harakatlarini tizimli tarzda tashkil etish va ularni qulay vositalar va metodlarni qo‘llash asosida rivojlantirish ehtiyoji mavjud. Bunday vaziyatda o‘qituvchining faoliyati yo‘naltiruvchi xarakter kasb etadi. Refleksiv ko‘nikmalar o‘qituvchi tomonidan taklif qilingan harakatlarni takrorlash natijasida shakllanmaydi, balki noma’lum holatlar va vaziyatlarni tahlil qilish, muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini mustaqil izlash va aniqlash natijasida hosil bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarga madaniy boyliklar, bilimlar va axborotlarni taqdim etishda muvaffaqiyatga undovchi vaziyatlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ular bilimlarni chuqur o‘ylash natijasida o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar. P.G.Shedroviskiy, R.G.Safarova, N.Toshevalarning ta’kidlashicha, ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish refleksiv faoliyat mahsuli hisoblanadi.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash bo‘lajak o‘qituvchilarga tarixiy voqelikni anglash, tushunish, o‘zbek xalqining o‘tmishdagi hayoti haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Talabalar ajdodlarimiz merosi, xalqimizning shonli tarixi, madaniy rivojlanish bosqichlari haqida aniq ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘ladilar va ajdodlarimizning o‘zbek xalqi madaniyatiga qo‘shgan hissasini o‘rganish, tahlil qilish asosida madaniy dunyoqarashlarini boyitadilar.

Refleksiv faoliyat talabalarning o‘z xulq-atvorlaridagi madaniy ko‘rsatkichlar mohiyatini anglashlariga ko‘maklashadi. Madaniy xulq-atvor me’yorlari madaniy fikrlashning bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy-kasbiy taraqqiyotlari uchun ahamiyatli jihatlarini anglashlariga yordam beradi. Madaniy faoliyat va madaniyatga oid bilimlarni o‘zlashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv faoliyatlarida yetakchi o‘rinni egallashini ta’minlash imkonini beradi. Refleksiya esa bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy modellarni tushunish jarayonlari turli-tuman shaklda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Refleksiv faoliyatni rivojlantirish asosida madaniy dunyoqarashni boyitish natijasida ularning ruhiy imkoniyatlari kengayib, shaxsiy-kasbiy sifatlari takomillashadi. V.I.Slobodchikov haqli ravishda ko‘rsatib o‘tganidek, refleksiya natijasida ta’lim-tarbiya jarayoni subyektlarining o‘z madaniy faoliyatiga bo‘lgan munosabati takomillashadi, natijada esa hamkorlikdagi faoliyatlarining mazmuni va shakliga ko‘ra ushbu faoliyatning qayta tashkil etilishi ta’minlanadi.

G.S.Suxobskaya va L.L.Gorbunovalar refleksiya haqida fikr yuritib, uni shaxsning o‘zini-o‘zi anglashining ifodalanishi, muloqot jarayonida subyektning suhbatdoshi tomonidan qanday qabul qilinayotganligini his etishi, muammolar va ularning vujudga kelish sabablarini tahlil qila olishi layoqati sifatida ta’riflaganlar.

Pedagoglar va psixologlar o‘qituvchi, shu jumladan bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi haqida ham o‘zlarining ilmiy qarashlarini bayon etganlar. Jumladan, V.I.Slobodchikov quyidagi fikrni ta’kidlab ko‘rsatgan: “refleksiya o‘qituvchining o‘zini va o‘z xatti-harakatlarini obyektiv baholashi, o‘quvchilar va boshqa insonlar tomonidan o‘zini qanday qabul qilinayotganligini, eng avvalo, u

muloqot jarayonida kimlar bilan o‘zaro ta’sirda ekanligini tushunish layoqati ekanligi”ni ta’kidlaydi. R.G.Safarova, B.S.Abdullaevalar “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi”da refleksiya samarali fikrlashning muhim usuli ekanligini ko‘rsatib o‘tganlar. Refleksiya bo‘lajak pedagogning ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni keng ko‘lamda tahlil etish, topshiriqlarni yechish usullari va operatsiyalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv faoliyat tajribasini hosil qilish uchun ularni refleksiv-madaniy modellarni tahlil qilish va ular ustida tanqidiy fikrlashga undash tavsiya etiladi, chunki tanqidiy va tahliliy fikrlash yangi bilimlar va madaniy modellarni o‘zlashtirish motivatsiyasini vujudga keltiradi. Modellarning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish refleksiv faoliyat tajribasini ta’minlab, madaniy dunyoqarashni boyitishga xizmat qiladi. Talabalarga taqdim etilayotgan yangi madaniy bilim va axborotlarning mazmun-mohiyati hamda shaxs kamolotidagi ahamiyati ham har tomonlama chuqur tahlil qilinadi.

Bu jarayonni tashkil etish va ilmiy-pedagogik jihatdan ta’minlashda refleksiv yondashuv muhim o‘rin egallaydi. Refleksiv yondashuv talabalarga o‘zbek xalqining ko‘p asrlik turmush tarzi, madaniyati, madaniy sivilizatsiyalar bilan bog‘liq pedagogik jarayonlarni tizimli tarzda taqdim etish imkonini beradi. Natijada talabalar o‘zbek xalqi madaniyatining o‘tmishi va bugungi kundagi rivojlanish jarayonlarini qiyosiy tahlil qilib, o‘zbek xalqining o‘tmishi va bugungi kunini chuqurroq his etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu tarzdagi madaniy refleksiv yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘zlarini tahlil qilishlari, o‘z madaniy dunyoqarashlarini boyitib, uni obyektiv baholay olishlariga ko‘maklashadi.

Refleksiv yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy dunyoqarashi ularning o‘zlarining madaniy-pedagogik bilimlari va amaliy faoliyatlarini, madaniy dunyoqarashlari, tushunchalari va tasavvurlarini tahlil qila olishlari hamda o‘z xatti-harakatlari, madaniyatga oid tushunchalari va bilimlarini atrofdagilarniki bilan qiyoslay olishlari bilan boyitiladi. Shuningdek, ular o‘zlarining madaniy xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini, tengdoshlari va atrofdagilar tomonidan o‘zlarining qanday qabul qilinayotganliklarini har

tomonlama tahlil qila olishlari kerak. Madaniy muloqot jarayonida suhbatdoshlarining his-tuyg‘ularini tushuna olish va unga munosabat bildira olish, tarixiy-madaniy voqelikni o‘rganish, uni bugungi kundagi madaniy voqelik bilan taqqoslay olish, aniq tahliliy xulosalar chiqarish, madaniy dunyoqarashni milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida boyitish ham talab etiladi.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashda tahliliy faoliyatga undaydigan pedagogik jarayonlarni tashkil etish nazarda tutiladi. Buning uchun talabalarning madaniyatga oid mavjud bilim va ko‘nikmalari aniq hisobga olinadi, natijada ularda o‘rganilayotgan madaniy hodisalarga qiziqish vujudga keladi. Madaniyatga oid dunyoqarash elementlarini refleksiyalash asosida o‘zlashtirishda ularni mustaqil tahlil qilish va pedagogik ahamiyatini obyektiv baholash bo‘lajak o‘qituvchiga muayyan madaniy tushunchalar va modellar haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida tashkil etiladigan madaniyatshunoslikka asoslangan refleksiv muhit talabalarning madaniy dunyoqarashlarini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatib, ularning kasbiy-madaniy jihatdan shakllanishlariga asos bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish asosida madaniy dunyoqarashni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil etishda muayyan omillarni hisobga olish talab qilinadi. Chunki talabalarda shakllantiriladigan refleksiv ko‘nikmalar ularga o‘z-o‘zi va o‘zbek xalqining madaniy modellari mohiyatini anglash, o‘z refleksiv-madaniy dunyoqarashini aniq bilimlar, dalillar, stereotiplar, konsepsiyalar bilan boyitish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda mazkur modellar bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z kasbiy mavqe’larini aniqlash, o‘z qarashlarini dalillash, o‘z xatti-harakatlari, fe’l-atvorlarini milliy-madaniy modellarga moslashtirishlariga ko‘maklashadi. Bu jarayonda professor-o‘qituvchilar madaniy modellar va konsepsiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan o‘quv materiallari va kognitiv texnologiyalardan foydalanishlari nazarda tutiladi. Talabalarga taqdim etiladigan o‘quv materiallari ularning xatti-harakatlarini refleksiv-madaniy qarashlarga moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Madaniy voqelikka nisbatan turli-tuman yondashuvlarni tahlil qilish, madaniy

obyektlarni o‘zaro taqqoslash, o‘ziga xos jihatlarini farqlash, ular orasidagi o‘zaro aloqadorlikni tushunish, kitob mutolaasi yordamida o‘z refleksiv-madaniy dunyoqarashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat ko‘lamini kengaytirish nazarda tutiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy obyektlarni tanqidiy baholash, ularni refleksiyalash ko‘nikmalariga ega bo‘lish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday fikrlash refleksiv-madaniy dunyoqarashni kengaytiradi va talabalarda bilish faolligini tarkib toptiradi. Jarayonni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish bu sohada samaradorlikka erishish imkonini beradi, natijada bo‘lajak o‘qituvchilarning ichki olami, madaniy tafakkuri, dunyoqarashi tizimli tarzda rivojlanadi.

Refleksiv faoliyat natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar madaniy-pedagogik jarayonlarni rejalashtirish, loyihalash, tashkil etish, baholash va takomillashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar; madaniy-pedagogik faoliyat usullarini egallash imkoniyatlari kengayib, ular bu usullardan istiqboldagi faoliyatlarida samarali foydalanadilar. Shunga ko‘ra refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning pedagogik mohiyati yaqqol namoyon bo‘ladi: bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlari va guruhdoshlarining xatti-harakatlarini tahlil qilishga muvaffaq bo‘ladilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan refleksiv-madaniy dunyoqarash bilan bog‘liq harakatlarning tahlil qilinishi ularning ruhiy kechinmalari, madaniy dunyoqarashi, ichki ruhiy holatlari bilan bevosita bog‘liq. Ular o‘zlarining refleksiv-madaniy dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning xatti-harakatlarini kuzatish va munosib baholash tajribasiga ega bo‘ladilar. Bu jarayonda professor-o‘qituvchilar bilan talabalar orasida o‘zaro madaniy munosabat modeli shakllanadi. Mazkur model bosqichma-bosqich bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kirib, istiqbolda uning o‘quvchilar bilan amalga oshiriladigan munosabatlarining xarakterini belgilaydi. Natijada o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida teskari aloqa, bilish faoliyatining oraliq shakllarini qo‘llash imkoniyatlari vujudga keladi.

Mutaxassislarning refleksiv yondashuvni qo‘llashga oid qarashlariga tayangan holda o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini refleksiv-madaniy nuqtai nazardan takomillashtirish, ularning har ikkalasida dialogik munosabatlar madaniyatini tarkib toptirishning pedagogik yo‘nalishlarini aniqlash bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlashtirgan pedagogik bilimlari, tajribalari va madaniyatga oid bilimlariga tayangan holda ularda refleksiv-madaniy dunyoqarashning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish talab qilinmoqda. Talabalarning o‘quv jarayonidan tashqaridagi madaniyatga oid bilimlari ijtimoiy tarmoqlar, shaxslararo munosabatlar, mustaqil mutolaa yordamida rivojlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarga xos xulq-atvor me’yorlari va kasbiy bilimlar ham ularning refleksiv-madaniy dunyoqarashini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xulq-atvor stereotiplarini refleksiyalash natijalari bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida refleksiv-madaniy dunyoqarash muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda.

Kasbiy-madaniy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonlari va uni tashkil etish strategiyalarini tahlil qilish natijalari esa bu jarayon mazmun-mohiyatiga ko‘ra kasbiy-madaniy faoliyat ekanini ko‘rsatmoqda; mazkur faoliyatning shakllanishi va rivojlanishida refleksiv-madaniy dunyoqarash muhim o‘rin egallaydi. Shu ehtiyoj tufayli bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-madaniy dunyoqarash shakllantiriladi. Mazkur dunyoqarash tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o‘zbek xalqining ko‘p asrlik madaniy boyliklari;
- insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy stereotiplar;
- insonparvarlik va bag‘rikenglik;

nutq va muloqot madaniyati;

- pedagogik odob va pedagogik takt;
- yurish-turish, kiyinish va o‘zini tutish kabi axloqiy me’yorlar;
- hamkasblar va jamoadoshlar orasidagi o‘zaro kasbiy muloqot me’yorlari.

Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik jarayonlar va mustaqil bilim olish davomida mazkur me’yorlarni puxta o‘zlashtirishlari talab etiladi. Buning uchun

ular turli manbalar, ayniqsa, tarixiy merosga murojaat qilish tajribasiga ega bo‘lishlari, mavjud madaniy stereotiplarni refleksiyalay olishlari muhim hisoblanadi. Ajdodlarimiz va dunyodagi rivojlangan xalqlarning tarixiy-madaniy, kasbiy-madaniy qarashlarini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘zbek xalqi ham o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida pedagogik odob va madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan ulkan merosga ega ekan.

Mutafakkir ajdodlarimiz Shayx Hovandi Tohur, Xo‘ja Ahror Valiy, Bahouddin Naqshband, Husayn Voiz Koshifiy, Nosuriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ustoz-shogird munosabatlari, o‘qituvchining odobi, kasbiy madaniyati haqida bir qator fundamental xarakterdagi qarashlarni ilgari surganlar. Jumladan, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy” asarida o‘qituvchining qanday sifatlarga ega bo‘lishi lozimligi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan: “Agar komil ustoz kim deb so‘rasalar, u pok mazhabli, o‘z aybini ko‘radigan, dono va tamyizli kishidir, deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar ham bo‘lmasligi kerak”. Bunday qimmatli fikrlarni bo‘lajak o‘qituvchilar ongiga yetkazish orqali ularda kasbiy-madaniy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Shunday qilib, refleksiya tushunchasining mohiyati, refleksiv faoliyatning bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi va kasbiy-madaniy dunyoqarashining shakllanishidagi o‘rni hamda tarixiy meros imkoniyatlari refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanini ko‘rsatadi. Navbatdagi 1.2-§ da bu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari: u tayanadigan pedagogik tamoyillar, madaniyatshunoslik yondashuvining o‘rni hamda refleksiyaning kasbiy-madaniy rivojlanishdagi vazifasi ko‘rib chiqiladi.

1.2-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari.

Oldingi paragrafda refleksiya tushunchasining mohiyati va refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati ko‘rib chiqildi. Endi pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning

refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash jarayonining (bundan keyin matnda qisqacha – refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash) o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida refleksiv-madaniy dunyoqarashga ega bo‘lgan pedagog qiyofasini shakllantirish nazarda tutilmoqda: fan-texnika rivojlanayotgan hozirgi sharoitda bunday mutaxassislarni tarbiyalash pedagogikaning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Ommaviy madaniyat xurujlari kuzatilayotgan sharoitda bunday o‘qituvchiga bo‘lgan ehtiyoj ortmoqda. O‘qituvchining dunyoqarashi bevosita o‘quvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashi shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik jarayonga faqatgina texnik yoki texnologik nuqtai nazardan yondashish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini bermaydi. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayoni xarakterini bir qadar o‘zgartirish, uni talabalarning dunyoqarashini rivojlantirishga yo‘naltirish talab etiladi.

Jamiyat hayotini tashkil etish prinsiplari, uni rivojlantirish yo‘nalishlari, insonlarni ijtimoiy hamda ijtimoiy-madaniy jihatdan boshqarish yo‘nalishlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashda refleksiv, tarixiy-madaniy yondashuvlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish muhim hisoblanadi. An’anaviy pedagogik ta’lim jarayoni faqatgina pedagogik, metodik, ijtimoiy bilimlarni taqdim etish asosida muayyan kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlashni nazarda tutar edi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash sohasidagi davlat siyosatida esa yuksak kasbiy mahorat – “akme”ni egallagan, refleksiv-madaniy dunyoqarashi rivojlangan, kasbiy kompetensiyalarni egallagan o‘qituvchilarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Pedagogik ta’lim mazmuni kasbiy faoliyatni egallash uchun zarur bo‘lgan bilimlar majmuidan iborat bo‘lib, olamni bilish ushbu bilimlar negizida shakllantirilishiga e’tibor qaratilgan. Hozirda esa asosiy e’tibor refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash orqali kasbiy madaniyat va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilmoqda. Madaniy dunyoqarashga ega bo‘lgan bo‘lajak

mutaxassis o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, chunki o‘zining kasbiy-shaxsiy shakllanganlik darajasini muntazam refleksiyalay oladi.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash o‘ziga xos pedagogik hodisa bo‘lib, bu yo‘nalishda talabalarga taqdim etiladigan bilimlar umuminsoniy qadriyatlar bilan integratsiyalashadi va muayyan mezonlar bilan o‘lchanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash sohasidagi konseptual yondashuvlarda yangi nazariyalar, g‘oyalar va metodikalarni izlash zarurligi ta’kidlanmoqda. Bunday nazariy yondashuvlar sirasiga tayyorlash jarayoniga madaniyatshunoslikni tadbiq etish sohasidagi intilishlarni kiritish mumkin. Refleksiv-madaniy dunyoqarashni shakllantirish jarayonida tolerantlik, o‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlik tamoyillari muhim pedagogik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Ular ta’lim jarayonining insonparvarlik va demokratik xarakterini ta’minlash bilan bir qatorda, pedagog shaxsining kasbiy hamda ma’naviy sifatlarini rivojlantirishga, ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv fikrlashi, kommunikativ madaniyati va ijtimoiy faolligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tolerantlik tamoyili bo‘lajak o‘qituvchilarda turli fikrlar, dunyoqarashlar, milliy va madaniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va bag‘rikenglik munosabatini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyil asosida talabalar boshqalarning fikrini tinglash, turli qarashlarni qabul qilish, nizoli vaziyatlarda murosaga erishish hamda millatlararo va madaniyatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘nikmalarini egallaydilar. Natijada ularda ijtimoiy moslashuvchanlik va pedagogik etika rivojlanadi.

O‘zaro hurmat tamoyili ta’lim jarayonidagi barcha subyektlarning sha’ni, qadr-qimmati va fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni ifodalaydi. Mazkur tamoyil pedagog va talaba o‘rtasida samimiy hamda ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, talabalarga erkin fikr bildirish imkoniyatini yaratish, adolatli baholash tizimini yo‘lga qo‘yish va shaxsiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash orqali ularning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi.

Ishonch tamoyili ta’lim jarayonida psixologik xavfsiz va erkin muhitni yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalar faoliyatini rag‘batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bunda talabaga ishonch bildirish, uni mustaqil qaror qabul qilishga undash, ochiq muloqotni rivojlantirish hamda xatolardan qo‘rqmasdan fikr bildirish imkoniyatini yaratish ko‘zda tutiladi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonch, mas’uliyat va pedagogik mustaqillik shakllanadi.

Hamkorlik tamoyili ta’lim jarayonini birgalikdagi faoliyat asosida tashkil etishni anglatadi. Ushbu tamoyil orqali talabalarda jamoaviy ishlash, birgalikda muammolarni hal qilish, fikr almashish va tajriba o‘rtoqlashish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Shu bilan birga, “subyekt-subyekt” munosabatlarining qaror topishi pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi va o‘zaro mas’uliyat hissini kuchaytiradi.

Refleksivlik tamoyili esa bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z faoliyati va xulq-atvorini tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tamoyil asosida talabalar o‘zini baholash, o‘z ustida ishlash, pedagogik faoliyatni tahlil qilish va kasbiy rivojlanishga intilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Refleksiv yondashuv pedagogning o‘z faoliyatini takomillashtirib borishi hamda kasbiy kompetentligini muntazam rivojlantirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, tolerantlik, o‘zaro hurmat, ishonch, hamkorlik va refleksivlik tamoyillari bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni shakllantirishning muhim pedagogik asoslari hisoblanadi; ular asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni pedagog shaxsining ma’naviy, kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu g‘oyalar madaniy modelning asosiy komponentlari sifatida bo‘lajak pedagogning refleksiv-madaniy dunyoqarashini ifodalovchi birliklarni mujassamlashtirishni nazarda tutadi. Shaxsning refleksiv-madaniy dunyoqarashi jamiyat hayotini pozitiv nuqtai nazar doirasida boshqaruvchi alohida hodisa bo‘lib, birinchi navbatda jamiyat taraqqiyotining asosiy omili, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy muhitni shakllantiruvchi stimul va har bir shaxsning sifat ko‘rsatkichini ifodalovchi

hodisadir. Chunki o‘qituvchi faol subyekt sifatida jamiyat, shu jumladan ta’lim muassasasi hayotida muhim o‘rin egallaydi.

Bu tamoyillarni ta’lim amaliyotiga tadbiq etishda madaniyatshunoslik yondashuvi muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchilar tayyorlash jarayoniga madaniyatshunoslik yondashuvini tadbiq etishda umuminsoniy va milliy madaniyat boyliklaridan foydalanishni nazarda tutish maqsadga muvofiq. Bo‘lajak o‘qituvchining madaniy jarayonni idrok etishi umuminsoniy va milliy madaniyat boyliklarini qabul qilish va o‘zlashtirishdan boshlanadi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida ham madaniyatshunoslikka yo‘naltirilgan muhitni yaratish taqozo qilinmoqda. Umuminsoniy va milliy madaniyatning barcha tarkibiy qismlari inson dunyoqarashi va aql-idrokining mahsuli bo‘lib, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy, intellektual taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Bunday yoshlar madaniy qadriyatlarni anglash, ularni tahlil qilish, o‘z faoliyatida qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Buning uchun esa har bir bo‘lajak o‘qituvchida o‘z-o‘zini, madaniy qarashlari va nuqtai nazarini refleksiyalash layoqati shakllangan bo‘lishi lozim. Madaniyatshunoslik yondashuvining asosiy jihatlarini namoyon qiluvchi quyidagi holatlarga e’tibor qaratiladi:

- talabalar professor-o‘qituvchilarni ijtimoiy hayotning asosiy subyektlari, ularga madaniy boyliklarni taqdim etuvchi mutaxassis sifatida qabul qilishlari;
- talabalar madaniy jihatdan o‘z-o‘zlarini rivojlantirish va ta’lim muhiti shu jumladan, jamiyat madaniy hayotida o‘z nuqtai nazarlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari;
- talabalar o‘qituvchining o‘quvchilar bilan jamiyatdagi madaniy muhit orasida bevosita aloqa o‘rnatuvchi subyekt ekanligini tushunib yetishlari lozim. Chunki o‘qituvchi o‘quvchilarni madaniyat olamiga olib kiruvchi asosiy shaxs hisoblanadi;
- har bir o‘qituvchi ta’lim jarayonini o‘quvchilar uchun madaniy muhit sifatida idrok etishi, talabalar madaniy muhitni harakatlantiruvchi kuchi,

o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashi, madaniyatga oid bilimlari ekanligini anglab yetishi;

- madaniy muhitning subyektlari orasidagi dialog ularni o‘z-o‘zini rivojlantirishga undovchi asosiy vosita ekanligini bilishlari;
- ta’lim muassasasining yaxlit ijtimoiy madaniy muhit sifatida namoyon bo‘lishi zarurligini his eta olishlari;
- ta’lim muassasasida o‘quvchilarning madaniy muhitni yaratishlari, idrok etishlari mazkur muhitda o‘z-o‘zlarini rivojlantirishlari uchun qulay sharoit yaratish ko‘nikmasini egallashlari zarurligini tushunib yetishlari;
- o‘qituvchi madaniy muhitning yaratuvchisi va madaniyatli shaxsni tarbiyalovchi subyekt ekanliklarini bilishlari kabilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga madaniyatshunoslik yondashuvini tadbiq qilish masalasi O.Musurmonova, R.G.Safarova, M.Quronov, D.Malikova, V.A.Slastenin, I.F.Isaev, Yo.N.Shiyanovlar tomonidan ilgari surilgan. Bu yondashuvni tadbiq etish tushunchasi doirasiga nazariy-metodologik holatlar hamda pedagogik chora-tadbirlar majmui, ya’ni talabalarga madaniy qadriyatlar, milliy-madaniy modellarni taqdim etish shart-sharoitlari, usullari, metodlari va texnologiyalari kiradi. Madaniyatshunoslik yo‘nalishidagi bilimlar istiqbolda o‘qituvchilarning o‘z madaniy, pedagogik faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Mutaxassislar o‘qituvchilarning o‘z kasbiy faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun muhim sifatlardan biri pedagogik madaniyatga ega bo‘lish deb hisoblaydilar. Pedagogik madaniyatning asosini esa refleksiv-madaniy dunyoqarash tashkil etadi. Bu o‘z navbatida pedagogik ta’lim mazmuni, uni amalga oshirish shart-sharoitlari, usul, metod va texnologiyalarini madaniyatshunoslik yondashuvi asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Talabalarda pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayoni kasbiy pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan farqlanadi: pedagogik madaniyat o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi, pedagogik bilim, ko‘nikma, malakalar esa bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada o‘qituvchilar madaniy

qadriyatlar, tarixiy-madaniy modellarni o‘quvchilarga tizimli tarzda taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat madaniy merosni o‘zlashtirishlari, balki uni innovatsion pedagogik jarayonga tadbiq etish mexanizmlarini ham bilishlari talab etiladi. Tayyorlash jarayoniga madaniyatshunoslik yondashuvini tadbiq etish asosida refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash bugungi kunda o‘qituvchilar oldida turgan ko‘plab muammolarga yechim topish imkonini beradi. Refleksiv-madaniy dunyoqarashga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilarni madaniy rivojlantirish imkonini beradigan didaktik vositalar, usul va metodlarni izlab topish layoqatiga ega bo‘ladilar. Pedagogik faoliyat maqsadlaridan kelib chiqib, madaniy hodisalarni o‘rganish, refleksiyalash va o‘quvchilarga taqdim etish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Refleksiv-madaniy dunyoqarash pedagogning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishi uchun qulaylik yaratadi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘qituvchilar madaniyatshunoslik nuqtai nazariga ega bo‘lish, pedagogik jarayonni madaniy yondashuvlar asosida tashkil etish, pedagogik hodisalarni tahlil qilish, refleksiv baholash va rivojlantirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Ular o‘z faoliyatlarida madaniy me’yorlar, qadriyatlarga tayanadilar, jahon madaniyatining rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda o‘quv faoliyati natijalarini tahlil qilish va refleksiv baholash ko‘nikmalarini egallaydilar. Madaniyatshunoslikdagi umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda ularni ta’lim jarayonidagi madaniy muhitga olib kirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar va ta’lim muassasasidagi ko‘pgina masalalarni shu yondashuvga tayangan holda yechishga muvaffaq bo‘ladilar.

Madaniyatshunoslik yondashuvining shaxsiy-ijodiy yo‘nalishga egaligi shaxs va madaniyatning obyektiv tarzda o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqligini anglatadi. Chunki har bir shaxs madaniyatni targ‘ib qiluvchi, ommalashtiruvchi va uni keyingi avlodlarga taqdim etuvchi hisoblanadi. Madaniyat insonni nafaqat rivojlantiradi, balki shaxsning ma’naviy olamini yangilash, boyitish imkoniyatiga ham ega. Madaniyat ijodiy xarakterga ega bo‘lib, har qanday tarixiy davrning subyekti hisoblanadi. Shunga ko‘ra yondashuvning shaxsiy-madaniy yo‘nalishi

doirasida madaniyatni o‘zlashtirish insonning o‘z-o‘zini tarbiyalash vositasi sifatida talqin etiladi, madaniyat yordamida esa shaxs ijodiy jarayon subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasasidagi pedagogik jarayon o‘z mohiyatiga ko‘ra madaniy-ijodiy xarakterdagi jarayon bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchining hayotiy faoliyatida tayanch asos vazifasini bajaradi. Bu ayniqsa uning atrofdagilar bilan munosabati va muloqotida yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki o‘zaro munosabatlar va muloqot bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishi va o‘z qobiliyatini amalga oshirishida yetakchi omil sifatida xizmat qiladi. Madaniy qadriyatlarni rivojlantirish, unga tuzatishlar kiritish, zamonaviy ruh bag‘ishlash bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida muayyan yutuqlarga erishishiga xizmat qiladi.

Madaniyat azal-azaldan haqiqatni, madaniy hayotiy haqiqatlar, bilimlarni ma’naviy o‘zlashtirish vositasi bo‘lib kelmoqda. Madaniyat o‘zining ko‘plab funksiyalariga ega bo‘lib, uning ta’limiy funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Shaxslararo munosabatlarga madaniyatning ta’sir ko‘rsatish mexanizmi tabiat va madaniyatning o‘zaro aloqadorligida namoyon bo‘ladi, chunki inson tabiatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Shuning uchun ham madaniyat shaxsni rivojlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Madaniy nuqtai nazardan yondashganda butun olam, moddiy hamda ma’naviy borliq inson kamolotiga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan yondashganda esa inson layoqati ta’lim jarayonida madaniy boyliklar vositasida rivojlanadi. Inson fikrlash layoqatiga ega bo‘lganligi uchun ham butun olam o‘zining mohiyatiga egaligini anglab yetadi; pedagogik nuqtai nazardan shaxsning ushbu layoqati ta’lim jarayonida egallanadi. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan esa ushbu faoliyat shaxsning fikrlash jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu o‘z navbatida insonning qadriyatlari, shaxslararo munosabatlar tizimi, hissiy, irodaviy, refleksiv sohalari bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Madaniyat turli o‘ziga xos belgilar, ifodalar orqali namoyon bo‘ladi. Bir qator mutaxassislar belgilar va ramzlar inson uchun turlicha mohiyat kasb etishini ta’kidlaganlar. Oddiy belgilar insonning narsalar va buyumlar mohiyatini anglashiga ko‘maklashadi. Ramzlar esa

insonlarni fikrlashga undab, ularning olam va odam bilan o‘zaro muloqot qilishiga zamin yaratadi.

Madaniy dunyoqarash ta’lim jarayonida subyektlarning bir-biri bilan madaniy muloqot qilishini ta’minlaydi. Madaniy boyliklar ta’lim oluvchilarga tayyor shaklda taqdim etilib, ularning refleksiv-madaniy dunyoqarashini boyitadi; bu dunyoqarash o‘z navbatida ta’limning madaniyatshunoslik yondashuvi asosida tashkil etilishini ta’minlaydi. Madaniyat shaxsni ijodkorlikka undaydi, o‘z-o‘zini yangilab madaniy muhitning kengayishi uchun asos yaratadi va ijodkor shaxsning faollashuviga ko‘maklashadi. Inson o‘zining faol ijodiy harakati bilan o‘zining refleksiv-madaniy dunyoqarashini kengaytiradi va madaniy boyliklarni yaratishga muvaffaq bo‘ladi.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning psixologik asosi esa shaxsni madaniyatshunoslikka oid faoliyatga undab, unda madaniy boyliklarni o‘zlashtirish ehtiyojida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham madaniyat shaxsning mustaqil tarzda o‘z-o‘zini boshqarishiga ko‘maklashadigan hodisa bo‘lib, bu uning burchlari, iffati, or-nomusi, g‘ururi, vijdonida namoyon bo‘lib, uning axloqiy-madaniy dunyoqarashining takomillashuvini ta’minlaydi. Bugungi kunga kelib ko‘p millatli O‘zbekistonda shaxsning ma’naviy, madaniy jihatdan rivojlanishi, unda xulq-atvorning shakllanishida refleksiv-madaniy dunyoqarashning katta ahamiyatga egaligi tobora yorqinroq namoyon bo‘lmoqda.

Madaniyatshunoslik yondashuviga asoslangan ta’lim jarayonida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan madaniy dunyoqarash va xulq-atvor stereotiplari hamda qadriyatlarni muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirish asosida refleksiv-madaniy dunyoqarashga ega bo‘lgan mutaxassisni tarbiyalash imkoniyati mavjud. Bunday mutaxassisni tarbiyalash madaniy tamaddun bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bugungi kunda yanada ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. “Ommaviy madaniyat” qamrovining tobora kengayayotganligi inson hayotiy faoliyatining biogenetik asoslariga ziyon yetkazmoqda. Bugungi tamaddun shaxsning rivojlanish jarayonlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishni taqozo etmoqda. Chunki inson hayot tarzining xarakterini o‘zgartirish zaruriyati kuchaymoqda. Buning uchun

shaxsni rivojlantirishning yangi pedagogik paradigmasi, ya’ni madaniyatshunoslikka asoslangan ta’lim paradigmasiga o‘tish taqozo qilinmoqda.

Ta’limning an’anaviy modeli itoatli ijrochi, mehnatsevar, vatanparvar shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan, ta’lim mazmuni esa fan asoslarini mujassamlashtirganligi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda bir qator muammolar vujudga keldiki, ularni an’anaviy ta’lim modeli yordamida hal etish imkonsiz. Ta’lim mazmuniga axborotlarning ko‘p miqdorda singdirilishi taqdim etiladigan bilimlar ko‘lamining kengayib ketishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida refleksiv-madaniy dunyoqarashga ega bo‘lgan, kasbiy muammolarni mustaqil yecha oladigan mutaxassislarni tayyorlashga e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatdi.

Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida talabalarning bilimi, ko‘nikmalari, kompetensiyalarini shakllantirish bilan bir qatorda ularning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash ham dolzarblashmoqda. Talabalarga taqdim etiladigan pedagogik madaniyatshunoslikka oid bilimlar ularning kasbiy bilimlari bilan uyg‘un tarzda yaxlit tizimni tashkil etishi lozim. Mazkur bilimlar madaniyatga oid qonun-qoidalar va tushunchalar bilan mujassamlashgan holda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining refleksiv-madaniy dunyoqarashini boyitishga xizmat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayoniga bo‘lgan konseptual yondashuvlar mazkur jarayonning madaniyatshunoslik asosida amalga oshishiga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlidir. Shu bois tayyorlash jarayoni tomoman yangi obyektiv metodologik asoslarni izlab topish va ularga tayanishni talab qilmoqda. Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida yuqori darajadagi kompetentlikka ega bo‘lgan, jahon standartlari talablari darajasida alohida e’tibor qaratilgan. Bunday mutaxassislar sirasiga ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlangan, raqobatbardosh, madaniy imidjga ega bo‘lgan o‘quvchilarni tayyorlash zaruriyati yanada kuchaymoqda. O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotini ta’minlashning muhim shartlaridan biri ilmiy bilimlarni ijodkorlik sifatlari bilan uyg‘unlashtira oladigan pedagoglarni yetishtirishdan iborat; bu esa bo‘lajak pedagog shaxsining o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun imkoniyat yaratadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlash nafaqat ularning yuqori darajadagi bilimga ega bo‘lishlari, balki nostandart ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan, pedagogik faoliyatini refleksiyalay oladigan hamda o‘zining shaxsiy kasbiy nuqtai nazarini namoyon etadigan pedagoglarni tayyorlashdan iborat. Bu bevosita oliy pedagogik ta’limning mazmuni va uni tashkil etish mexanizmlarini yangilashni nazarda tutadi. Agar ta’limdagi innovatsion yondashuvlar talabalarning o‘quv jarayonidagi o‘rni va mavqeini o‘zgartirishni talab qilsa, uni faoliyat obyektidan jarayon subyektiga aylantirish imkonini beradi. Pedagogning kasbiy nuqtai nazarini rivojlantirish masalasi ko‘plab mutaxassislarning pedagogik-psixologik yondashuvlarida o‘z yechimini topmoqda: bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv faoliyatini rivojlantirish va uning shaxsiy kasbiy takomillashuvi muammolari turli jihatlardan talqin qilingan. Biroq bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy nuqtai nazarini rivojlantirish asosida madaniy dunyoqarashini boyitishda refleksiv yondashuvga tayanish masalasi o‘z yechimini kutmoqda.

Shu bois bu yerda bo‘lajak o‘qituvchining madaniy dunyoqarashini tarbiyalashda refleksiv yondashuvdan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari, uning zarurligi va samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Muammoning nazariy yechimi oliy pedagogik ta’limning rivojlanish tendensiyalariga tayanadi. Bunda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi, o‘zbek xalqining madaniy rivojlanish jarayonlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ta’limning uzluksizligi, madaniy taraqqiyotning bozor munosabatlari sharoitidagi yo‘nalishlari, zamonaviy pedagogika fanining yutuqlari, talaba shaxsi pedagogik faoliyatning faol subyekti haqidagi nazariyalarga asoslanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashga ega bo‘lishi uning kasbiy-shaxsiy yetukligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichdir. Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashi deganda, qadriyatli-fikriy munosabatlarning integratsiyalashgan tizimi, uning faoliyat subyekti, pedagogik jarayon ishtirokchisi sifatidagi umumlashgan bilimlari majmui tushuniladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-madaniy dunyoqarashi deganda shaxsning fikriy qadriyatli munosabatlarini integratsiyalashgan mazmuni tushuniladi. Bu

jarayonda bo‘lajak o‘qituvchi istiqboldagi pedagogik faoliyatning subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-madaniy dunyoqarashi pedagogik faoliyatga nisbatan ijobiy motivatsiya, kasbiy kompetentlik, o‘z-o‘zini anglash, o‘ziga xoslik, kasbiy-shaxsiy ahamiyatli jihatdan sifatlarga ega bo‘lishni qamrab oladi. Bu sifatlar pedagogik amaliyot jarayonida samarali rivojlanadi. Ushbu sifatlarni shakllantirishning samarali usullari sirasiga bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy nuqtai nazarini rivojlantirishni ham kiritish lozim. Bunda pedagogik faoliyat refleksiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, refleksiv yondashuv rivojlangan mamlakatlarning oliy pedagogik ta’lim tizimida keng miqyosda qo‘llaniladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning rivojlangan modellarida o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning uzluksiz tizimi hamda kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirish mexanizmlari amal qiladi. Bu jarayonda refleksiya pedagogning o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Chunki refleksiya bo‘lajak o‘qituvchining egallagan kasbiy bilimlari va to‘plagan tajribalarini muntazam tahlil qilishi uchun qulay imkoniyat yaratadi. Refleksiya pedagogik muloqot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining o‘z xulq-atvorini korreksiyalashi uchun qulay vaziyatni vujudga keltiradi. Shuningdek, u bo‘lajak o‘qituvchining o‘z ruhiy holatini tahlil qilishi va o‘z faoliyatini takomillashtirishi uchun sharoit yaratadi. Shuning uchun ham refleksiya bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini rivojlantirish uchun tayanch asos vazifasini o‘taydi.

Refleksiya bo‘lajak o‘qituvchining o‘quv faoliyatini ongli tarzda amalga oshirishiga xizmat qiladi. Uning o‘ziga xos jihati bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida talabalarni intellektual jihatdan yo‘naltira olishidadir. Bunda o‘zlashtiriladigan kasbiy bilimlarning mohiyatini anglash, kasbiy harakat usullarini o‘zlashtirish, o‘quv jarayonini rejalashtirish ko‘nikmalarini egallash va o‘z faoliyatini tashkil etishga oid pedagogik faoliyat shakllari o‘zlashtiriladi. Shuning uchun ham pedagogik refleksiya o‘z-o‘zini kasbiy faoliyat subyekti sifatida anglashi, o‘ziga xosligini tushunib yetishi, o‘quvchilar tomonidan qanday qabul qilinishini tasavvur eta olishini ta’minlovchi mexanizm hisoblanadi. Natijada

bo‘lajak o‘qituvchilar refleksiya yordamida o‘z faoliyatlarining maqsadi, tarkibiy tuzilishi, faollashtirish vositalarini tushunib yetishga muvaffaq bo‘ladilar. Pedagogik refleksiyaning mexanizmlari bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida shakllanadi, refleksiv yondashuv esa kasbiy faoliyatning bosqichma-bosqich rivojlanishiga ko‘maklashadi. Refleksiv yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-madaniy dunyoqarashni rivojlantirish ikki yo‘nalishda amalga oshadi: a) kasbiy; b) shaxsiy.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi kasbiy kvalifikatsiyani takomillashtirishni taqozo etadi va odatda kasbiy tayyorlashga tenglashtiriladi. Shaxsiy rivojlanish esa pedagogning kasbiy faoliyatining faol subyekti sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlaydi, uning refleksiv-madaniy dunyoqarashi rivojlanganligidan dalolat beradi va bo‘lajak o‘qituvchilarning qadriyatli-motivli, ijodiy sohalarining rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishga undaydi.

O‘qituvchining kasbiy-madaniy jihatdan rivojlanganligi refleksiya yordamida o‘zining ijtimoiy, kasbiy faoliyatini takomillashtirishni taqozo etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarining rivojlanganligi ular faoliyatini subyekt-subyekt munosabatlari tizimiga transformatsiyalash uchun asos yaratadi. Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash jarayoniga refleksiv yondashuvni tatbiq etish talabalarga o‘z shaxsiy tajribalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash uchun zarur bo‘lgan bilimlar va madaniy modellarga murojaat qilish imkoniyatini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida ularning madaniy dunyoqarashini rivojlantirishda nazariy xarakterdagi kasbiy-madaniy bilimlarni taqdim etish bilan bir qatorda refleksiv asoslarga tayangan holda tashkil etiladigan pedagogik amaliyot ham alohida o‘rin egallaydi. Bu oliy pedagogik ta’lim jarayonining o‘zgaruvchan dinamik xarakterga egaligi bilan bog‘liq. Shu bilan bir qatorda zamonaviy kasbiy bilimlarga ega bo‘lgan pedagog oldiga qo‘yilgan ijtimoiy talablar ham uning kasbiy-madaniy rivojlanishiga yangicha yondashuvni tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Buning uchun birinchi navbatda bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlari pedagogik refleksiyani amalga oshirish layoqati va imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bunda ular o‘zlarining shaxsiy amaliy faoliyatlari hamda kasbiy-madaniy dunyoqarashlarining mavjud darajasiga tayanishlari va o‘qituvchi nuqtai nazaridan emas, o‘quvchi nuqtai nazaridan yondashgan holda pedagogik faoliyat usullarini egallashlari talab etiladi. Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar ustozlari va guruhdoshlarining tajribalari, kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari va kasbiy-madaniy dunyoqarashlarining mavjud darajasini kuzatishlari, refleksiyalashlari talab etiladi.

Shunday qilib, refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega: u tolerantlik, o‘zaro hurmat, ishonch, hamkorlik va refleksivlik tamoyillariga, madaniyatshunoslik yondashuviga hamda refleksiv yondashuv asosidagi kasbiy va shaxsiy rivojlanishga tayanadi. Bu xususiyatlarni inobatga olgan holda navbatdagi 1.3-§ da bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashning pedagogik yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi

1.3-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashning pedagogik yo‘nalishlari.

Oldingi paragrafda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqilib, bu jarayonda refleksiv asosda tashkil etiladigan pedagogik amaliyotning alohida o‘rni ta’kidlandi. Endi shu xususiyatlardan kelib chiqib, refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning pedagogik yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashda refleksiv yondashuvdan foydalanish talabalardan pedagogik amaliyot imkoniyatlariga tayanib, o‘qituvchilik kasbiga moslashishni talab etadi. Natijada ularda kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan refleksiv-madaniy dunyoqarash jadal tarbiyalanadi. Refleksiv yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik amaliyotda bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z harakatlarini muayyan parametrlar asosida belgilab olishlari kerak: o‘zini o‘qituvchi mavqeida tasavvur qilish, o‘quv predmeti

mazmuni va uni o‘qitish metodikasini puxta o‘zlashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasi va yoshiga ko‘ra imkoniyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish hamda o‘z pedagogik faoliyati natijalarini tizimli tahlil qila olish shular jumlasidandir.

Bu parametrlar bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z kasbiy layoqatlari va egallagan kasbiy bilimlarini obyektiv baholash imkonini beradi. Shuningdek, ular o‘z faoliyatini o‘quv dasturining maqsadi va mazmuniga mos tarzda amalga oshirish tajribasini ham o‘zlashtirishlari lozim. Bunda talabalarning o‘z faoliyatini tashqaridan turib va o‘z-o‘zini tahlil qilish orqali baholay olishi, ta’lim jarayonida rivojlantiruvchi, shaxsga yo‘naltirilgan, evristik hamda kompetensiyaviy yondashuvlarni o‘zaro mutanosib tarzda qo‘llashi, qo‘llanilgan metodlarning maqsadga muvofiqligini asoslay olishi, pedagogik jarayonda usul va vositalarni to‘g‘ri tanlashi alohida ahamiyatga ega.

Har qanday jarayonga refleksiv yondashuvni tatbiq etish uni kuzatishni taqozo etadi. Pedagogik amaliyotda bunday kuzatish tajribali o‘qituvchilar va talabalarning birgalikdagi faoliyati doirasida amalga oshiriladi. Tajribali o‘qituvchilar faoliyatini kuzatish jarayonida talabalar ularning ish uslubini tahlil qiladi, qo‘llangan usul va metodlarning samarali jihatlarini ko‘radi, kasbiy nuqtai nazardan xulosa chiqaradi va faoliyat natijalari asosida o‘z bilimlarini rivojlantiradi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik amaliyot davomida bir-birining ish uslubi va faoliyat natijalarini ham kuzatib, tahlil qiladilar. Amaliy xarakterdagi o‘quv faoliyatida talabalar pedagogik amaliyotga har tomonlama chuqur tayyorlanishi, shu asosda o‘zlashtirgan amaliy tajribalarini qo‘llab, sinovdan o‘tkazishi lozim.

Pedagogik amaliyot davrida bo‘lajak o‘qituvchilar turli xarakterdagi didaktik vaziyatlarda ishtirok etib, o‘zlarini o‘qituvchi mavqeida tasavvur qiladilar. Buning uchun ular umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quv rejasiga kiritilgan o‘quv predmetlarini o‘qitish metodikasini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi, imitatsiya metodidan foydalanib o‘quv jarayonini tashkil eta olishi talab etiladi. Ular o‘zlari amalga oshirgan ishlarni guruhdoshlari bilan birgalikda muhokama qiladi, vujudga kelgan qiyinchiliklarni qanday usullar yordamida bartaraf etganliklari haqida

axborot beradi, o‘zlari va guruhdoshlari yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatish bo‘yicha aniq tavsiyalar bera oladi. Ayrim talabalar o‘quv jarayonini o‘quvchi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Bu esa turli o‘quv vaziyatlarini tashkil etishda o‘quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlari va motivatsiyasining mavjud darajasini aniq hisobga olish imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari, turli murakkablikdagi o‘quv topshiriqlarini bajara olish layoqatlarini hamda o‘qituvchining metodik mahoratini hisobga olish tajribasini ham egallaydilar. Shunday qilib, refleksiv yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda amaliy pedagogik faoliyat asoslari shakllanadi va ularga xos pedagogik nuqtai nazar tarkib topadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarining shaxsiy kasbiy-madaniy rivojlanishi uchun ahamiyatli qadriyatlarni pedagogik amaliyot davrida o‘zlashtiradilar. Amaliy mashg‘ulotlarda o‘z bilim, ko‘nikma va malakalaridagi bo‘shliqlarni hisobga olib, kasbiy faoliyatga oid tajribani egallashga intiladilar. Pedagogik refleksiya natijalariga tayanib o‘qituvchi mavqeini egallaydilar va o‘quvchilar bilan shaxslararo munosabatga kirishadilar. Muammoning murakkabligi shundaki, kasbiy faoliyat tajribasini egallash jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar nafaqat bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari haqida aniq ma’lumotlarga ham ega bo‘ladilar. Shu bilimlarga tayanib ular pedagogik amaliyotda o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazadilar, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib mavzular tanlaydilar va sinf soatlarini tashkil etadilar. Sinov tariqasida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat va qo‘llaniladigan tajribalar xato va kamchiliklardan xoli bo‘lmagani uchun bo‘lajak o‘qituvchilarga refleksiv faoliyat nihoyatda zarur. Shu sababli madaniyatshunoslik yondashuvi asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda ham refleksiv yondashuvdan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Refleksiv yondashuv yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda qadriyatli-motivli, kognitiv hamda xulq-atvorga asoslangan kasbiy ko‘nikmalar shakllanadi, ular pedagogik mahoratni kasbiy qadriyat darajasida anglaydi va istiqbolda o‘z pedagogik faoliyatini

takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa ularda kasbiy nuqtai nazar va kasbiy-madaniy dunyoqarash shakllanadi.

Pedagogik amaliyotdagi bu jarayonlarning markazida kasbiy refleksiya turadi, shu bois uning mohiyatini ko‘rib chiqish zarur. Fanga kasbiy refleksiya tushunchasini B. Z. Vulfov olib kirgan. Uning ta’biricha, kasbiy refleksiya shaxsning o‘zi, o‘zligi va tanlagan kasbiga bo‘lgan munosabatini anglatadi. Kasbiy refleksiyaning rivojlanishi bo‘lajak o‘qituvchining asosiy kasbiy sifati hisoblanadi, pedagogik refleksiya esa uning kasbiy faoliyatni egallashini ta’minlovchi asosiy omildir. Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik refleksiya faoliyatini o‘rganishga oid tadqiqotlar ko‘p. Ularda tafakkur psixologiyasida keng qabul qilingan yondashuvlar, refleksiyaning mexanizmlari, darajalari, tiplari va ijodiy rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganilgan. Bu tadqiqotlar B. Z. Vulfov, E. F. Zeer, A. V. Karpov, A. K. Markova, V. A. Tolochek, O. N. Rodina, A. M. Stolyarenko, Ye. P. Belozersev, V. V. Davidov, I. A. Zimnyaya, A. I. Markova, L. M. Mitina, G. S. Pyankova, V. A. Slastenin tomonidan amalga oshirilgan.

O. N. Rodina refleksiyalash faoliyatini shaxsning bir qator shaxsiy sifatlari sirasiga kiritgan. Bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyat subyekti sifatida refleksiyalash kompetensiyasiga ega bo‘lishi lozimligi bir qator o‘zbek olimlari tomonidan ham ta’kidlangan: R. Safarova, N. Muslimov, B. Ma’murov, G. Ibragimova, X. Ibraimov, B. Adizov kabilarning ishlarida o‘qituvchining pedagogik refleksiyaga oid faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan.

Pedagogik faoliyatning umumiy bahosi tashqi mezonlarga asoslanib beriladi: bunday bahoni bo‘lajak pedagoglarga professor-o‘qituvchilar va guruhdoshlari beradi. Talabaning o‘zi esa o‘z faoliyatiga ichki baho beradi; bu uning kasbiy va madaniy dunyoqarashini refleksiyalashi asosida amalga oshiriladi. Yuqori darajadagi refleksiv tajribaga ega o‘qituvchilar o‘z faoliyatini muvofiq tarzda baholash va tashkil etish, kasbiy hamda madaniy dunyoqarashini muntazam rivojlantirish, zarur kompetensiyalarni egallash ko‘nikmasini o‘zlashtiradi.

Pedagogik akmeologiya doirasida o‘qituvchining refleksiv faoliyati shaxsning refleksiv-madaniyati kontekstida tahlil qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda

refleksiv madaniyatni rivojlantirish refleksiv tayyorlik, refleksiv kompetentlik, refleksiv-ijodiy imkoniyatlar va refleksiv layoqatlar dinamikasi sifatida tadqiq etiladi (B. Ma'murov, S. Ibraximov, A. A. Derkach, I. N. Semenov, S. Yu. Stepanov, G. I. Davidov). Bundan refleksiv-madaniyat madaniy dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lishi ko‘rinadi.

Refleksiv layoqatlar o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z faoliyatini korreksiyalash ko‘nikmalarining o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘lishini ta'minlaydi. Bu hodisa I. N. Semenov tomonidan keng tadqiq qilingan. Refleksiv layoqat bo‘lajak o‘qituvchilarning asosiy kasbiy sifatlari sirasiga kiradi.

Kasbiy refleksiya bo‘lajak pedagog faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlovchi hodisadir. Refleksiv faoliyat bo‘lajak o‘qituvchilar tafakkurining kreativligi, kasbiy mahoratining rivojlanishi, yangi bilimlarni amaliy tajribada faol qo‘llash ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa refleksiyani shaxsning shaxsiy-kasbiy jihatdan o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi, ijodiy jihatdan o‘zini namoyon qiluvchi mexanizm sifatida baholash imkonini beradi. O‘qituvchining kasbiy refleksiyaga egaligi psixologik tadqiqotlar doirasida o‘rganila boshlanganiga uncha ko‘p bo‘lgani yo‘q. Kasbiy refleksiya muammosini B. Z. Vulfov tadqiq qilgan; uning ta'biricha, refleksiya pedagogik faoliyatning o‘ziga xos jihatlari bilan bevosita bog‘liq va birinchi navbatda pedagogik tajriba bilan o‘zaro aloqador hodisadir.

Bugungi kunda o‘quv jarayoniga ta'lim-tarbiyaning yangi texnologiyalarini tatbiq etish jadallashmoqda. Bu pedagogik jarayonlarning murakkablashishiga olib kelmoqda va o‘qituvchidan muntazam kasbiy-shaxsiy rivojlanishni talab qiladi. Bularning barchasi bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv faoliyatga nisbatan qiziqishni shakllantirishni taqozo etadi. Pedagogik refleksiyaga oid izlanishlar hozirda pedagogning o‘zini anglashi bilan bog‘liq muammolar doirasida olib borilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion xarakterdagi pedagogik faoliyatga tayyorlashga oid tadqiqotlarda esa mutaxassisning refleksiv kompetensiyasini

rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda; bu masala V. L. Matrosov, O. V. Moskalenko, L. M. Mitina tomonidan tadqiq etilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash muammosini o‘rganayotgan mutaxassislarning aksariyati pedagogik refleksiyaga alohida o‘rin ajratgan, chunki refleksiyalash bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi muhim tarkibiy qismidir. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik refleksiyadan o‘zlarida shakllangan kasbiy kompetensiyadagi bo‘shliqlar va muvaffaqiyatli jihatlarni aniqlash maqsadida foydalanadilar. Shu bilan birga, refleksiya o‘qituvchining regulyativ kompetensiyasi tarkibiga kiradi va unga o‘z xulq-atvorini boshqarish imkonini beradi. Bu kompetensiya o‘z oldiga maqsad qo‘ya olish, rejalashtirish, safarbarlik ko‘rsatish, qat’iy faollik va faoliyat natijalarini baholash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Aksariyat mutaxassislar pedagogning refleksiyalash layoqati tushunchasi doirasida o‘qituvchining o‘zini anglash faoliyatini nazarda tutadilar. Bunda o‘qituvchi o‘z faoliyatiga tahliliy nuqtai nazardan yondashadi. Shunga ko‘ra A. A. Bizyayeva pedagogik refleksiyaning ikki darajasini ajratib ko‘rsatgan:

1. Tezkor daraja: refleksiv ongning tezkor, konstruktiv ijrochilikka asoslangan, motivatsion va prognozlash yo‘nalishlarini mujassamlashtiradi.
2. Shaxsiy daraja: bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-shaxsiy, subyektiv yo‘nalishlarini hamda refleksiv vaziyatlarga shaxsiy subyektiv jihatdan kirishishini anglatadi.

Demak, pedagogik refleksiya bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashni jadallashtiruvchi hodisa bo‘lib, bu layoqatning shakllanishi ularga o‘zining kasbiy yetukligi va kamchiliklarini aniq tasavvur qilish hamda kasbiy-madaniy dunyoqarashini rivojlantirish imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik refleksiyani shakllantirish masalasi ko‘plab mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, I. A. Stetsenko o‘qituvchi pedagogik refleksiyasining murakkab tarkibiy tuzilishga ega ekanini ta’kidlab, uning psixologik tarkibi motivli-maqsadli, kognitiv-operatsion, affektiv, baholovchi va axloqiy-irodaviy qismlardan iborat ekanini ko‘rsatgan. Motivli-maqsadli

element bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv faoliyatga bo‘lgan ehtiyoji, refleksiyaga nisbatan ijobiy munosabati, pedagogik refleksiyaga oid faoliyatini takomillashtirishdagi qiziqishlari va refleksiv faoliyat maqsadini anglab yetishini o‘z ichiga oladi. Kognitiv-operatsion element pedagogik refleksiyaning nazariy asosini oydinlashtiruvchi bilimlar va refleksiv faoliyatni amalga oshirishga oid kasbiy ko‘nikmalardan iborat. Affektiv komponent o‘qituvchining refleksiya jarayonida harakatlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan his-tuyg‘ularini, kechinmalarini va muvaffaqiyatga bo‘lgan ishonchini qamrab oladi. Baholovchi element mazmuniga bo‘lajak o‘qituvchining o‘z-o‘zini baholashi hamda refleksiv faoliyatini nazorat qilishga oid harakatlarini kiritish mumkin. Axloqiy-irodaviy element esa samarali refleksiv faoliyatni amalga oshirish imkonini beradigan shaxsiy sifatlarni o‘z ichiga oladi.

Mutaxassislar o‘qituvchi refleksiv faoliyatining pedagogik jarayondagi o‘rnini ham o‘rganishga harakat qilganlar. O‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z faoliyatini takomillashtirish va o‘qituvchining refleksiv faoliyatini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, refleksiv baholash natijasida o‘qituvchilarda o‘z-o‘ziga va pedagoglik kasbiga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Refleksiv jarayonlarning rivojlanishi va refleksiyalash layoqati fikriy faoliyatdagi xudbinlikni bartaraf etishga ko‘maklashadi. Xudbinlik muammolarga nisbatan bir yoqlama yondashuvlarga asoslangan stereotiplarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlari va egallayotgan kasblariga tashqaridan turib, boshqalar nuqtai nazaridan yondasha olishini ta’minlashda pedagogik refleksiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik refleksiya yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-madaniy dunyoqarash tarkib topadi. Turli nuqtai nazarlarni qabul qilish natijasida ular ijodiy tafakkurini markazlashtirishga muvaffaq bo‘ladi, bir yoqlama qarashlardan qutulib, refleksiv-madaniy dunyoqarashini kengaytiradi. Bu muammo R. Safarova, B. Ma’murov, G. Ibragimova, S. L. Rubinshteyn va I. N. Semenov tomonidan nazariy pedagogik hamda psixologik jihatdan asoslangan.

Refleksiv faoliyat ko‘nikmasiga ega bo‘lmasdan turib bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z madaniy dunyoqarashini tarbiyalash subyektiga aylana olmaydi. Faqat refleksiv faoliyat ko‘nikmasini egallash natijasidagina ularda shaxsiy-kasbiy ijodkorlik, kasbiy-madaniy dunyoqarash va kasbiy kompetentlik o‘zaro mutanosib rivojlanadi. Istiqboldagi kasbiy faoliyatida bo‘lajak o‘qituvchilar refleksiv ko‘nikmalari yordamida quyidagi funksiyalarni bajara oladilar:

1. Pedagogik faoliyatni egallash jarayonida kasbiy o‘z-o‘zini aniqlash hamda kasbiy moslashishni ta’minlash.
2. Amalga oshiradigan pedagogik faoliyatiga nisbatan ongli munosabat tajribasiga ega bo‘lish.
3. O‘z pedagogik faoliyatini tizimli, yaxlit tarzda boshqarishga oid ko‘nikmalarni namoyon etish.
4. Ijodiy tafakkurning mahsuldor, innovatsion xarakterdagi faoliyatini ta’minlash.
5. Mahsuldor pedagogik faoliyatni muntazam rivojlantirishga oid kreativ harakatlarni amalga oshirish.
6. Professionallik darajasi, pedagogik mahorat, kasbiy kompetentlik, shaxsiy-kasbiy jihatdan muntazam rivojlanish, o‘z-o‘zini baholash asosida shaxsiy rivojlanishni ta’minlash, o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘z faoliyatini boshqarish, kasbiy-madaniy dunyoqarashini kengaytirishga oid layoqatini namoyon etish.
7. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy deformatsiya, pedagogik inqiroz va pedagogik toliqishdan asrash.

Pedagogik refleksiyaning tan olinishi pedagogik faoliyatda refleksiv faoliyat texnologiyalarini qo‘llash zaruriyatini kuchaytirmoqda. Bu texnologiyalardan pedagogik jarayonda foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv kompetensiyasini tizimli rivojlantirish imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv faoliyatini rivojlantirish jarayoni integrativ xarakterdagi pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘qituvchi shaxsining tarkibiy qismlarini qamrab oladi va o‘z pedagogik faoliyatini rivojlantirish strategiyasini aniqlash

imkonini beradi. Refleksiv faoliyat o‘qituvchi pedagogik tafakkurining o‘ziga xos ifodasidir. Pedagogik vaziyatlar orasida o‘qituvchilarni refleksiyaga jalb qiladigan vaziyatlar ularning madaniy dunyoqarashini tarbiyalash uchun alohida ahamiyatga ega. Refleksiya natijasida o‘qituvchilar o‘z xatolarini aniq ko‘radilar, istiqboldagi harakatlarini belgilab oladilar va o‘zlarini urf-odatlarimizga mos tuta oladilar.

O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri madaniy muloqotga kirishish jarayonida zarur qarorlarni qabul qilishlari uchun pedagogik refleksiyaga ehtiyoj sezadilar. Pedagogik refleksiya yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, o‘qituvchilar o‘z xatolarini aniq ko‘ra olmaydi va mahsuldor faoliyatni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Interaktiv vaziyatlarda qaror qabul qilishda ular ko‘pincha muammoga refleksiv emas, impulsiv tarzda yondashadi, aqlga emas, intuitsiyaga tayanadi. Bu samarali qarorlar qabul qilishga to‘sqinlik qiladi. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchining samarasiz harakatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- o‘z o‘quvchilari va hamkasblarining nuqtai nazarlarini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelish;

- qarorlarni amalga oshirishda muammolarni to‘la his eta olmaslik, bu refleksiyalash layoqatining yetarlicha shakllanmaganligidan dalolat beradi;

- o‘qituvchi tafakkurida xudbinlikning mavjudligi: o‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyatini refleksiya qilmasdan o‘quv jarayonini loyihalashtiradi va amalga oshiradi, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi nima uchun pastligi haqida o‘ylab ko‘rmaydi;

- o‘qituvchi tafakkuridagi stereotiplar: ziddiyatli vaziyatlarda qaror qabul qilishda, o‘quvchilar o‘qishni xohlamagan vaziyatlarda ularning xatti-harakatlarini refleksiyalashga e’tibor qaratmaslikda namoyon bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi o‘z tafakkuridagi stereotiplarga tobe bo‘lib, o‘quvchilarni o‘qishni xohlamaslikda, o‘qishga layoqatsizlikda, xulq-atvorining salbiyligida ayblaydi;

- intellektdagi yopiqlikka e’tibor qaratmaslik: refleksiyalash ko‘nikmasiga ega bo‘lmagani uchun o‘qituvchi o‘quvchilar nimani xohlashini aniqlash va ular bilan qanday ishlash kerakligiga e’tibor bermaydi. Bu bir tomondan o‘qituvchida

refleksiyalash ko‘nikmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, ikkinchi tomondan madaniy dunyoqarashning shakllanmaganligi bilan izohlanadi;

- o‘qituvchi tafakkurida majburlashning mavjudligi: bunday vaziyatlarda o‘qituvchi o‘zini haq deb biladi va shaxslararo munosabat madaniyati qoidalariga rioya qilmaydi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish oliy pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, o‘qituvchining pedagogik madaniyatini rivojlantirishning o‘ziga xos shartidir. Agar tahlillar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik refleksiya yetarlicha rivojlanmagani aniqlansa, ularga o‘quvchilarning ichki olamini anglash va xatti-harakatlarini ijobiy tomonga yo‘naltirishga oid pedagogik bilimlarni berish talab etiladi. Shundagina o‘quvchilarda harakat motivlari va topshiriqlarni bajarishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun qulay sharoit vujudga keladi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda aniqlangan sabab-oqibatlar asosida o‘z harakatlarini rejalashtirish ko‘nikmasi shakllanadi.

Pedagogik refleksiyani talab etilgan darajada rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Refleksiya yetishmasa, ular o‘z imkoniyatlari va refleksiv-madaniy tarbiyalanganlik darajasini munosib baholay olmaydi, o‘z ko‘nikmalari mohiyatini anglay olmaydi, natijada boshqalarning, ayniqsa o‘quvchilarning aqliy jarayonlarini yetarlicha baholay olmaydi. O‘qituvchi refleksiya vositasida o‘quvchining aqliy taraqqiyot darajasi va bu yo‘nalishdagi bo‘shliqni aniqlashi hamda ularning rivojlanish trayektoriyasini aniq belgilab olishi lozim. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv jarayoni samaradorligini va unga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni yaxshi bilishlari alohida ahamiyatga ega.

Refleksiyalash layoqatiga ega bo‘lmagan o‘qituvchilar o‘quvchilarning rivojlanish darajasini ta’minlovchi metodikalarni qo‘llay olmaydi. O‘qituvchi o‘quv jarayoniga ijodiy yondasha olishi uchun unda refleksiyalash layoqati yetarli darajada shakllangan bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarga o‘qituvchining ta’siri o‘quv predmeti orqali amalga oshadi. O‘quvchilar dastlab bir o‘qituvchini ikkinchisidan ajratmaydi va barcha o‘qituvchilarga birdek munosabatda bo‘ladi. Biroq o‘qituvchi va o‘quvchilar bir-birini yaqindan tanigach, ular orasida muayyan xarakterdagi shaxslararo munosabatlar vujudga keladi: o‘qituvchilar o‘quvchilarga, o‘quvchilar esa o‘qituvchilarga baho bera boshlaydi, ularga nisbatan qoniqish yoki qoniqmaslik hissi paydo bo‘ladi. O‘quvchilar nafaqat o‘qituvchilarning xatti-harakatlariga, balki ular o‘qitadigan o‘quv faniga ham ijobiy yoki salbiy munosabat bildiradi.

O‘qituvchilarda shakllangan past darajadagi shaxsiy refleksiv-madaniyat ularning ichki hayoti va faoliyati mazmunini belgilaydi. Natijada o‘qituvchilar ijodiy imkoniyatlarini namoyon eta olmaydi, shaxsiy va kasbiy rivojlanishning yuqori darajalariga erishmaydi, refleksiv-madaniy dunyoqarashi yetarlicha taraqqiy etmaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘qituvchi kasbiy taraqqiyotining refleksiya bilan bog‘liq jihatlari madaniy dunyoqarashning rivojlanishi bilan ham bog‘liq. Bir so‘z bilan aytganda, refleksiv ko‘nikmalar shakllanmagani tufayli o‘qituvchilarning pedagogik kompetentlilik darajasi to‘laqonli shakllanmaydi. O‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlarining o‘ziga xos qonuniyatlarini bilish darajasi va o‘quv jarayonini tahliliy o‘rganish ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmay qoladi, o‘qituvchi ongini o‘quvchilarga qaratish imkoniyatlari pasayadi, uning kasbiy ongida pedagogik voqelikni tahlil qilish mexanizmlari yetarlicha shakllanmaydi. Natijada o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlarining pozitiv imkoniyatlari pasayadi.

Refleksiv faoliyatga oid ko‘nikmalari rivojlanmagan o‘qituvchilar o‘quv axborotlarini namoyish etishda qiyinchiliklarga duch keladi. O‘qituvchi pedagogik faoliyatni o‘quv jarayonini refleksiyalash asosida amalga oshirsa, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘quv jarayoni samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarni kompleks rivojlantirishdan iborat. O‘qituvchi birinchi navbatda o‘quvchilarning intellektual layoqatlarini aniqlay olishi kerak. Umumiy o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirishning

umummilliy dasturida o‘quvchilarning shaxsiy tajribasini boyitish, intellektual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlash imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarda xuddi shunday kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor berish talab etiladi.

Shaxsiy tajribaning mazmunini o‘quvchilarning tasavvurlari, tushunchalari, aqliy va amaliy harakatlari, shuningdek, hissiy-emotsional jihatlari, shaxsiy sifatlari, madaniyatga oid bilimlari va xatti-harakatlari tashkil etadi. Bunday pedagogik jarayonni tashkil etish uchun o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashi rivojlangan bo‘lishi lozim. Madaniyatshunoslikka asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish o‘qituvchidan keng ko‘lamdagi kasbiy-madaniy dunyoqarashga ega bo‘lishni talab etadi. Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv layoqati esa uning kasbiy-amaliy instrumenti hisoblanadi, shu instrument yordamida pedagogik vazifalarga yechim topiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashi yetarli darajada tarbiyalanmagan bo‘lsa, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish imkoniyati pasayadi. Refleksiyani rivojlantirish esa nafaqat pedagogik madaniyatni, balki keng ko‘lamli ijtimoiy-pedagogik fikrni ham vujudga keltirishga ko‘maklashadi. Bu muammoga muvaffaqiyatli yechim topish uchun tashqi va ichki shart-sharoitlarni aniqlash, uning tabiatini o‘rganish zarur. Shundagina bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zining kasbiy-madaniy dunyoqarashini refleksiyalash ko‘nikmalari shakllanadi. Buning uchun refleksiyaning pedagogik-psixologik asoslariga tayanish lozim: shundagina o‘z madaniy dunyoqarashini muntazam refleksiyalashning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishga erishiladi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik refleksiyani rivojlantirish uchun uning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash kerak.

Bunda bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik refleksiyani rivojlantirish uchun refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashga yo‘naltirilgan maxsus mashg‘ulotlar, seminar-treninglar o‘tkazish talab etiladi. Refleksiv faoliyatning mazmun-mohiyatini talabalar anglab yetishi uchun refleksiv mashqlardan tizimli foydalanish lozim, chunki bu mashqlar bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z madaniy

darajalarini muntazam refleksiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonning ustuvor maqsadlaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-madaniy bilim va tajribalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatini tashkil etishdir. Shu bilan birga, o‘quv jarayonining tarkibi bilan bog‘liq holda bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv faoliyatini tahlil qilish mexanizmlarini aniqlash ham yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan biridir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv faoliyati o‘zining aniq tarkibiy tuzilishiga ega: uning tarkibiy qismlari sifatida refleksiv faoliyat maqsadi, motivlari, mazmuni, muayyan hodisani tahlil qilish bilan bog‘liq harakatlar, ko‘nikmalar va natijalar ajratiladi. Shunga ko‘ra bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv faoliyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1. Refleksiv faoliyatning o‘ziga xosligi. Ya’ni, maqsadga yo‘naltirilganligi, qayta shakllantiruvchilik xarakteriga ega ekanligi, muayyan narsa-hodisa bilan bog‘liqligi va anglanganligi, muayyan qurilish va usullarga ega ekanligi, faoliyat jarayoni va uning asosiy natijalari bilan tavsiflanadi.
2. Pedagogik jarayonda refleksiv muhitning mavjudligi. Refleksiv muhit deganda bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy-madaniy taraqqiyotining o‘ziga xos shart-sharoitlari, ular oldida o‘z-o‘zini tadqiq qilish va o‘z faoliyatiga tuzatishlar kiritish imkoniyatining mavjudligi, ijtimoiy-psixologik hamda kasbiy manbalarning qulayligi tushuniladi. Refleksiv muhitning asosiy funksiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiyaga nisbatan ehtiyojni vujudga keltirishdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion xarakterdagi refleksiv faoliyatni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyat talabalarning birgalikda ijod qilishi va tanlov vaziyatlarini vujudga keltirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxs va pedagog sifatida o‘zini anglash, kasbiy faoliyat ko‘rsatish jarayonlarini tasavvur qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Talabalar orasida refleksiv muhitni yaratishdan asosiy maqsad – ularni o‘quv jarayoniga olib kirish, uni mustaqil tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish,

o‘qituvchi-o‘quvchi orasidagi madaniy muloqot me’yorlarini o‘zlashtirishlari uchun imkoniyat yaratishdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv funksiyasini rivojlantirish ularning hayotiy faoliyat usullarini egallashi uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Refleksiv muhitda faoliyat ko‘rsatishning asosiy yo‘nalishlari ekzistensional hodisalar bilan ishlash, shaxsning o‘z individual faoliyati mohiyati va qimmatini anglashiga ko‘maklashishdan iborat. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarining refleksiv-madaniy sifatlarini diagnostika qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi, olingan natijalardan refleksiv-madaniy darajasini rivojlantirishda foydalanadi va ijodiy faoliyatini takomillashtirish ustida o‘ylay boshlaydi. Yana bir muhim jihat – refleksiv faoliyat subyektlari hisoblangan bo‘lajak o‘qituvchilar orasida shaxslararo munosabatlarni faollashtirishdir.

Pedagogik jarayondagi munosabatlarning o‘ziga xos jihati shundaki, refleksiv faoliyat sharoitida o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyat subyektlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning umumiy faoliyati bir-birini to‘ldirish va boyitish orqali takomillashadi hamda madaniy-pedagogik xarakter kasb etadi. Aynan shunday madaniy-pedagogik munosabatlar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv faoliyati va madaniy dunyoqarashi rivojlanadi. O‘qituvchi bilan o‘quvchi orasidagi munosabatlar o‘ziga xos qadriyatli jihatlarga ega; ular o‘zaro aloqadorlikka asoslanib, o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilarning quvvatlarini mujassamlashtirish hamda bir-birini qo‘llab-quvvatlash muhitini vujudga keltirishga xizmat qiladi.

Bunday sharoitda o‘quvchilarning ichki quvvatlari va imkoniyatlari o‘z ifodasini topadi, ularning tajribasi, ichki imkoniyatlari hamda o‘qituvchining kasbiy mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. Natijada o‘qituvchilar o‘z faoliyatida yuqori darajalarga erishadi. Refleksiv faoliyatda shaxslararo munosabatlarning natijasi sifatida o‘zaro tushunish, hamkorlik va birgalikda ijod qilish imkoniyati vujudga keladi. Bu munosabatlarning samaradorligi shaxslararo pozitiv munosabatda namoyon bo‘ladi, chunki refleksiya o‘qituvchi va o‘quvchi ongining namoyon bo‘lishiga ko‘maklashadigan mexanizmdir. Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv faoliyatida shaxslararo ijobiy munosabatlarning ko‘rsatkichi sifatida shaxslararo

refleksiyaning adekvatligi, nuqtai nazarlarning o‘zaro muvofiqligi, bir-biridan manfaatdorlik, o‘zaro mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash namoyon bo‘ladi.

Refleksiya o‘qituvchining ijtimoiy-perseptiv hamda kommunikativ layoqatlari asosini tashkil etadi, shu sababli u madaniy o‘zini anglash imkoniyatini yaratadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy refleksiv faoliyati rivojlanishining muhim shartlaridan biri – o‘z faoliyatini dolzarblashtirishdir. Refleksiya refleksiv faoliyat natijasida namoyon bo‘ladi va bo‘lajak o‘qituvchilar nuqtai nazarining subyektiv xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Refleksiya natijasida ular o‘zlariga boshqalarning nuqtai nazari orqali baho berishga o‘rganadi, unga nisbatan o‘z munosabatini bildiradi va refleksiya asosida hukm chiqarishga muvaffaq bo‘ladi.

II-BOB. PEDAGOGIKA TURKUM FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING REFLEKSIV-MADANIY DUNYOQARASHINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

2.1-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashning mazmuni

Oliy pedagogik ta’limning malaka talablarida bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlashning o‘ziga xos yo‘nalishlari va kasbiy faoliyat turlari ko‘rsatilgan. Ular orasida o‘qituvchining refleksiv-madaniy faoliyati ustuvor o‘rin tutadi. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-madaniy faoliyati asosini uning refleksiv-madaniy dunyoqarashi tashkil etadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga nafaqat bilim beriladi, ular o‘zbek xalqining milliy madaniyati bilan ham yaqindan tanishtiriladi, tarixiy-madaniy merosimizga xos madaniy boyliklar haqidagi bilimlar taqdim etiladi. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi boy madaniy dunyoqarashga ega bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarni o‘zbek xalqi madaniyati bilan tanishtirish muammosi kun sayin dolzarblashmoqda. Hozirgi ijtimoiy-madaniy sharoitda xalqimizning refleksiv-madaniy dunyoqarashiga xos axloqiy yo‘nalishlar haqida chuqurroq o‘ylash va ularni bugungi kun talablari asosida baholash zarur. Vujudga kelgan axloqiy-madaniy inqirozlarning tub sabablari va oqibatlarini o‘quvchilarga tushuntirish qadriyatlar mohiyatini anglash hamda ommaviy va marginal madaniyatga qarshi kurashishga zamin yaratadi. Shu bois o‘qituvchi o‘z kasbiy funksiyasi doirasida insonning ma’naviy qiyofasini shakllantirish, o‘quvchilarning ma’naviy-madaniy kamolotiga yordam berish, ularda xulq-atvorning madaniy shakllari va qadriyatli munosabat tajribasini tarkib toptirishga ko‘maklashish layoqatiga ega bo‘lishi kerak.

Davlat ta’lim standartlarida nazarda tutilgan umumiy gumanitar xarakterdagi o‘quv predmetlari mazmuni orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash zaruriyati kuchaymoqda. Buning uchun bo‘lajak

o‘qituvchi shaxsini gumanitarlashtirish, umumiy ahamiyatga ega madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishga mas’uliyat bilan yondashish talab etiladi.

Biroq oliy pedagogik ta’lim muassasalaridagi pedagogik jarayonning tahlili jiddiy muammolarni ko‘rsatmoqda. Talabalar madaniyatshunoslikka oid bilimlarga kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning zaruriy qismi sifatida qaramaydilar. Ularda madaniyatshunoslik yondashuvi va refleksiv-madaniy dunyoqarash kelgusi pedagogik faoliyat uchun ahamiyatsiz degan fikr mavjud. Natijada madaniyatshunoslik va madaniy boyliklarni o‘zlashtirishga qiziqish yetarli darajada shakllanmagan. Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashga oid bilim va tasavvurlarning yetarlicha shakllanmaganligi madaniy hodisalarni tushunishni, haqiqiy madaniyatni soxta madaniyatdan farqlashni ham murakkablashtirmoqda. Madaniyat esa insonparvarlik tarbiyasining muhim tarkibiy qismidir, shuning uchun uning yetishmasligi talabalarning hissiy-emotsional sohasi rivojlanmasligiga va ijodkorlikning pasayishiga olib keladi.

Kuzatishlar o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan har doim ham insonparvarlik nuqtai nazaridan muloqot o‘rnatavermasligini, aksariyat o‘qituvchilarda obrazli tafakkur ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmaganligini ko‘rsatdi. O‘quvchilar bilan subyekt-subyekt darajasida madaniy muloqot o‘rnatish uchun esa pedagoglarda refleksiv-madaniy dunyoqarash, nutq odobi va pedagogik nazokat yetarlicha rivojlangan bo‘lishi talab etiladi.

Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash sifati va samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish zarurati paydo bo‘ldi. Bunday ta’lim bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagoglik kasbi madaniyat sohasi ekanligi haqida aniq tasavvur hosil qilishi lozim. Buning uchun ularga quyidagilar haqida aniq ma’lumot berilishi nazarda tutiladi: maxsus kasbiy bilimlarning madaniyatshunoslikka oid funksiyalari; o‘qituvchining o‘zbek xalqi madaniy boyliklarini saqlash va yangi vaziyatlarda o‘quvchilarga taqdim etish bilan bog‘liq faoliyati xarakteri; o‘quvchilar bilan madaniy boyliklarni o‘zlashtirish asosida olib boriladigan ish; bo‘lajak o‘qituvchini madaniyat sohibi sifatida shakllantirish usullari.

Madaniyatshunoslik yondashuviga asoslangan ta’lim kompleks muammolarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bois talabalarga bu muammoning falsafiy-pedagogik, ijtimoiy-pedagogik, psixologik-pedagogik va madaniy-pedagogik jihatlari haqida keng ko‘lamli ma’lumotlar berilishi talab etiladi. Pedagogikaning madaniyatshunoslik bilan bog‘liq jihatlari Beruniy, Forobiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ahmad Donish, Uvaysiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Behbudiy, Fitrat asarlarida o‘z ifodasini topgan. Zamonaviy pedagogik nazariya va ta’lim-tarbiyaning madaniyatshunoslik bilan bog‘liq jihatlari R. Safarova, O. Musurmonova, B. Xodjayev, A. Mamanazarov ishlarida yoritilgan.

Pedagogikaning madaniyatshunoslik tarmog‘i A. Disterveg tomonidan keng yoritilgan. Natijada pedagogik nazariya va amaliyotda madaniyatshunoslik yondashuvining rivojlanish tendensiyasi vujudga keldi. Bu hodisa ayniqsa ko‘pmadaniyatli jamiyatda ta’lim-tarbiyaning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Pedagogikada madaniyatshunoslik rivojiga M. Baxtin madaniyatlar dialogi nazariyasi bilan, B. Bibler esa madaniyatni dialog sifatida talqin etgan nazariyasi bilan munosib hissa qo‘shgan. O‘quvchi va talaba shaxsining rivojlanishida tarixiy-madaniy yondashuvni R. Safarova, M. Salayeva, L. Vigotskiy tadbiq etgan. G. Batishev va M. Mamardashvili shaxsning madaniy dunyosi va muloqot madaniyati haqida fikr yuritgan.

Bu izlanishlar madaniyatshunoslik bilan pedagogika o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va muloqotni yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga ta’lim tizimida madaniyatshunoslikka oid ko‘plab yangi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Ta’limda madaniyatshunoslik yondashuvini tadbiq etish g‘oyasi E. Bondarevskaya, N. Krilova , A. Petrovskiy, B. Slastenin, I. Bestujev-Lada, B. Bim Bad tomonidan ilgari surilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, XX asrning oxirlariga kelib bo‘lajak o‘qituvchilarni madaniyatshunoslik yondashuvi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar ko‘lami kengaydi va pedagogning funksiyalariga alohida e’tibor qaratila boshlandi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining madaniyatshunoslikka asoslangan o‘quv jarayoni ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayon ta’limni insonparvarlashtirish ehtiyoji bilan bog‘liq. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim mazmuniga madaniyatshunoslikka oid bilimlarni ko‘proq singdirish talab etilmoqda. Muammoning nazariy-amaliy ahamiyati katta bo‘lgani uchun pedagogik ta’lim mazmunini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-madaniy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini o‘rganish asosida talabalarga beriladigan bilimlarni tizimlashtirish alohida ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekiston jamiyatida umuminsoniy madaniyat har qanday shaxs va kasb sohibini tarbiyalashning asosiy vositasi bo‘lishi lozimligi ta’kidlanmoqda. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu masalada milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan pedagogik munosabatni qaror toptirish tamoyili muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur tamoyil ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, unda milliy o‘zlikni anglash bilan birga umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirishga xizmat qiladi. U bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik faoliyatida insonparvarlik, adolat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik munosabat xalqning tarixiy-madaniy merosi, urf-odatlari, an’analari, ma’naviy qarashlari va axloqiy me’yorlarini ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishni nazarda tutadi. Bu orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy g‘urur, o‘z xalqining madaniy merosiga hurmat va milliy o‘zlikni anglash hissi shakllanadi. Ayniqsa, sharqona odob-axloq, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat va jamoaviylik kabi qadriyatlar pedagogik munosabatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan pedagogik munosabat esa inson huquqlari, erkinlik, tenglik, tinchliksevarlik, tolerantlik va insonparvarlik kabi universal tamoyillarni e’tirof etishga tayanadi. Bu yondashuv bo‘lajak

o‘qituvchilarda turli millat, din va madaniyat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, madaniyatlararo muloqot olib borish hamda demokratik qadriyatlarga sodiqlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada ular zamonaviy ta’lim muhitida samarali faoliyat olib borishga tayyor bo‘ladilar.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan pedagogik munosabatni qaror toptirish refleksiv yondashuv bilan ham uzviy bog‘liq. Refleksiya orqali bo‘lajak o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyati, axloqiy qarashlari va kasbiy pozitsiyasini tahlil qiladi hamda ularni takomillashtirishga intiladi. Bu jarayon pedagogga kasbiy faoliyatida ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda ongli va mas’uliyatli munosabat shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, mazkur tamoyil bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi, uning asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni esa pedagoglarning ma’naviy barkamolligi, kasbiy kompetentligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu tamoyilning dolzarbligi ta’lim jarayonida ommaviy madaniyat ta’sirining kuchayishi bilan ham ko‘rinadi. So‘nggi yillarda talabalar ommaviy madaniyat bilan bir qatorda marginal madaniyat ta’siriga ham berilmoqdalar. Shaxsiy-kasbiy jihatdan rivojlanayotgan bo‘lajak o‘qituvchining axloqi, badiiy didi va estetik ehtiyojlari uning madaniyatli shaxs sifatida rivojlanishini taqozo etadi. Shu bois oliy pedagogik hamda umumiy o‘rta ta’lim jarayonlari shaxsni madaniy-ijodiy jihatdan shakllantiruvchi jarayonga aylanishi lozim. Buning uchun ta’lim jarayoni tarixiy-madaniy tajribalar, madaniy me’yorlar, qadriyatlar, an’analar va turli madaniy modellarni yangi vaziyatlarda namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchilar yuksak madaniyat namunalarini qanchalik erta o‘zlashtirsalar, ommaviy va marginal madaniy xurujlardan himoyalanish imkoniyati shunchalik oshadi, chunki ularda madaniy dunyoqarash va madaniy immunitet tizimli tarzda shakllanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirishning asosiy manbalaridan biri badiiy madaniyat namunalaridir. Biroq pedagogik ta’lim mazmunida ularga yetarlicha o‘rin ajratilmagan. Badiiy madaniyat namunalarida

ifodalangan estetik ma’lumotlar talabalarning madaniy dunyoqarashini jadal rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik ta’lim mazmuniga singdirilishi zarur bo‘lgan, katta ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega manbalar sirasiga badiiy asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, tasviriy san’at namunalari, madaniy obidalar haqidagi ma’lumotlar, arxitektura namunalari va musiqa asarlarini kiritish mumkin. Bunday asarlar haqidagi qimmatli ma’lumotlarni talabalarga tarixiy manbalar, badiiy hamda ilmiy asarlar yordamida taqdim etish nisbatan qulay. O‘zbek xalqi boy va serqirra madaniyat namunalariga ega, ular katta ta’limiy va tarbiyaviy ma’lumotlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik faoliyatning madaniyatshunoslikka oid yo‘nalishlari aksariyat mutaxassislarning e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda.

Shunga qaramay, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash va bu jarayonda madaniyatga oid bilimlarni ularning faoliyatiga singdirish masalalari bugungi kunga qadar o‘z yechimini topmagan. Shu bois bu masala alohida izlanishlarni taqozo etmoqda. O‘qituvchilar madaniy-ma’rifiy faoliyatni amalga oshirgani uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ularni madaniyatga oid bilimlar bilan qurollantirish asosida kasbiy-madaniy dunyoqarashni rivojlantirishga e’tibor ehtiyoji tobora kuchaymoqda. Talabalarning voqelikni aqliy jihatdan his eta olishi va nazariy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan madaniyat boyliklarini ta’lim mazmuniga singdirish ham alohida ahamiyatga ega. Badiiy madaniyat namunalari yordamida talabalarda insoniy his-tuyg‘ular, kechinmalar, qiziqishlar, irodaviy sifatlar va hodisalarga munosabatni ifodalovchi harakatlar shakllanadi. Madaniyat boyliklari orasida shaxs ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan birliklar alohida o‘rin egallaydi; ularda madaniyat va ta’limning uyg‘un ifodalanishini ta’minlaydigan tarkibiy qismlar mavjud.

Har bir shaxs madaniyat boyliklarini o‘zlashtirar ekan, ularning ta’lim-tarbiyaviy ta’sirini his etadi. Ta’lim jarayoni esa madaniyat boyliklarini shaxs ongiga yetkazadigan asosiy omillardan biridir. Madaniyat shaxsning dunyoqarashini kengaytirib, kasbiy va insoniy sifatlarni egallashiga ko‘maklashadi,

shuningdek ma’naviy tarbiyaning asosiy manbai hisoblanadi. Shu bois ta’limga madaniyat nuqtai nazaridan yondashish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Har bir mutaxassis milliy-tarixiy hamda o‘zi yashayotgan davrga xos umuminsoniy madaniyat boyliklarini o‘zlashtirishi kerak.

Ta’lim jarayonida umuminsoniy madaniy boyliklardan foydalanish ehtiyoji jamiyatning madaniy imkoniyatlari kengayganidan dalolat beradi. Bunda ta’lim oluvchilarning manfaatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini insonparvarlashtirishga qaratilgan didaktik-madaniy muhitni tashkil etish ehtiyojini qondirish nazarda tutiladi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida madaniyat boyliklaridan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchi layoqatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun alohida imkoniyatlar yaratadi va uning shaxsiy kasbiy-madaniy hamda ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydi. Bunday rivojlanish bo‘lajak o‘qituvchining o‘zi va jamiyat uchun foydalidir: o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashi jamiyat a’zolarining madaniy shakllanishiga asos bo‘ladi, shuningdek uning o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun ham keng imkoniyat yaratadi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilar madaniy jihatdan o‘z-o‘zlarini takomillashtirishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu jarayonda o‘qituvchining funksiyasi kengayadi va uni umummadaniy jihatdan tayyorlashga bo‘lgan talablar ortadi. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- bo‘lajak o‘qituvchilar madaniy qadriyatlar va me’yorlarni yangi vaziyatlarga ko‘chirish ko‘nikmasini egallashlari;
- madaniy nuqtai nazardan individual xususiyatlari va layoqatlarini rivojlantirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari;
- o‘quvchiga o‘zining shaxsiy iqtidori va layoqatlarining ahamiyatini ko‘rsata olishlari;
- o‘quvchilar bilan muloqot jarayoni mazmuniga madaniy me’yorlarni singdira olishlari.

Shu ma’noda bo‘lajak o‘qituvchilar insoniyat to‘plagan madaniy qadriyatlarni kelgusi avlodlarga yetkazuvchi asosiy shaxs sifatida namoyon bo‘lishlari lozim. Buning uchun milliy, umuminsoniy va tarixiy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlarni har tomonlama puxta o‘zlashtirishlari, o‘zbek xalqiga mansub xalq og‘zaki ijodi va til boyliklarini yaxshi bilishlari talab etiladi.

O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy-madaniy yo‘nalishlari o‘zgarishi, takomillashishi va rivojlanishi barobarida o‘qituvchi shaxsi, uning madaniy dunyoqarashi va kasbiy-madaniy faoliyatiga bo‘lgan talablar ham ortib boradi. Shu sababli oliy pedagogik ta’limda o‘qitiladigan barcha fanlarning mazmuni bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirish nuqtai nazaridan tahlil qilinishi va boyitilishi kerak. O‘quv fanlari mazmunini boyitish pedagogik ta’limni madaniyatshunoslik yondashuvi asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

Pedagogik ta’lim mazmunini madaniyatshunoslik yondashuvi asosida modernizatsiyalashda bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashi tizimlilik, madaniyatshunoslik va individual-shaxsiy yondashuv asosida tanlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Shundagina uni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash imkoniyati vujudga keladi. Ayniqsa, XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashiga ehtiyoj kuchaydi: refleksiv-madaniy dunyoqarashga ega, o‘quvchilarni axloqiy-psixologik jihatdan rivojlantirish kompetensiyasini egallagan, faol, madaniy-pedagogik tafakkur qila oladigan o‘qituvchilarni tayyorlash zarurati ortdi.

Madaniy globallashuv o‘qituvchilarni tayyorlash mazmuniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, bu mazmunning gumanizm prinsipi asosida tanlanishi zaruriyatga aylanmoqda. Bu bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi va jamiyat manfaatlarining uyg‘unlashuvi bilan bevosita bog‘liq, shuningdek insondagi tabiiy xususiyatlarning rivojlanishi hamda yoshlarning umummadaniy, ijtimoiy-axloqiy va kasbiy shakllanishi bilan birga amalga oshadi. Bugungi kunda insonparvarlikka asoslangan pedagogik jarayonlarni shaxsning o‘z-o‘zini refleksiv-madaniy tarbiyalash prinsipi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bo‘lajak mutaxassisning madaniy-ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish pedagogikaning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi.

Bu birinchi navbatda bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash asosida amalga oshadi va mustaqil fikrlovchi, o‘z mavqeini aniqlay oladigan hamda individual rivojlanish trayektoriyasiga ega o‘qituvchilarni tayyorlashni nazarda tutadi. Shundan kelib chiqib, oliy pedagogik ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lajak o‘qituvchining umuminsoniy-

madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu insonparvar pedagogning shakllanishiga asos bo‘ladi. Shunga ko‘ra ta’lim-tarbiya jarayoni refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashni maqsadli rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchi, birinchi navbatda, o‘quvchilar bilan birgalikda amalga oshiradigan madaniy muloqot va hamkorlikka tayyorlanadi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash murakkab xarakterga ega: ular o‘quvchilarning o‘z-o‘zini madaniy jihatdan rivojlantirishini tashkil etish kompetensiyasini egallashlari lozim. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchining istiqbolda faol ijodiy faoliyat ko‘rsatish imkoniyatini ta’minlaydi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonini insonparvarlik prinsipi asosida tashkil etish o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish, talabalarda umumadaniy ahamiyatga ega qadriyatlarga mas’uliyat bilan yondashish hissini tarbiyalash va o‘z dunyoqarashini aniq belgilab olish imkonini beradi. Madaniyatshunoslik insonparvarlikka asoslangan ta’lim jarayonining tarkibiy qismi bo‘lgani uchun u bo‘lajak o‘qituvchilarda umummadaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada ularning texnokratik, tor doiradagi kasbiy tafakkuri bartaraf etilib, madaniy dunyoqarashi kengayadi. Ular olamni yaxlit idrok etish, axloqiy prinsiplarga qat’iy rioya qilish, turli qarama-qarshilik va ziddiyatlarni obyektiv baholash, voqelikni tanqidiy idrok etish, insonparvarlik nuqtai nazariga ega bo‘lish kabi kompetensiyalarni o‘zlashtiradilar.

Madaniyatshunoslik va insonparvarlik pedagogikasining asosiy obyekti o‘qituvchi va o‘quvchi shaxsidir. Shu bois madaniyatshunoslik pedagogikani shaxs faoliyatini takomillashtirish mexanizmlarini qo‘llashga yo‘naltiradi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy sifatlar, ichki quvvatlar va insoniy his-tuyg‘ular rivojlanib, ular refleksiv-madaniy dunyoqarashi tarbiyalangan mutaxassis sifatida faoliyat ko‘rsatishi uchun asos yaratiladi. Bunday o‘qituvchilar ijtimoiy-kasbiy faoliyatda o‘zlarini yaqqol namoyon eta oladilar.

Madaniyatshunoslikning asosini inson va uning faoliyati tashkil etadi, shuning uchun u insonning ma’naviy-madaniy qiyofasi va xarakterli jihatlarini tadqiq etadi. Madaniyat namunalari insonga madaniy-estetik ta’sir ko‘rsatib, uning

ma’naviy olamini boyitadi va inson o‘zligini anglay boshlaydi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchining dunyoqarashini rivojlantirishda nafaqat pedagogika, balki psixologiya, madaniyatshunoslik va sotsiologiyaga oid bilimlarni mujassamlashtirgan holda qo‘llash nazarda tutiladi. Madaniyatshunoslik fanning muayyan sohasi bo‘lishi bilan birga o‘quv predmeti sifatida ham inson ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Hozirgi globallashuv sharoitida madaniy modellar jadallik bilan o‘zgarmoqda, shu sababli madaniyatshunoslik hanuz aniq chegaralari, yondashuvlari va tavsifiga ega bo‘lmayapti. Madaniyatshunoslik yondashuvidan gumanitar turkumdagi barcha fanlar, shu jumladan pedagogika ham keng foydalanib kelmoqda. Biroq o‘zbek xalqi qanchalik boy madaniy merosga ega bo‘lmasin, o‘qituvchilarning, ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashida bo‘shliqlar mavjud. Bu bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, madaniy dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladigan manbalarni aniqlash maqsadga muvofiq. Bo‘lajak o‘qituvchilarda madaniy dunyoqarashni shakllantirish zaruriyati bir qator sabab va asoslarga ega. Ular quyidagilarda ifodalanadi:

- bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladigan manbalarni aniqlash va o‘quv jarayonida foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish; buning natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar madaniyat boyliklari haqidagi bilimlarni hamda ulardan pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida foydalanish usullarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar;
- madaniyat boyliklarining bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash;
- bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga xizmat qiladigan madaniy-tarixiy tajribalarni aniqlash va saralash hamda ularning pedagogik madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash;
- o‘quvchilarda refleksiv-madaniy jihatdan o‘z-o‘zini anglash hissini tarbiyalashda madaniyat boyliklaridan foydalanish usullari bilan bo‘lajak o‘qituvchilarni qurollantirish.

Madaniyat boyliklari har doim har qanday jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilgan. Shu bois pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni o‘z mazmuni va tarkibiy

qismlariga ega bo‘lishi lozim. Bu jarayonning maqsad va vazifalari, tarkibiy tuzilishi va metodlari ham xuddi shu mazmunga asoslangan holda belgilanadi, talabalar faoliyati esa madaniyatshunoslikka oid bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiriladi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga xizmat qiladigan ta’lim mazmunini aniqlash masalasiga to‘xtalamiz. Bunday ta’lim mazmuni, birinchi navbatda, o‘zbek xalqining boy madaniy merosiga e’tibor qaratadi, chunki mazkur bilimlar shaxsning refleksiv-madaniy dunyoqarashini rivojlantirishda birinchi darajali ahamiyatga ega. U talabalarning umuminsoniy va milliy-madaniy boyliklar bilan muloqotga kirishishini ta’minlash asosida belgilanadi, chunki madaniy boyliklar bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirish va aniqlashga xizmat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchining madaniy dunyoqarashi esa uning o‘quvchilar bilan amalga oshiradigan muloqoti va munosabatini nazarda tutgan holda belgilanadi.

Pedagogikada ta’lim mazmunini aniqlashning uchta darajasi nazariy jihatdan asoslab berilgan:

- ta’lim mazmuni haqidagi umumiy nazariy tasavvurlar darajasi;
- o‘quv predmeti darajasi;
- o‘quv materiali darajasi.

Har bir daraja pedagogik xarakterdagi muayyan asosga ega. Umumiy nazariy tasavvurlar darajasida bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirishning ta’lim mazmuni oliy pedagogik muassasaning o‘quv rejasida o‘z ifodasini topadi. O‘quv rejasi madaniy boyliklarni singdirish mumkin bo‘lgan o‘quv predmetlarini o‘zida mujassamlashtiradi va muayyan o‘quv davrida talabalarga taqdim etiladigan mavzularni o‘z ichiga oladi. Madaniyatga oid bilimlar DTS va malaka talablarida ham o‘z aksini topadi: bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim yo‘nalishlari va ularga qo‘yiladigan talablarda umummadaniy bilimlar ifodalangan.

Mazmunning umumiy asosi shu tariqa belgilab olingach, refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashga yo‘naltirilgan bilimlarni tanlash va talabalarga taqdim etish qaysi prinsiplarga tayanishini aniqlash lozim bo‘ladi. Bu jarayon muayyan prinsiplarga asoslanadi. Ular quyidagilar.

a) Madaniyatga oid asosiy dalillarni ajratish va interpretatsiyalash prinsipi. Bunda har bir shaxsning tabiiylikka intilishi hamda madaniy mansublikning shakllanishi uchun zarur bilimlarni egallash ehtiyoji hisobga olinadi. Madaniyatga oid dalillar ba’zan bir-biriga zid bo‘lsa-da, yuqori darajada aniq, ishonchli dalillar e’tirof etiladi. Bunday interpretatsiya shaxsning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash konsepsiyasida o‘z ifodasini topadi. Shu bois turli-tuman farqlar va interpretatsiyalar orasidan tub farqlarni ajrata bilish lozim.

b) Diaxron va madaniyatlararo yondashuvlar prinsipi. O‘zbekiston jamiyati uchun ham madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalar va dialogga asoslangan munosabatlar tobora ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilar madaniyatlar o‘rtasidagi munosabatlarga oid bilimlarga ega bo‘lishlari va ularni istiqboldagi pedagogik faoliyatida o‘quvchilarga muvaffaqiyatli taqdim eta olishlari alohida ahamiyatga ega. Shundagina madaniyatlararo muloqot ijobiy natija beradi: o‘quvchilar o‘qituvchi taqdim etgan bilimlar yordamida turli madaniyatlarga nisbatan tolerant munosabatda bo‘lish tajribasini o‘zlashtiradilar va ularning ijobiy jihatlarini qabul qiladilar. Madaniyatlararo dialog haqida o‘quvchilarda to‘g‘ri tasavvur hosil qilish uchun o‘qituvchi dunyoqarashida bu bilimlar mustahkam o‘rin olgan bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda madaniyatga oid bilimlar uchun tarixiy davrning alohida ahamiyati ta’minlanadi. Natijada jamiyat a’zolarining xulq-atvori, diniy e’tiqodi, san’ati va madaniyati o‘zgaradi, yoshlarning madaniy qarashidagi marginallik bartaraf etiladi. Turli madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni qayd etish, aniqlash va hisobga olish madaniyatlararo muloqot prinsipiga tayanishni talab qilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash natijasida boshqa madaniyatlarni tushunish va ularga tolerant munosabatda bo‘lish kompetensiyalari shakllanadi. Madaniyatlararo muloqot prinsipi dalillarning darajasiga ham tegishli; bu yondashuv avvalo madaniyatga oid asarlar matnida va san’at namunalarida o‘z ifodasini topadi, shuningdek tarixiy asarlar matnida ham namoyon bo‘ladi.

Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilar, birinchi navbatda, asarlar matnini o‘qib, xulosa chiqarishlari kerak. Kuzatishlarga ko‘ra, aksariyat hollarda talabalar

darslikka ilova qilingan matn bilan cheklanib qoladilar. Holbuki, darslikka ilova qilingan matnlar aslida yo‘naltiruvchi vosita hisoblanadi. Talabalar madaniy dunyoqarashini muntazam boyitish uchun o‘zbek xalqining hamda o‘zgacha madaniyatga ega boshqa xalqlarning tarixiy o‘tmishi va bugungi kuniga bag‘ishlangan asarlarni o‘qib o‘rganishlari, ular haqida obyektiv xulosalar chiqarishlari lozim. Bunday asarlar va san’at namunalari sirasiga “Avesto”, Gerodotning “Tarix” asari, L. Morganning “Qadimgi jamiyat” asari, Firdavsiyning mashhur “Shoxnoma” asari, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari, Strabonning “Geografiya” asari, Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” asari, Mirxondning “Ravzat us-safo” asari, Xondamirning “Habib us-siyar” asari, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma” asari, Muhammad Ya’qub ibn Doniyolbiyning “Gulshan ul-muluk” asari, Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk va mo‘g‘ul” asari, Muhammad Hakimxon to‘ra ibn Ma’sumxon to‘raning “Muntaxab ut-tavorix” asari hamda K. Sh. Shoniyozovning “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” monografiyasi va boshqalar kiradi.

Badiiy asarni o‘qish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilardan uning matnini bilimdonlik bilan xronologik tahlil qilish, sharhlay olish va tarkibiy jihatdan o‘rganish talab etiladi. Shu bois ularni interpretatsiyaga o‘rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Interpretatsiyalash ko‘nikmalari talabalarga badiiy asarda ifodalangan madaniy voqelik va uning asosiy g‘oyalari mohiyatini to‘laqonli anglashga ko‘maklashadi. Amalga oshiriladigan interpretatsiya madaniyatshunoslik, diniy, psixoanalitik va etnologik dalillarni o‘rganish hamda tahlil qilish imkonini beradi.

c) Talabalarni baholash va tanlash usullariga o‘rgatish prinsipi. Bu prinsip doirasida obyektiv voqelik bilan baholash faoliyati o‘rtasidagi farqni anglash amalga oshiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda obyektiv voqelik va unga nisbatan baholovchi munosabatni shakllantirish alohida ahamiyatga ega, chunki bunday faoliyatsiz ular o‘z refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar. Madaniy voqelik uni to‘g‘ri baholash natijasida shaxs ongiga singadi va uning madaniyatga oid ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois

bo‘lajak o‘qituvchi madaniyat hodisalarini mustaqil baholash va tanlash layoqatiga ega bo‘lishi kerak. Har qanday madaniy hodisani baholashda ko‘plab turli imkoniyatlar vujudga keladi, shuning uchun to‘g‘ri baholashga erishish uchun talabalarga turli baholash instrumentlarini taqdim etish lozim. Bunday mexanizmlar sirasiga madaniy hodisani baholash mezonlari, chora-tadbirlar, dalillar, ularni qiyoslash va refleksiya kiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z nuqtayi nazarlarini shakllantirish, dalillash va qat’iy himoya qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari kerak. Bu bevosita ularda madaniy dunyoqarashning tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq.

d) O‘tmishdagi g‘oyalardan zamonaviy muammolarni yechishda foydalanish prinsipi. Bugungi kunda oliy pedagogik ta’limda tahsil olayotgan talabalar kelajakda ta’lim oldiga qo‘yilgan muammolarga yechim topadigan asosiy shaxs hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quv jarayoni bilan bog‘liq muammolarni o‘zining kasbiy-madaniy dunyoqarashiga tayangan holda yecha olishi kerak. Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning asosiy maqsadlaridan biri ajdodlarimiz yaratgan pedagogik ta’limotlarda ifodalangan muammolarni izlab topish va umumlashtirishdan iborat. Buning uchun talabalarda kasbiy-madaniy dunyoqarash bilan bir qatorda refleksiv faoliyat ham rivojlangan bo‘lishi lozim. O‘tmishda yaratilgan pedagogik ta’limotlardagi g‘oyalar, belgilar va madaniyat namunalari talabalarning madaniy dunyoqarashini kengaytirib, uni bugungi ijtimoiy voqelikdagi madaniy hodisalar bilan uyg‘unlashtirish va qiyoslash imkonini beradi. Hozirda qo‘llanilayotgan faol o‘qitish metodlari va axborot-kommunikatsion texnologiyalari madaniy hodisalarning shaxs ongiga ta’sirini jadallashtirib, talabalarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilar madaniyatga oid bilimlar zaxirasiga ega bo‘lgandagina uni o‘z faoliyatida qo‘llashga muvaffaq bo‘ladilar; refleksiv-madaniy dunyoqarashga ega o‘qituvchilargina kasbiy faoliyatida madaniy boyliklardan samarali foydalanadilar. Natijada o‘quvchilarda madaniy xulq-atvor va ijtimoiy-madaniy faollikka oid ko‘nikmalar jadal rivojlanadi. Refleksiv-madaniy dunyoqarashi tarbiyalangan talabalar madaniy boyliklarni saralash va ulardan o‘z o‘rnida foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Madaniyat bilan bog‘liq voqeliklar va

vaziyatlar ustida o‘ylash, ularni baholash va maqbul tanlovlarni amalga oshirish uchun talabalar, birinchi navbatda, madaniy dunyoqarashda qat’iy nuqtayi nazarga ega bo‘lishlari lozim. Madaniy dunyoqarashni jadal rivojlantirish uchun bahs-munozara va o‘yin munosabatlarini tashkil etish orqali alohida samaradorlikka erishish mumkin. Bunday mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun professor-o‘qituvchilar talabalar e’tiborini aniq manbalar ustida ishlashga jalb etishlari talab etiladi. Mazkur mashg‘ulotlarda talabalar o‘tmishda vujudga kelgan madaniyat namunalari va g‘oyalarining rivojlanish dinamikasini his etadilar, ular haqida aniq fikr va xulosalar chiqarishga muvaffaq bo‘ladilar, bunday madaniy namunalar ifodalangan san’at asarlari, badiiy adabiyot, urf-odat va an’analarni bilib oladilar. Natijada talabalarda ular bilan yaqindan tanishish va o‘z madaniy dunyoqarashlarini yaratish motivlari vujudga keladi.

Yuqorida tahlil qilingan, talabalarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirishga tayanadigan prinsiplarni umumlashtirib, quyidagini aniqlash mumkin: talabalarning dunyoqarashini samarali rivojlantirish maqsadida taqdim etiladigan o‘quv materiallari yaxlitlik, tarixiylik, plyuralizm, dialog va etnomadaniyatga tayanish prinsiplari asosida tanlanishi lozim.

Yaxlitlik prinsipi bo‘lajak o‘qituvchilarga madaniy hodisalarni bir butun tarzda qabul qilib idrok etish imkonini beradi. Madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan madaniyat ma’naviy qadriyatlar majmui hisoblanadi. U san’at vositasi sifatida insonning ichki olamini boyitishga xizmat qiladi va tarixiy voqelik bilan bog‘liq holda muayyan davr ruhini ham ifodalaydi. O‘tmishdagi tarixiy voqelikka xos madaniyat, ajdodlarning tarixiy tajribasi, tarixiy asarlar, urf-odatlar, an’analar va ilmiy manbalar yordamida yosh avlodga taqdim etiladi. Ular yordamida talabalar o‘zbek xalqining madaniy o‘ziga xosligini yaxlit tasavvur qilishga muvaffaq bo‘ladilar. Madaniyatning zamon va makon bilan bog‘liq jihatlari haqidagi yaxlit bilimlar uning integrativ, tipograтiv qadriyatli jihatlarini anglab yetgan holda yangi vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi.

Tarixiylik prinsipi o‘tmishda ro‘y bergan madaniy voqelikni o‘rganish va tahlil qilishda yetakchi prinsip hisoblanadi. U madaniyatni tarixiy jarayonlar bilan

bog‘liq holda tushunish, tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Madaniy taraqqiyotning har bir bosqichi o‘zining qurulish shakliga ega. Bu shakllar bir qator tarixiy tizimlardan tashkil topadi va ularning har biri tarixiy jarayonning ildizini tashkil etadi. Ular o‘z tarixiy kelib chiqishiga ega bo‘lib, hech kim tomonidan yaratilmaydi. Madaniyat tarixini tarixiy davr bilan bog‘lash uning o‘ziga xosligini anglash imkonini berib, ayni bir madaniyatning boshqa madaniyatlar rivojlanish tendensiyasini tushunishga ko‘maklashadi. Masalan, birinchi va ikkinchi renessans davrida vujudga kelgan sharqona madaniyat keyinchalik Yevropa madaniyati taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. O‘zbek xalqi madaniyati dunyo tamaddunining asosini tashkil qilganini tushunib yetish yoshlarda, shu jumladan talabalarda ham milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun bu madaniyatning zamonaviy O‘zbekiston jamiyati madaniyatiga ko‘rsatadigan ta’siri beqiyos bo‘lib, yosh avlodning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash orqali jamiyat a’zolari orasida tolerant munosabat va madaniyatlar dialogining tarkib topishini ta’minlaydi.

O‘tmish va bugungi kundagi madaniyatni tushunish tarixiy dalillarga murojaat qilishni taqozo etadi. Badiiy adabiyot va san’at namunalarini yaratishda mutaxassislar asos sifatida birinchi manbaga murojaat qilishlari lozim. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashda ham badiiy asarlar bilan bir qatorda tarixiy dalillar muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy matnlarni har tomonlama chuqur tahlil qilish o‘zbek xalqi madaniyatiga turli tomondan yondashish va uning rivojlanish dinamikasini aniq tasavvur qilish imkonini beradi, shuningdek boshqa madaniyatlar bilan o‘zbek xalqi madaniyati o‘rtasidagi qarama-qarshilik va aloqadorlikni anglashga ko‘maklashadi. Talabalarda boshqa madaniyatlar haqida aniq tasavvur hosil qilish orqali ham ularning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga erishiladi. Bunday yondashuv o‘zbek xalqi madaniyatini mustaqil, barqaror, ko‘p qirrali va muayyan davr bilan bog‘liq hodisa sifatida tasavvur qilishga asos yaratadi. Madaniyat ijtimoiy-madaniy voqelik va o‘zbek xalqi mentaliteti bilan ham bevosita bog‘liq hodisadir.

Plyuralizm prinsipi muayyan madaniy hodisaga yoki obro‘li shaxsga muayyan nuqtayi nazardan yondashishga insonlarni majburlash mumkin emasligini e’tirof etadi. U madaniyatshunoslikka oid har qanday nazariya va konsepsiyalarga tanqidiy munosabatda bo‘lishni talab qiladi, chunki madaniyatning tabiiy xarakterga egaligi va ishonchliligini faqat tanqidiy fikrlash asosida tasdiqlash mumkin. Madaniy hodisalarni o‘rganishda talabalarning tanqidiy fikrlash operatsiyalarini amalga oshirishi uchun qulay sharoit yaratish talab qilinadi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilarning muayyan tarixiy voqelikka bag‘ishlab esselar yozishi, bahs-munozaralar va davra suhbatlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Plyuralizm prinsipi muayyan tarixiy hodisani har tomonlama chuqur tahlil qilishni taqozo etadi, shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarda muqobil nuqtai nazarlarning shakllanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, birinchi va ikkinchi renessans davrining muhim madaniy hodisalari haqida talabalar bilan bahs-munozaralar, davra suhbatlari, savol-javob daqiqalarini tashkil qilish mumkin. Bunda talabalarning rang-barang hukmlari va madaniy voqelikka bergan baholari tahlil qilinadi, asosiy fikrlar umumlashtiriladi, muayyan tarixiy hodisaning turli-tuman interpretatsiyalari amalga oshiriladi. Bu interpretatsiyalar o‘z xarakteriga ko‘ra diniy, falsafiy, madaniyatshunoslik va pedagogik jihatlardan amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash mazmuni, uning shakllanish zaruriyati, ta’lim mazmunining darajalari hamda bilimlarni tanlash va taqdim etish prinsiplari ko‘rib chiqildi. Biroq mazmunning o‘zi yetarli emas: uni amalda ro‘yobga chiqarish uchun tarbiyalash jarayonining izchil bosqichlari va ularda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarni aniqlash talab etiladi. Keyingi 2.2-§ ana shu masalaga — refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash bosqichlari va texnologiyalariga bag‘ishlanadi.

2.2-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash bosqichlari va texnologiyalari.

Oldingi paragrafda bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning mazmuni, ya’ni madaniy manbalar va ta’lim materiallarini tanlash prinsiplari ko‘rib chiqildi. Bu mazmunni talabalar ongi va faoliyatiga yetkazish uchun uni izchil bosqichlar va mos texnologiyalar orqali amalga oshirish zarur. Shu sababli quyida pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash bosqichlari va texnologiyalari bayon etiladi. Bu jarayon uch bosqichda, ya’ni motivatsion-diagnostik, amaliy va refleksiv-transformativ bosqichlarda amalga oshiriladi.

Motivatsion-diagnostik bosqich refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning dastlabki va muhim bosqichi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi talabalarda milliy va umuminsoniy madaniyatga ongli munosabat, pedagogik voqelikni tahlil qilishga ichki ehtiyoj hamda o‘z qarashlari va qadriyatlarini anglashga yo‘naltirilgan motivatsiyani shakllantirish, shuningdek ularning mavjud bilim, munosabat va refleksiv tayyorgarlik darajasini aniqlashdan iborat. Bu bosqichda talabalar pedagogika fanlarini faqat nazariy bilimlar majmui sifatida emas, balki inson, jamiyat, madaniyat, tarbiya va ta’lim o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash vositasi sifatida qabul qila boshlaydi. Natijada ularda “Nima uchun men pedagogik madaniyatni anglashim kerak?”, “Mening shaxsiy qarashlarim ta’lim-tarbiya jarayoniga qanday ta’sir qiladi?”, “Madaniy qadriyatlar va pedagogik faoliyat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?” kabi savollarga ichki qiziqish uyg‘onadi.

Bosqichning motivatsion jihati talabalarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni rivojlantirishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish bilan bog‘liq. Bunda professor-o‘qituvchi talabalarni pedagogik kasbning madaniy mazmuni, o‘qituvchi shaxsining ma’naviy qiyofasi, milliy qadriyatlar, umuminsoniy g‘oyalar, kasbiy mas’uliyat va refleksiyaning ahamiyati bilan tanishtiradi. Talabalar pedagogik

faoliyat faqat bilim berishdan iborat emasligini, uning mohiyati shaxs tarbiyasi, madaniy muhit yaratish va o‘quvchilar bilan insonparvarlikka asoslangan munosabatni qaror toptirishda ekanini anglab yetadi.

Diagnostik jihat esa talabalarning madaniy dunyoqarashi, qadriyatlarga munosabati, o‘zini anglash darajasi, refleksiv fikrlash va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini aniqlash hamda rivojlantirishga qaratilgan. Buning uchun anketa, suhbat, test, esse, refleksiv kundalik, pedagogik vaziyatlar tahlili, shuningdek “Mening pedagogik qarashlarim”, “Men uchun madaniyat nima?”, “Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak?” kabi mavzulardagi yozma ishlardan foydalanish mumkin. Ular yordamida professor-o‘qituvchi talabalarning refleksiv-madaniy ko‘nikmalari boshlang‘ich darajasini aniqlaydi: milliy madaniyatga munosabati, kasbiga qiziqishi, pedagogik qadriyatlarni tushunishi, boshqalar fikrini hurmat qilishi, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qila olishi, tanqidiy va refleksiv fikrlashga moyilligi o‘rganiladi. Olingan ma’lumotlar keyingi bosqichlarda ta’lim mazmuni, metodlar va topshiriqlarni to‘g‘ri tanlashga yordam beradi.

Shu tariqa bosqich doirasida talabalarda pedagogik fanlarga qiziqish kuchaytiriladi, madaniyat, qadriyat, tarbiya, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi aloqadorlik anglatiladi, refleksiv fikrlashga ehtiyoj uyg‘otiladi, ularning mavjud bilim va qarashlari tashxis qilinadi, o‘z-o‘zini baholash va o‘z qarashlariga tanqidiy yondashish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Bu vazifalarni hal etishda muammoli savollar, evristik suhbat, “aqliy hujum”, qadriyatlar shkalasi, keys-tahlil, refleksiv esse, klaster, “Madaniy qadriyatlar xaritasi”, “O‘qituvchi shaxsining ideal modeli” kabi interfaol usullar samarali hisoblanadi. Ular talabalarni faol fikrlashga, o‘z munosabatini bildirishga, shaxsiy tajribasini tahlil qilishga va pedagogik hodisalarga madaniy nuqtai nazardan yondashishga undaydi. Natijada pedagogik fanlarni o‘rganishga barqaror qiziqish, madaniy qadriyatlarni anglashga intilish, o‘z shaxsiy va kasbiy pozitsiyasini tahlil qilishga tayyorlik hamda refleksiv fikrlashga ehtiyoj shakllana boshlaydi. Shu bilan birga, professor-o‘qituvchi talabalarning qaysi jihatlari yetarli, qaysi yo‘nalishlarda qo‘shimcha rivojlantirish zarurligini

aniqlaydi, ularni ichki jihatdan faollashtiradi, pedagogik madaniyatga munosabatini aniqlaydi, refleksiv fikrlashga yo‘naltiradi va keyingi bosqichlarda amalga oshiriladigan ta’limiy-tarbiyaviy ishlar uchun zarur asos yaratadi.

Birinchi bosqichda hosil bo‘lgan ichki ehtiyoj va qiziqish amaliy bosqichda faoliyat orqali rivojlantiriladi. Pedagogik faoliyatga yo‘naltirilgan **amaliy bosqichda** nazariy bilimlar faoliyat orqali jonlanadi va bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy tajribasiga aylanadi. Bosqichning mohiyati talabalarni real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatlarda mustaqil faoliyatga jalb qilish, ularda madaniy qadriyatlar asosida qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va pedagogik fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Amaliyot jarayonida talabalarda bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi kognitiv ko‘nikmalar shakllanadi, pedagogik faoliyatga shaxsiy munosabat paydo bo‘ladi, madaniy qadriyatlar amaliy yo‘naltiruvchi omilga aylanadi va refleksiya dastlabki darajada namoyon bo‘ladi. Bu bosqichda talabalar dars loyihalarini ishlab chiqadi, madaniy komponentlarni ta’lim mazmuniga integratsiya qiladi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni modellashtiradi, pedagogik qarorlarni asoslashni o‘rganadi hamda turli ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda pedagogik pozitsiyani tanlaydi.

Amaliyot bosqichida refleksiv-madaniy dunyoqarash interiorizatsiya, modellashtirish, imitatsiya va variatsiya, situativ qaror qabul qilish kabi mexanizmlar orqali rivojlanadi. Bu bosqichda interfaol va faol o‘qitish texnologiyalari ustuvor hisoblanadi. Ayniqsa, dars tadqiqoti yoki darsni o‘rganish texnologiyasi talabalarning o‘z faoliyatini kuzatish va tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi, bu esa refleksiyaning keyingi bosqichiga o‘tish uchun asos yaratadi. Bu texnologiya o‘qituvchilar guruhi tomonidan darsni birgalikda rejalashtirish, o‘tkazish, kuzatish va tahlil qilishga asoslangan hamkorlikdagi kasbiy rivojlanish usuli bo‘lib, asosan pedagogik amaliyot davrida qo‘llaniladi. Professor-o‘qituvchi esa fasilitator, ekspert va maslahatchi sifatida faoliyat yuritadi. Amaliyot bosqichi yakunida talabalarda madaniy asosda qaror qabul qilish ko‘nikmasi, pedagogik

faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmasi, vaziyatli fikrlash va moslashuvchanlik hamda amaliy refleksiya shakllanadi.

Amaliy bosqichda shakllangan dastlabki refleksiya yakunlovchi bosqichda yanada chuqurlashadi. **Refleksiv-transformativ bosqich** pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning eng yuqori, yakunlovchi va shaxsiy o‘zgarishga yo‘naltirilgan bosqichidir. Unda talaba nafaqat pedagogik bilimlarni o‘zlashtiradi, balki o‘zining madaniy qarashlari, qadriyatlari, kasbiy pozitsiyasi va pedagogik faoliyatga munosabatini qayta tahlil qiladi, takomillashtiradi va yangi sifat darajasiga ko‘taradi. Bosqichning asosiy maqsadi talabalarda o‘z pedagogik faoliyatini madaniy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy mezonlar, kasbiy mas’uliyat hamda refleksiv fikrlash asosida baholash, qayta ko‘rib chiqish va rivojlantirish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Bunda refleksiya oddiy “o‘zini tahlil qilish” darajasida qolmaydi, balki talabaning shaxsiy va kasbiy o‘zgarishiga xizmat qiladigan transformativ kuchga aylanadi. Bosqichning muhim xususiyati shundaki, talabada refleksiv-madaniy dunyoqarash barqaror kasbiy sifat darajasida shakllana boshlaydi: u pedagogik voqelikka shaxsiy e’tiqod, madaniy mas’uliyat, insonparvarlik, milliy qadriyatlar va umuminsoniy mezonlar asosida yondashadi, pedagogik jarayonni insonni rivojlantiruvchi, shaxsni kamol toptiruvchi va madaniy muhit yaratuvchi faoliyat sifatida anglaydi.

Refleksiv-transformativ bosqichning mazmuni to‘rt yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1. Kognitiv qayta anglash. Talaba pedagogika, tarbiya nazariyasi, didaktika, pedagogik mahorat, etnopedagogika, pedagogik psixologiya kabi fanlarda o‘rgangan bilimlarini qayta tahlil qiladi. U nazariy bilimlarni mexanik ravishda eslab qolmaydi, balki ularni o‘z hayotiy va kasbiy tajribasi bilan bog‘laydi.

2. Qadriyatli qayta baholash. Talaba milliy madaniyat, oilaviy tarbiya, ustoz-shogird an’analari, insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolat, mas’uliyat, hamkorlik kabi qadriyatlarni pedagogik faoliyatning asosiy mezoni sifatida anglaydi.

3. Kasbiy pozitsiyaning shakllanishi. Talaba o‘zini bo‘lajak pedagog sifatida tasavvur qiladi, o‘z kasbiy maqsadlarini belgilaydi, pedagogik faoliyatda qanday prinsiplarga amal qilishini aniqlaydi. Bu jarayonda unda kasbiy identifikatsiya, ya’ni o‘zini pedagogik kasb bilan bog‘liq holda anglash rivojlanadi.

4. Amaliy tajribani qayta qurish. Talaba mikrodars, pedagogik amaliyot, keys-tahlil, dars loyihasi, tarbiyaviy tadbir yoki guruhiy muhokamalar jarayonidagi o‘z faoliyatini tahlil qiladi. U qaysi harakatlari samarali bo‘lgani, qaysi jihatlarda qiyinchilikka duch kelgani, qanday xatolardan xulosa chiqarish kerakligini anglaydi.

Bu bosqichda refleksiv kundalik yuritish, portfolio tayyorlash, “Mening pedagogik pozitsiyam” mavzusida esse yozish, pedagogik vaziyatlarni tanqidiy tahlil qilish, muhim pedagogik holatlar tahlili, debat, ilmiy munozara, kouching, mentorlik, o‘z-o‘zini baholash varaqalari, tengdoshlar fikri asosidagi tahlil, amaliy tadqiqot elementlari kabi metodlar samarali hisoblanadi. Masalan, refleksiv kundalik talabaga har bir mashg‘ulot yoki amaliy faoliyatdan keyin o‘z fikrini yozma ifodalash imkonini beradi va refleksiyani odatga aylantiradi. Portfolio esa talabaning shaxsiy va kasbiy o‘sish dinamikasini ko‘rsatadi: unda esselar, dars ishlanmalari, tahlillar, o‘z-o‘zini baholash natijalari, ijodiy ishlar, pedagogik kuzatuvlar va xulosalar jamlanadi. Portfolio orqali talaba o‘z rivojlanishini ko‘radi va keyingi maqsadlarini belgilaydi.

Bu bosqichda professor-o‘qituvchining mavqei va roli ham o‘zgaradi: u mentor, maslahatchi, yo‘naltiruvchi va hamfikr sifatida faoliyat yuritadi. U talabaga tayyor xulosa bermaydi, balki uni mustaqil fikrlashga, o‘z pozitsiyasini asoslashga, o‘z tajribasidan xulosa chiqarishga va kasbiy o‘sish rejasini tuzishga yo‘naltiradi. Bosqich natijasida talabalarda madaniy voqelikni anglash, pedagogik faoliyatni qadriyatlar asosida baholash, o‘zini bo‘lajak o‘qituvchi sifatida idrok etish, o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, shaxsiy va kasbiy rivojlanish yo‘nalishini belgilash ko‘nikmalari shakllanadi. Talaba pedagogika fanlarini o‘zlashtirish jarayonida nafaqat bilim oladi, balki o‘zining ichki dunyosi, qarashlari va kasbiy maqsadlarini ham qayta shakllantiradi.

Bosqichlarda qo‘llaniladigan metodlar bilan bir qatorda alohida texnologiyalar ham muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashda bir qator texnologiyalardan foydalaniladi. Shulardan biri refleksiv kundalik texnologiyasidir. U talabaning o‘quv, shaxsiy va kasbiy tajribasini muntazam yozma tahlil qilishga asoslangan pedagogik texnologiya bo‘lib, bu texnologiya orqali talaba o‘z fikri, hissiyoti, qadriyatlari, pedagogik qarashlari va kasbiy pozitsiyasini anglaydi, qayta baholaydi va takomillashtiradi. Texnologiyani qo‘llashdan asosiy maqsad talabalarda o‘rganilgan bilimni shaxsiy tajriba, madaniy qadriyat va kasbiy mas’uliyat bilan bog‘lash ko‘nikmasini shakllantirishdir. Shu sababli u talabani faol fikrlovchi, o‘z qarashlarini tahlil qiluvchi va pedagogik voqelikka madaniy nuqtai nazardan yondashuvchi shaxs sifatida rivojlantiradi. Pedagogika, tarbiya nazariyasi, didaktika, pedagogik mahorat, pedagogik psixologiya, etnopedagogika kabi fanlarda refleksiv kundalikdan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtiradi. Bunda o‘qituvchi talabalarga tayyor xulosa bermaydi, balki yo‘naltiruvchi savollar orqali ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Refleksiv kundalik bir necha bosqichda yuritiladi:

1. Talabaga kundalikning maqsadi va ahamiyati tushuntiriladi.

2. Har bir mavzu yoki amaliy mashg‘ulotdan keyin refleksiv savollar beriladi.

3. Talaba o‘z fikrlarini erkin, samimiy va tahliliy tarzda yozadi.

4. Professor-o‘qituvchi kundaliklarni rivojlantiruvchi mulohaza asosida tahlil qiladi.

5. Talabalar o‘z yozuvlariga qaytib, o‘zgarish dinamikasini kuzatadilar.

Pedagogika fanlarini o‘qitishda refleksiv kundalikning mazmuni mavzu bo‘yicha shaxsiy xulosa, pedagogik vaziyatga munosabat, madaniy qadriyatlar bilan bog‘lash, kasbiy pozitsiyani ifodalash, o‘z-o‘zini baholash va kelgusi rivojlanish rejasini belgilash yo‘nalishlarida tashkil etiladi.

Refleksiv kundalik talabalarda madaniy dunyoqarashni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega: u talabaga o‘z shaxsiy va kasbiy hayoti bilan bog‘liq

qadriyatlarni tizim sifatida anglashga yordam beradi, talaba esa o‘zining oilaviy, milliy, ijtimoiy va kasbiy tajribasini pedagogik bilimlar bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, bu texnologiya refleksiv dunyoqarashni ham shakllantiradi. Refleksiv dunyoqarash shaxsning o‘z fikri, faoliyati, munosabati va qarorlarini tahlil qila olishi, ularni qayta baholashi va takomillashtirishga intilishini bildiradi; refleksiv kundalik aynan shu jarayonni muntazam va maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi. Shuning uchun u pedagogika turkum fanlarini o‘qitishda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning samarali vositasidir.

Portfolio texnologiyasi talabaning ta’lim jarayonidagi shaxsiy, ijodiy, amaliy va refleksiv ishlarini tizimli ravishda jamlash, tahlil qilish va baholashga xizmat qiladi. Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashda u talabaning o‘zgarishini, madaniy qarashlari boyib borishini, kasbiy pozitsiyasi shakllanishini va refleksiv fikrlash darajasi o‘sishini kuzatish imkonini beradi. Pedagogika turkum fanlarida portfolioga refleksiv esselar, pedagogik keys tahlillari, dars ishlanmalari, mikrodars ssenariylari, madaniy qadriyatlar tahlili, tarbiyaviy tadbir loyihalari, o‘z-o‘zini baholash varaqalari, o‘qituvchi va tengdoshlar fikrlari hamda shaxsiy kasbiy rivojlanish rejasi kiritilishi mumkin.

Portfolio milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan integrativ qo‘llanganda talabalar har bir ishni muayyan qadriyat bilan bog‘liq tarzda tahlil qiladi, insonparvarlik, tenglik, inklyuzivlik, bag‘rikenglik, shaxs erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlarni pedagogik faoliyat bilan bog‘laydi. Buning uchun portfolio talabaning shaxsiy-kasbiy rivojlanish xaritasiga aylanishi zarur, shu sababli har bir materialga qisqa refleksiv izoh qo‘shilishi maqsadga muvofiq. Masalan: “Ushbu ish orqali men nimani angladim?”, “Bu topshiriq mening madaniy qarashlarimga qanday ta’sir qildi?”, “Men bu tajribadan bo‘lajak o‘qituvchi sifatida qanday xulosa chiqardim?” Natijada talabalarda o‘z rivojlanishini kuzatish, kasbiy o‘sishini baholash, madaniy qadriyatlarni pedagogik faoliyat bilan bog‘lash, o‘z-o‘zini tahlil qilish va mustaqil takomillashish ko‘nikmalari shakllanadi.

Mikrodars texnologiyasi talabaning kichik hajmda, qisqa vaqt davomida muayyan pedagogik ko‘nikmani amalda sinab ko‘rishiga asoslangan ta’lim texnologiyasidir. U odatda 5–15 daqiqalik qisqa dars shaklida tashkil etiladi. Mikrodars refleksiv-madaniy dunyoqarashni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi, chunki talaba unda o‘zini bo‘lajak o‘qituvchi sifatida amalda namoyon qiladi: nutqi, muloqoti, savol berish uslubi, o‘quvchiga munosabati, madaniy qadriyatlarni dars mazmuniga kirita olishi va pedagogik vaziyatlarga munosabati orqali o‘z kasbiy pozitsiyasini sinab ko‘radi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan integrativ qo‘llanganda mikrodars mazmunida tarbiyaviy-ma’naviy komponent ham aks etadi. Masalan, talaba pedagogika fanidan “tarbiya tamoyillari” mavzusida mikrodars o‘tkazsa, milliy qadriyatlar (oila, ustozga hurmat, mehr-oqibat, vatanparvarlik, odob-axloq, jamoaviylik) tushunchalarini umuminsoniy qadriyatlar (insonparvarlik, tenglik, bag‘rikenglik, adolat, shaxs qadri) bilan bog‘lab tushuntiradi.

Mikrodars texnologiyasida tengdoshlar fikri ham muhim ahamiyatga ega. Boshqa talabalar kuzatuvchi sifatida ishtirok etib, darsning mazmuni, uslubi, madaniy yondashuvi, refleksiv savollari va tarbiyaviy ta’sirini baholaydi. Bu jarayon talabalarda pedagogik madaniyatni rivojlantiradi. Natijada ularda pedagogik mahoratning dastlabki ko‘nikmalari, madaniy muloqot, qadriyatlarga asoslangan dars tashkil etish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va refleksiv xulosa chiqarish qobiliyati rivojlanadi.

Madaniy interpretatsiya texnologiyasi ta’lim mazmunidagi hodisa, matn, pedagogik vaziyat, tarixiy shaxs, qadriyat, urf-odat yoki ijtimoiy holatni madaniy mazmun va tarbiyaviy ahamiyat nuqtai nazaridan talqin qilishga asoslanadi. U refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashda alohida ahamiyatga ega, chunki talabani har bir pedagogik hodisa ortidagi madaniy mohiyatni ko‘rishga o‘rgatadi. Pedagogika turkum fanlarida bu texnologiyadan “ustoz-shogird an’anasi”, “oila tarbiyasi”, “xalq pedagogikasi”, “jadid pedagogikasi”, “insonparvar tarbiya”, “milliy o‘zlikni anglash”, “ma’naviy-axloqiy tarbiya”, “ta’limda madaniy meros” kabi mavzularni o‘rganishda foydalanish mumkin. Masalan, talabalar Alisher

Navoiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy yoki boshqa mutafakkir va ma’rifatparvarlarning pedagogik qarashlarini o‘rganganda, ularning fikrlarini zamonaviy pedagogik amaliyot uchun ahamiyatli madaniy-ma’naviy manba sifatida talqin qiladi.

Madaniy interpretatsiya texnologiyasi talabalarni matn yoki vaziyatni chuqur o‘qishga, uning ichki ma’nosini anglashga, shaxsiy munosabat bildirishga va zamonaviy ta’lim bilan bog‘lashga o‘rgatadi. Bu texnologiyada refleksiya muhim o‘rin tutadi, chunki talaba talqin jarayonida o‘z qarashlarini ham qayta ko‘rib chiqadi. Natijada talabalarda madaniy merosni anglash, pedagogik voqelikni qadriyatlar asosida talqin qilish, milliy va umuminsoniy g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rish, o‘z kasbiy faoliyatida madaniy birliklardan foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi.

Alohida ko‘rib chiqilgan texnologiyalarni umumiy nuqtai nazardan baholash ham mumkin. Pedagogik keys, portfolio, mikrodars va madaniy interpretatsiya texnologiyalari o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldiruvchi metodik vositalar sifatida qaraladi. Ularning umumiy metodik imkoniyati shundaki, ular talabani o‘z fikrini tahlil qiladigan, madaniy qadriyatlarni anglaydigan, pedagogik vaziyatlarga ongli munosabat bildiradigan va o‘z kasbiy pozitsiyasini shakllantira oladigan shaxs sifatida rivojlantiradi hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat, shaxsiy tajriba va qadriyatli munosabat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Bu imkoniyatlardan biri talabalarda muammoli va qadriyatli fikrlashni rivojlantirishdir. Pedagogik jarayonda har bir vaziyat axloqiy, madaniy yoki kasbiy tanlovni talab qiladi. Masalan, o‘quvchi bilan muloqotda adolatli bo‘lish, sinfda madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, milliy qadriyatlarni zamonaviy ta’lim mazmuniga kiritish, o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish kabi holatlarda talaba faqat nazariy qoidaga emas, balki o‘zining ichki madaniy-refleksiv pozitsiyasiga tayanadi.

Ikkinchi imkoniyat refleksiv fikrlashni tizimli shakllantirishdir. Refleksiv fikrlash shaxsning o‘z fikri, faoliyati, munosabati va qarorlarini tahlil qilishi, ularga qayta nazar tashlashi va takomillashtirishga intilishidir. Pedagogik keysda talaba

qabul qilgan qaroriga baho beradi; mikrodarsda o‘z pedagogik harakatlarini tahlil qiladi; portfolioda o‘z rivojlanish dinamikasini kuzatadi; madaniy interpretatsiyada esa o‘rganilgan hodisa yoki matnning ma’nosini shaxsiy va kasbiy nuqtai nazardan qayta anglaydi. Yana bir muhim metodik imkoniyat milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiya qilishdir.

Pedagogik keys texnologiyasi orqali talabalar hayotiy va kasbiy vaziyatlarni tahlil qilishga o‘rganadi. Keysdagi muammo ularni o‘ylashga, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashga, vaziyat ishtirokchilarining pozitsiyasini tushunishga va madaniy jihatdan maqbul yechim tanlashga yo‘naltiradi. Portfolio esa talabaning shaxsiy va kasbiy o‘sishini uzluksiz kuzatish imkonini beradi: unda esselar, dars ishlanmalari, keys tahlillari, mikrodars natijalari, refleksiv xulosalar, o‘z-o‘zini baholash varaqalari va ijodiy ishlar jamlanadi. Portfolio talabani o‘z rivojlanishiga mas’ul bo‘lishga o‘rgatadi: u avvalgi va keyingi ishlarini solishtirib, qaysi jihatlarda o‘sganini, qaysi yo‘nalishlarda yana ishlash zarurligini anglaydi.

Bu texnologiyalarning umumiy metodik imkoniyati talabalarda kasbiy pozitsiyani shakllantirishda ham namoyon bo‘ladi. Metodik jihatdan ular talabalarning faolligini oshiradi, chunki tayyor ma’lumotni qabul qilishdan ko‘ra mustaqil tahlil qilish, izlanish, baholash va xulosa chiqarishni talab etadi. Dars jarayonida talabalar guruhlarda ishlaydi, o‘z fikrlarini himoya qiladi, tengdoshlarining mulohazalarini eshitadi, o‘z pozitsiyalarini qayta ko‘rib chiqadi. Bu esa kommunikativ madaniyat, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar o‘qituvchi faoliyatiga ham yangicha mazmun beradi. Umuman, ular pedagogika turkum fanlarini o‘qitishda talabani madaniy jihatdan yetuk, refleksiv fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qiladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qila oladigan kelajak pedagog sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bosqichlar jarayonning izchilligini, texnologiyalar esa uni amalga oshirish yo‘llarini belgilab beradi. Ularni yagona tizimga birlashtirish, maqsad, vazifa, prinsip va shart-sharoitlar bilan bog‘lash uchun esa jarayonning

modeli zarur. Keyingi paragrafda shu model va uning asosida ishlab chiqilgan metodika yoritiladi.

2.3-§. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash jarayonining modeli

Oldingi paragrafda pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash bosqichlari va texnologiyalari ko‘rib chiqildi. Ularning samarali amalga oshishi o‘quv jarayoni maqsadlarining aniq belgilanishiga va bosqichlar, metodlar hamda vositalarni yagona tizimga birlashtiruvchi modelga bog‘liq. Shu bois ushbu paragrafda jarayonning modeli va uning asosida ishlab chiqilgan metodika yoritiladi.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash jarayonining samaradorligi o‘quv jarayoni maqsadlarini aniq belgilashga bevosita bog‘liq. Maqsadning to‘g‘ri belgilanishi vazifalar, o‘quv jarayonida bajariladigan funksiyalar va funksional modelning aniqligi hamda tizimliligini ta’minlaydi, o‘quv topshiriqlarini tuzish va o‘quv harakatlarini izchil amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash metodlari, shakllari va vositalari qulay shaklda uyg‘unlashadi, zarur metodikalarni qo‘llash esa kafolatli natijaga erishish imkonini beradi. Shakllantirilgan model asosida pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash metodikasi ishlab chiqildi. Uning asosini ikki holat tashkil etadi: birinchidan, metodika aniq vazifalarni o‘zida mujassamlashtirgan bir necha bosqichda qo‘llaniladi; ikkinchidan, u pedagoglarni kasbiy rivojlantirishning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Metodikani ishlab chiqishdan ko‘zlangan asosiy maqsad bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy-kasbiy shakllanishini ta’minlashda refleksiv-madaniy dunyoqarashning o‘rnini ko‘rsatishdir; metodika shaxsiy-kasbiy rivojlanish jarayonining sifati, samaradorligi va jadalligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Metodikaning tarkibiy qismi sifatida bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ta’minlashga ustuvorlik berildi. Bunda refleksiya bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z imkoniyatlarini aniq bilishi va faoliyatini dolzarblashtirishini

nazarda tutadi, talabalarning madaniy rivojlanish motivlari esa faollashtiriladi. Shaxsiy-madaniy imkoniyatlar refleksiya vositasida baholanadi; faoliyatdagi yetakchi qarama-qarshiliklar va to‘qnashuvlar, begona madaniyatga xoslik hamda shaxsning ijtimoiylashuvi tahlil qilinadi. Faoliyatdagi yangi yo‘nalishlar, yondashuvlar va madaniy rivojlanish imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan tavsiflanadi, yaxlit pedagogik jarayonda kasbiy madaniyatning rivojlanishi ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi. Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash tizimida shaxslararo munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatiladi va dialog shaklidagi pedagogik munosabatlarning istiqbolli yo‘nalishlari asoslanadi. Shuningdek, shaxsiy-kasbiy, refleksiv-madaniy rivojlanish mexanizmlari ishlab chiqiladi, refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning madaniy komponentlari nazariy jihatdan asoslanadi va rivojlanganlik darajasini diagnostika qilish metodlari ko‘rsatiladi. Ijtimoiy-madaniy rivojlanish samaradorligini baholashga oid pedagogik faoliyat esa bo‘lajak o‘qituvchilarning quyidagi tayyorgarligida ifodalanadi. Ular:

–madaniy jihatdan o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini muhim kasbiy-hayotiy qadriyat sifatida qabul qiladi, shaxsning madaniy rivojlanish konsepsiyasini yaxlit idrok etadi va uning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq keng ko‘lam kasb etishini ta’minlaydi, madaniyat boyliklarini o‘zlashtirish tajribasiga tayangan holda ijodiy rivojlanishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarni qo‘llab-quvvatlaydi;

–madaniy jihatdan ahamiyatli maqsad va ideallarni biladi, buning natijasida refleksiya asosida o‘z layoqatlarini baholay oladi, madaniy o‘z-o‘zini anglash bilan madaniy voqelik orasidagi munosabatlar mohiyatini tushunadi, psixologik jihatdan chuqur anglangan holda o‘z-o‘zini korreksiyalash va takomillashtirishga intiladi, madaniy dunyoqarashi doirasida o‘zini madaniy boyliklarni egallashga yaqinlashtiradi;

–shaxsiy-kasbiy madaniy dunyoqarashi doirasida madaniyat boyliklarini muntazam o‘zlashtirish va yosh avlodga taqdim etish metodikalari bilan qurollanadi;

–shaxs taraqqiyotini ta’minlash muammolariga oid falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, pedagogika va psixologiya bilimlari hamda axborotlarini saralash, ularni qo‘llash yo‘nalishlarini tanlash va shaxsning madaniy olami hamda intellektini boyitish mexanizmlarini biladi;

–refleksiv-madaniy jihatdan o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlarini qo‘yadi va amalga oshiradi, o‘quvchilarga madaniyat boyliklarini taqdim etishda pedagogik hamkorlikning mazmuni va shakllarini ishlab chiqish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;

–aksiologik fikrlash va kognitiv yo‘nalishlarning yaxlitligini ta’minlaydi, natijalarni diagnostika qiladi hamda o‘z madaniy dunyoqarashini mustaqil rivojlantirishga oid faoliyatni amalga oshiradi.

Oxirgi yo‘nalish madaniyatshunoslikka oid bilimlarni tahlil qilish va tanlashni ham o‘z ichiga oladi, chunki bu faoliyat o‘qituvchining refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga bevosita bog‘liq. Madaniyatshunoslikka oid bilimlar bo‘lajak o‘qituvchilarning metodologik tasavvurlari asosini tashkil qiladi; ular shu orqali o‘qituvchilik kasbining axloqiy-estetik, aksiologik va ijtimoiy funksiyalarini o‘zlashtiradi, pedagogik faoliyat mahsulini baholash mezonlarini qo‘llashga muvaffaq bo‘ladi va o‘qituvchining kasbiy madaniyati haqida aniq tasavvur hosil qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning umumpedagogik tayyorgarligi darajasida madaniyatshunoslikka oid bilimlar o‘zbek xalqi madaniyatining tarixi negizida shakllanadi. Bu bilimlar pedagogika tarixi, pedagogika va psixologiya fanlari mazmunida o‘z ifodasini topishi lozim, o‘quv predmetlari mazmunida esa madaniyatshunoslikka oid muammolar tizimlashtiriladi. Bunday bilimlar sirasiga madaniyatshunoslik, pedagogik madaniyatshunoslik, pedagogika tarixi, san’at tarixi, ijtimoiy psixologiya, madaniyatlararo munosabatlar, ekologik madaniyat, etika va estetika muammolarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘quv bloklarini kiritish mumkin.

Muammoning samarali yechimi uchun talabalarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash taqozo etilmoqda. Buni faqat pedagogika tarixi va pedagogik mahorat kurslari doirasida ta’minlab bo‘lmaydi, shuning uchun

“pedagogik madaniyatshunoslik” o‘quv kursini joriy etish maqsadga muvofiq. Kurs doirasida talabalarga o‘zbek xalqining umumiy madaniyati, madaniyatlararo dialog, pedagogik madaniyatga oid inson va jamiyat hayotining ijtimoiy-madaniy rivojlanish parametrlari, madaniyatning ijtimoiy, aksiologik va metodologik funksiyalari, o‘qituvchi shaxsining kasbiy-madaniy rivojlanishi, pedagogik faoliyat etikasi va estetikasi, pedagogning madaniy xulq-atvori hamda o‘qituvchilarning axloqiy etalonlari bo‘yicha keng ko‘lamli bilimlar taqdim etiladi.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalamasdan turib, o‘zbek xalqi madaniyati va madaniyatlar dialogi haqida aniq bilim va tasavvurlarni shakllantirish imkonsiz. Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida shaxslararo qadriyatli yo‘nalishlar, turmush tarzi va madaniyat namunalari jadal o‘zgarib bormoqda; jamiyat a’zolarida milliy, kasbiy, psixologik madaniyatni kuchaytirish ehtiyoji ortmoqda, ijtimoiy turmush me’yorlarini tushunish va ularga hurmat bilan yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish esa birinchi darajali ehtiyojga aylanmoqda. Shu bilan birga, oliy pedagogik ta’lim muassasasida o‘quv jarayonini rivojlantirishning pedagogik jarayonni madaniyatshunoslik darajasiga olib chiqishga xizmat qiladigan bir qator tendensiyalarini ko‘rsatish mumkin. Jumladan:

a) ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning hozirgi bosqichida talabalar o‘zlashtiradigan ta’lim mazmunining asosiy qismini madaniyatga oid bilimlar bilan boyitish. Ta’lim mazmunining qadriyatlarga asoslangan komponenti bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi, o‘rganiladigan madaniy bilimlar esa talabalarning kasbiy-madaniy faoliyatini rivojlantirishning asosiy manbayidir. Shuning uchun bu bilimlar bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy yetukligi, axloqiy, intellektual, estetik, madaniy jihatdan takomillashuvini ta’minlab, turmush tarzi va ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini mustahkamlaydi;

b) madaniyatga oid bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda muayyan funksiyalar shakllanadi: o‘z pedagogik faoliyatini refleksiyalashga nisbatan mustaqil ongli munosabat, maqsadga yo‘naltirilgan o‘ziga xoslik, shaxslararo munosabatlarni axloqiy-estetik jihatdan baholash, qabul

qilingan yechimlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi hamda o‘z ilmiy-pedagogik faoliyatini uzluksiz rivojlantirish motivlariga ega bo‘lish;

v) o‘quv materiallarini taqdim etish va unga muvofiq o‘z pedagogik faoliyatini amalga oshirish, pedagogik mahorat sirlarini egallash, tanlov vaziyatlarida yangicha fikrlash asosida shaxslararo munosabatlarga kirishish, o‘z-o‘zini ijtimoiy-madaniy jihatdan uzluksiz takomillashtirish va ilmiy ijodkorlikning shaxsiy-kasbiy jihatlarini namoyon etish;

g) o‘z pedagogik faoliyatini madaniyatshunoslik va madaniyatni anglash asosida tashkil etish, kasbiy-madaniy rivojlanish vaziyatlarini modellashtirish, ishchan o‘yinlar yordamida kasbiy mahorat sirlarini egallash hamda pedagogik vaziyatlarni modellashtirishga oid seminar va trening mashg‘ulotlarida faol ishtirok etish.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash shakllari va metodlarini ishlab chiqish yuqori samaradorlikka ega o‘quv jarayonini loyihalashni nazarda tutadi. Bu tizimda professor-o‘qituvchilarning talabalar refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga yo‘naltirilgan faoliyatini takomillashtirishga ham alohida e’tibor qaratildi. Pedagogik jarayonni bunday loyihalashdan ko‘zlangan asosiy maqsad hamda loyihaning mantiqiy asoslari quyidagilarda ifodalanadi:

1. Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini kuzatish va kutilayotgan natijalarni pedagogik jihatdan asoslash parametrlarini aniqlash.

2. Muayyan pedagogik va psixologik jarayonlarning tarkibi va tabiatini aniqlash hamda ularning talabalar ongida madaniy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan mexanizmlarini faollashtirish. Olingan natijalar talabalar dunyoqarashini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishi, o‘quv jarayonining maqsadlari esa aniq loyihalanishi kerak.

3. Bo‘lajak o‘qituvchi ijtimoiy-madaniy faoliyatining mazmunini pedagogik jihatdan asoslash, loyihalanadigan ruhiy jarayonlarni aniq ko‘rsatish va madaniy muloqot jarayonini ishlab chiqish; shu asosda talabalarning zarur bilim va kasbiy tajribani egallashi uchun qulay vaziyat yaratish.

4. Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashga yo‘naltirilgan mazmun va uni qo‘llash jarayonlarini ishlab chiqish, talabalarga madaniy va pedagogik tajribalarni taqdim etish, ularning madaniy dunyoqarashini tizimli rivojlantirishga qaratilgan amaliy topshiriqlarni tizimlashtirish hamda madaniyat boyliklari va kasbiy faoliyat tajribasining qulay o‘zlashtirilishini ta’minlovchi didaktik jarayonlarni izlab topish, nazariy-pedagogik jihatdan asoslash va loyihalash.

5. Refleksiv-madaniy dunyoqarashning tarbiyalanganlik darajasini nazorat qilish tadbirlarini belgilash, talabalarning madaniyat va pedagogik madaniyatga oid o‘zlashtirganlik darajasini diagnostika qilish hamda o‘quv faoliyati natijalarini korreksiyalash.

Bunday loyihalashda muloqot muhim o‘rin tutadi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida kommunikativ vaziyatlar yuqori samaradorlikni ta’minlash imkonini beradi. O‘quv jarayonidagi kolloboratsiya va o‘zaro munosabatlar talabalar bilan professor-o‘qituvchilar orasidagi muloqot va qadriyatli munosabatlarning asosiy shakli hisoblanadi. Shu jarayonda talabalar bir-biri bilan axborot almashadi, madaniyatga oid bilimlarni o‘zaro yetkazadi; natijada madaniyat darajasida o‘zaro tushunish muhiti vujudga keladi va bilimlarni taqdim etish uchun sarflanadigan vaqt tejaladi. Yalpi, jamoaviy, guruhli faoliyat hamda didaktik va kommunikativ vaziyatlar o‘quv jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi.

Yalpi kommunikativ vaziyatlar professor-o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatini taqozo etadi; bunda talabalarning umumiy jihatlariga e’tibor qaratiladi. Muayyan vaziyatlarda talabalar shaxsiy faoliyat ko‘rsatish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga muvaffaq bo‘ladi. Talabalar orasida o‘quv hamkorligi va birgalikdagi faoliyat vaziyatlarida ular o‘zlaridagi madaniy va ma’naviy qadriyatlarni bir-birlariga taqdim etadi.

Frontal xarakterdagi o‘quv jarayoni ma’ruza metodi asosida amalga oshiriladi. O‘quv jarayonidagi kommunikativ vaziyatlarni esa jamoaviy faoliyat usuli sifatida baholash mumkin: talabalar bir-birlari va professor-o‘qituvchi bilan muloqotga kirishib, bilish faoliyatini amalga oshiradi. Mashg‘ulotlarda tashkil etiladigan jamoaviy kommunikativ vaziyatlarda aksariyat yoki bir qism talabalar

ishtirok etishi mumkin; ular kuchlarini muayyan maqsadga yo‘naltiradi, guruhning barcha a’zolari madaniyatga oid bilimlarni o‘zlashtirish maqsadida birlashib, birgalikda faoliyat ko‘rsatadi. Natijada ularda kasbiy madaniyatni egallash motivlari rivojlanadi. Bilish faoliyatining barcha bosqichlarida guruh a’zolari verbal muloqotga kirishishi mumkin.

Professor-o‘qituvchi rahbarligida maqsadga yo‘naltirilgan rejalashtirish, funksiyalarni o‘zaro taqsimlash, natijalarni umumlashtirish, tahlil qilish va yangi rejalarni ishlab chiqish kabi faoliyat usullari amalga oshiriladi; natijada talabalar jamoaviy faoliyat me’yorlarini o‘zlashtiradi. Bunday vaziyatlarni tashkil etish, ayniqsa, refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashga yo‘naltirilgan seminar mashg‘ulotlarida samarali. Guruhli kommunikativ vaziyatlar kichik guruhlarda kognitiv topshiriqlarni bajarish imkonini beradi, bunday topshiriqlar esa talabalarda kasbiy madaniy dunyoqarashni jadal rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu mashg‘ulotlarda asosiy e’tibor mustaqil ishlarga qaratiladi, masalan: tarixiy mavzudagi asarni o‘qib, undan o‘sha davrga xos madaniy hodisalarni ajratish, ularning mohiyatini tavsiflash va bugungi kun uchun ahamiyatli jihatlarini ko‘rsatib berish.

Didaktik xarakterdagi kommunikativ vaziyatlarda talabalar talaba–professor-o‘qituvchi munosabatlari asosida dialogga kirishadi, shu asosda madaniy muloqot shakllarini o‘zlashtiradi va bir-birlariga madaniyatga oid bilimlarni taqdim etadi. Bunday vaziyatlar bo‘lajak o‘qituvchilar topshiriqni bajarish uchun ko‘rsatmalarga ehtiyoj sezganda vujudga keladi: ular professor-o‘qituvchi yoki guruhdoshlaridan maslahat va ko‘mak olishga, hamkorlik va muloqotga kirishishga zarurat sezadi. Bunda professor-o‘qituvchi talabalarning fikr, g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashi muhim. Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashda pedagogik muloqot samarali: talabalar bilan hamkorlik qilish, ularga muammoli va evristik topshiriqlar qo‘yish hamda dialogga kirishish samaradorlikni ta’minlash imkonini beradi. Natijada talabalar orasida o‘zaro muvofiq fikrlar jadal rivojlanadi va hamfikrlik muhiti vujudga keladi. Bunday hamfikrlik talabalarda madaniy-

pedagogik kompetentlilikni shakllantirishga asos bo‘ladi, ular o‘z kuchlarini kasbiy-madaniy bilimlarini takomillashtirishga yo‘naltiradi.

Kommunikativ vaziyatlarda shakllanadigan hamkorlik o‘qituvchining kasbiy-madaniy faoliyati bilan ham bog‘liq. Bu faoliyat o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamkorlik qilishi uchun qulay sharoit yaratadi, uning ko‘p jihatlari aynan shu hamkorlikda namoyon bo‘ladi. Bunday vositalardan biri madaniyatlar dialogi metodikasi bo‘lib, u bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-madaniy faoliyati rivojlanishiga sezilarli ta’sir qiladi va ularning kasbiy-madaniy tayyorgarligining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Insonning inson bilan muloqot shakli sifatida madaniyatlar dialogi bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining pedagogik, psixologik va madaniy qiyofasini belgilaydi. Bu metod refleksiv-madaniy dunyoqarashni boyitadi, ommaviy va marginal madaniyat xurujlarini bartaraf etishga xizmat qiladi; bo‘lajak o‘qituvchilar dialog shaklida o‘quv munosabatlarini tashkil etish usullarini ham o‘zlashtiradi, chunki dialog o‘qituvchi va o‘quvchilar ijodiy tafakkurining mahsulidir. O‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi dialogga asoslangan munosabatlarning rivojlanishi ularning ijodiy tafakkurini tizimli shakllantiruvchi metod sifatida didaktik qimmatga ega.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashda ichki dialog metodi ham o‘z o‘rniga ega. Ichki dialog ham insonning inson bilan muloqot shakli hisoblanadi: unda shaxs o‘z-o‘zi bilan muloqotga kirishadi. U bo‘lajak o‘qituvchi ijodiy tafakkurining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dialog jarayonida ta’lim oluvchilarning bilish faolligi rivojlanadi; maxsus tashkil etilgan dialog va ijodiy tafakkur vaziyatlarida talabalarning bilish imkoniyatlari kengayadi, chunki dialog ijodiy tafakkurni tarbiyalashning muhim usulidir.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni dialog orqali tarbiyalash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-madaniy yetukligini ta’minlaydi, madaniyatlar dialogi esa talabalarning o‘z-o‘zini anglashiga ko‘maklashadi. Dialog asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonida talabalar bir-birlariga bilimlarni madaniyatga oid axborot shaklida taqdim etadi, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish natijasida ularda

madaniyatshunoslikka oid zarur ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar shakllanadi; professor-o‘qituvchilar va talabalar orasida o‘zaro munosabatlar vujudga keladi; talabalar o‘zlashtiradigan madaniyatga oid bilimlar esa ta’lim obyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Madaniy-shaxsiy yondashuv bo‘lajak o‘qituvchi bilan professor-o‘qituvchi orasida dialog vaziyatini vujudga keltiradi. U madaniyatshunoslikka asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi: ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyati madaniyatshunoslik yondashuvi asosida, professor-o‘qituvchi qo‘ygan aniq o‘quv topshiriqlari bo‘yicha tashkil etiladi. Bu yondashuv o‘quv jarayoni va o‘quv obyektining xarakterini aniqlashga ko‘maklashadi hamda professor-o‘qituvchi va talabalar o‘zaro munosabatlarining yo‘nalishlarini belgilab beradi. Natijada professor-o‘qituvchining pedagogik ta’sir subyekti sifatidagi mavqei cheklanadi, ular bilan talabalar orasida o‘zaro dialog asosida madaniy munosabat, ya’ni subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan hamkorlik vujudga keladi. Professor-o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatiga asoslangan dialog jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy-madaniy yo‘nalishdagi o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘naltiriladi, professor-o‘qituvchining axborot beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyasi esa muvofiqlashtiruvchi xarakter kasb etishi lozim.

Professor-o‘qituvchilar ilmiy nuqtai nazardan yondashib, ta’lim-tarbiyaviy va madaniy rivojlantiruvchi jarayonlarni tashkil etadi, har bir talaba bilan o‘zaro munosabatga kirishadi va uning faoliyatini muayyan maqsad sari yo‘naltiradi. O‘quv jarayonida madaniyatlar dialogi metodini tatbiq etish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv jarayonining asosiy subyektiga aylanadi, jarayonning o‘zi esa talaba shaxsining refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga yo‘naltiriladi; uning maqsadi, mazmuni, shakllari va metodlari shunga muvofiqlashtiriladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, madaniyatlar dialogi metodini qo‘llash prinsiplari ham aniqlashga harakat qilindi. Bu metod refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgani uchun muayyan prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchi refleksiv-madaniy tarbiyalanish jarayonining subyekti sifatida shaxsiy hayotiy va individual

rivojlanish imkoniyatiga ega. Pedagogik jarayon uni refleksiv-madaniy jihatdan tarbiyalovchi muhit sifatida namoyon bo‘ladi va uning hayotiga madaniy mazmun bag‘ishlaydi. Ijodkorlik va madaniyat madaniy-ta’limiy jarayonda bo‘lajak o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishini ta’minlash usulidir.

Metodika umumdidaktik prinsiplarga ham tayanilgan holda ishlab chiqildi.

Oliy pedagogik ta’lim mazmuni va metodlari orasida o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash prinsipi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy tayyorgarlik darajasi va o‘quv mavzulari orasidagi mutanosiblik hisobga olindi.

Modellashtirish prinsipi. O‘quv jarayonining modeli sifatida pedagogik jarayon loyihasi namoyon bo‘ladi: o‘quv rejasida ta’limning maqsadi va vazifalari ifodalanadi, mashg‘ulotlar jarayoni va tartibi hamda talabalarga taqdim etiladigan savol va topshiriqlar shakllantiriladi, bo‘lajak o‘qituvchilar ularni o‘quv jarayonida bajaradi. Professor-o‘qituvchilar o‘quv jarayonining yakuniy natijalarini ham modellashtiradi: ular refleksiv-madaniy dunyoqarashi tarbiyalangan bo‘lajak o‘qituvchi modelini tavsiflashi lozim. Bu modelda bo‘lajak o‘qituvchi o‘z refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash uchun qanday bilim, malaka, ko‘nikma va kompetensiyalarni egallashi, qanday madaniy-kasbiy faoliyatga qay holda tayyor bo‘lishi va talabaning kasbiy-madaniy tayyorgarligi qanday shaklda namoyon bo‘lishi belgilab beriladi.

Yakuniy nazorat prinsipi. Bu prinsip doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarash darajasi nazorat qilinadi: professor-o‘qituvchi modelda nazorat mexanizmlarini belgilaydi, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z refleksiv-madaniy dunyoqarashlarini tarbiyalashdan manfaatdorlik darajasi va ehtiyojlari aniqlanadi. Yakuniy nazorat o‘quv kursi mazmunini tahlil qilish, unga tuzatishlar kiritish va takomillashtirish uchun asos yaratadi, qo‘llanilgan metodlarning mahsuldorligini tahlil qilish hamda talabalarning o‘z-o‘zini madaniy rivojlantirishga yo‘naltirilgan mustaqil ishlari ko‘lami va hajmini aniqlash imkonini beradi.

O‘quv jarayoni maqsadlariga uning mazmuni va metodlarining muvofiqligi prinsipi. Qo‘yilgan o‘quv maqsadlariga erishish samaradorligini ta’minlash uchun


refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashga xizmat qiladigan o‘quv faoliyati turlari tanlanadi. Bu faoliyat turlari bo‘lajak o‘qituvchilarni madaniy-kasbiy rivojlantirish imkonini beradigan muayyan mavzudagi topshiriqlarni bajarishga xizmat qiladi.

Muammolik prinsipi o‘quv jarayonida muammoli vaziyatlar yaratishni nazarda tutadi. Natijada talabalar madaniyatga oid yangi bilimlarni o‘zlashtiradi, muammolarni bartaraf etish asosida bilim va ko‘nikmalarni egallaydi, qo‘yilgan vazifalarning yechimiga to‘sqinlik qiluvchi muammolarni hal qiladi. Mashg‘ulotlar jarayonida talabalar oldiga savollar qo‘yiladi, muammolarni izlash natijasida esa ularning fikrlash jarayonlari jadallashadi.

Negativ tajribadan foydalanish prinsipi. Bu prinsip doirasida o‘quv jarayoni o‘qitishning faol metodlari yordamida tashkil etiladi va 2 ta yangi ta’limiy komponentni qo‘llash nazarda tutiladi. Shu bilan bir qatorda talabalarning refleksiv-madaniy rivojlanish darajalarini o‘rganish va ular yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarni aniqlash yo‘lga qo‘yiladi. Talabalar o‘zlarining kasbiy-madaniy faoliyatiga bog‘liq muhim masalalar bo‘yicha tanqidiy esselar, tanqidiy maqolalar yozishi, ularni ommalashtirishi va muhokama qilishi nazarda tutiladi. Pedagogik jarayonni ushbu model asosida tashkil etishda talabalarni xatolarga yo‘l qo‘yishga undovchi topshiriqlarni rejalashtirish muhim, professor-o‘qituvchilar esa xatolar metodidan foydalanadi. Natijada talabalarda o‘z kasbiy faoliyatini korreksiyalashga oid ko‘nikma va malakalar shakllanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar oldiga tahlil qilish uchun muammoli vaziyatlar, muammoli topshiriqlar va savollar qo‘yiladi.

Bunday topshiriqlarni bajarishda talabalar ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yadi, chunki ularda kasbiy-madaniy faoliyatga oid tajriba yetarlicha shakllanmagan bo‘ladi; bu xatolarning asosiy manbayidir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-madaniy ko‘nikmalarini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ularni xatolarning qonuniyatlari va topshiriqlarni yechish strategiyalari bilan qurollantirish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z kasbiy-madaniy dunyoqarashlarini rivojlantirishga ehtiyoj sezadi, o‘quv kursi mazmunini to‘liq o‘zlashtirish motivlari shakllanadi. Ushbu maqsadda quyida refleksiv yondashuv

vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modeli taqdim etiladi (2.1-rasm). Unda bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni shakllantirish mexanizmlari, metod va texnologiyalari, vositalari, yo‘nalishlari, prinsiplari va pedagogik shart-sharoitlari ko‘rsatilgan.



2.1-rasm. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash modeli

Metodika yana quyidagi prinsiplarga ham tayanadi.

Oddiydan murakkabga borish prinsipi doirasida talabalarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni shakllantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar loyihalanadi. Bunda o‘quv materiallarining murakkablik darajasi va mazkur jarayonda qo‘llaniladigan metodlar belgilab olinadi. Talabalar birinchi manba ustida ishlash tajribasini o‘zlashtiradi, jamoa bo‘lib xulosalar, g‘oyalar va umumlashmalarni ilgari suradi.

Muntazam yangilash prinsipi doirasida ta’lim mazmuni va talabalarning refleksiv-madaniy dunyoqarashlari madaniyatshunoslik va pedagogika nuqtai nazaridan yangilab boriladi. Talabalarning madaniyatga oid bilimlarining asosiy manbayi o‘quv materiali bo‘lib, unda o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy tajribasi tadrijiy tarzda taqdim etiladi; bu bilimlar muayyan mavzu va metodlar yordamida yetkaziladi. Natijada o‘quv jarayonining axborotlilik darajasi ta’minlanadi, bunda yangi bilimlarni imkon qadar ko‘proq strukturalash maqsadga muvofiq. Madaniyatga oid yangi bilimlar talabalarning e’tiborini jalb qiladi, kasbiy-madaniy ko‘nikmalarini faollashtiradi, o‘quv mavzusini o‘zlashtirishga undaydi va o‘quv faoliyatining yangi usullarini egallashga ko‘maklashadi. Shuning uchun professor-o‘qituvchilar mashg‘ulotlarni doimo yangi bilimlar bilan boyitib borishi, talabalar esa har bir mashg‘ulotda aniq vaziyatlarni tahlil qila olishi kerak. Mashg‘ulot mavzusidan kelib chiqib didaktik vositalarni qo‘llash samaradorlikka erishish imkoniyatini kengaytiradi.

Talabalarning jamoaviy faoliyatni tashkil etish prinsipi. Talabalar doimo muayyan yechimlarni izlab topish muammosiga duch keladi va topshiriqlarga jamoa bo‘lib yechim izlashga intiladi. Topshiriqlar talabalarda jamoaviy faoliyatga kirishish motivlarini shakllantiradi. Talabalar topshiriqlarga bosqichma-bosqich yechim topish ko‘nikmasini egallashi kerak.

Xulosa

Monografiyada bayon etilgan nazariy tahlil, pedagogik shart-sharoitlar, jarayon modeli va tajriba-sinov natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi.

Refleksiv-madaniy dunyoqarash bo‘lajak o‘qituvchilarda tarixiy voqelik, o‘tmish, o‘zi va atrofdagilar haqida obyektiv, tahliliy, tanqidiy fikrlash jarayoni bo‘lib, uni o‘quvchilarda tarbiyalash muayyan nazariy asoslarga ega bo‘lgan pedagogik jarayondir. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash o‘zining pedagogik-psixologik asoslariga ega bo‘lib, qulay didaktik vaziyatlar yaratilgandagina bu ko‘nikmani samarali shakllantirish imkoniyati vujudga keladi. Bunda muammoli vaziyatlar, savollar, o‘quv materiallari va tarixiy voqelik alohida didaktik ahamiyatga ega. Jarayonni tashkil etish va boshqarishda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, fan o‘qituvchilari, sinf rahbarlarining hamkorlikdagi faoliyati zarur bo‘lib, bu tizimda ulardan tashkiliy-pedagogik funksiyalarni bajarish talab etiladi.

Shaxs refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga bir qator omillar va manbalar samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bu manbalar o‘zbek xalqining ko‘p asrlik madaniyati tarixiy tajribasini o‘zida mujassamlashtirgan va ilmiy asarlar, tarixiy mavzudagi kitoblar, san’at namunalari, tasviriy vositalar, urf-odat va an’analar, tarixiy obidalar, musiqa, kino, xalq og‘zaki ijodi namunalari, xattotlik va shaharsozlik namunalari, xalq hunarmandligi namunalari hamda liboslarni o‘z ichiga oladi. Yosh avlod, shu jumladan, talabalarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash aniq mazmunga va uni tanlashda tayaniladigan prinsiplarga ega. Yaxlitlik, tarixiylik va haqqoniylik prinsiplarining har biri o‘zining aniq pedagogik tavsifiga ega bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon o‘zining tarkibiy tuzilishi, maqsad va vazifalari hamda bosqichlariga ega; har bir bosqich

talabalarda kasbiy madaniy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘yin, bahs-munozara, davra suhbati, savol-javob, seminar, ma’ruza kabi metodlardan foydalanish natijasida pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlash imkoniyati kengayadi. Shu asosda bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash jarayonining funksional modeli ta’lim mazmuni, uni tanlash prinsiplari, vositalari, manbalari, usul va metodlarining mahsuldorligini ta’minlashni nazarda tutgan holda takomillashtirildi. Muammoning samarali yechimiga xizmat qiladigan o‘quv kurslarini pedagogika tarixi, muloqot madaniyati kabi o‘quv fanlari bilan bir qatorda tashkil etish alohida ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega.

Tajriba-sinov jarayonida qo‘llanilgan metodika bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashi boyib, tizimli xarakter kasb etganligini nazariy va amaliy jihatdan asoslash imkonini berdi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashiga refleksiv yondashuvni qo‘llash natijasida aniqlangan bo‘shliqlar madaniyatga oid bilimlar hisobiga muntazam boyitilib, talabalarda kasbiy-madaniy rivojlanish motivlarining shakllanishiga xizmat qildi. Amalga oshirilgan statistik tahlillar, taqdim etilgan model va qo‘llanilgan mezonlar tadqiqot farazining to‘g‘riligini hamda statistik ko‘rsatkichlarning reprezentativligini asoslash imkonini yaratdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi: bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga yo‘naltirilgan didaktik materiallar to‘plamini ishlab chiqish; shu maqsadga xizmat qiladigan topshiriqlarni tizimlashtirish; shaxsning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash sohasidagi tarixiy va xalqaro tajribalarni to‘plash; o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga oid pedagogik faoliyatni modellashtirish metodikalarini ishlab chiqish; “O‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalash” hamda “Bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy dunyoqarashini tarbiyalashda refleksiv yondashuv imkoniyatlari” nomli maxsus kurslarni joriy etish; “Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy

dunyoqarashini tarbiyalash metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma yaratish; “O‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini boyitish jarayonida o‘qituvchi bajaradigan funksiyalar” nomli qo‘llanma tayyorlash; “Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashini tarbiyalashga xizmat qiladigan manbalar” nomli ishlanmalar to‘plamini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент, Ўзбекистон, 1992. – 43 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2020 й., 637-сон, 543-модда.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmon.
4. 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son.
5. 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmonlari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-soni qarori.
7. 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli qarori.
8. 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori.
9. 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli qarori.
10. 2024-yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-232-sonli Qaror.
11. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.09.2017 й., 07/17/3304/0037-сон.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожатномаси - 2017 йил 22 декабрь. http // uz 24 uz.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 25 январдаги “Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-ҳунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5313-сон Фармони. // lex.uz

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

16. Abdullayeva B. S., Aliyev N. A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘z o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 13 SPECIAL. – С. 605-609.
17. Абульханова К.А. Стратегия жизни. – М.: Мысль, 1991. – 299с.
18. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари. Пед. фан. докторлик дис… – Т.: 2002.–276 б.
19. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: МГУ, 1988. – 415с.
20. Аникин В.Г. Экзистенциальная рефлексия личности в проблемно-конфликтных ситуациях / В. Г. Аникин. — М., 2000. — 243 с.
21. Ananev B. G. pedagogicheskikh nauk RSFSR A. Психология чувственного познания //(No Title). – 1960.
22. Ananev B. G. (ed.). Psychological Science in the USSR. – US Joint Publications Research Service, 1961. – Т. 11466.
23. Арбузова, Е.Н. Развитие критического мышления при обучении биологии / Е. Н. Арбузва // Биология в школе. – 2011. – № 8. – С. 29–36.
24. Арбузова, Е.Н. Проектирование рефлексивной системы обучения с применением инновационного учебно - методического комплекса по

методике обучения биологии: дис. д - рапед. наук: 13.00.02 / Арбузова Елена Николаевна. – Москва, 2015. – 415 с.

25. Асадов Ю. М. Индивидуально-психологические особенности учителя как факторы развития профессионализма Автореф : дис. – Ташкент : дис…. канд. психол. наук, 2007.
26. Аҳлидинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования: Автореф. дис. … д-ра пед. наук. – Ташкент, 2002. – 44 с.
27. Аҳлидинов Р.Ш. Таълим бошқарувидан сабоқлар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. – 2014., 440 б.
28. Бандура А. Теория социального научения: пер. с англ./под ред //НН Чубарь. СПб.: Евразия. – 2000. – Т. 319.
29. Батищев Г. С. Философско-педагогические произведения //Собрание сочинений. – №. 2.
30. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – Рипол Классик. Москва «Искусство» 1979. – 416 с.
31. Безрукова В.С. Педагогика. Проективная педагогика. – Екатеринбург: Деловая книга, 1996. – 344с.
32. Беспалько В.П.Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989.- 192 с.
33. Бестужев-Лада И. В. В школе XXI века: размышления социолога. – Педагогика, 1988.
34. Бизяева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия - Псков: ПГПИ им.С. М. Кирова, 2004. -216 стр.
35. Библер В. С., Ахутин А. В. Диалог культур //ББК 74.202. 45я73 З-17. – 2012. – С. 390.
36. Психология и педагогика: просто о сложном. Популярные очерки и этюды / *Б. М. Бим-Бад*. — М.: Изд-во МПСИ; Воронеж: НПО «МОДЭК», 2010. — 144 с.

37. Бим-Бад Б. М. и др. Педагогический энциклопедический словарь. – 2002.
38. Бодалев А.А. О предмете акмеологии // Психологический журнал. – М., 1993. – Т.14. – №5. – С. 73-79.
39. Божович Л. И. О культурно-исторической концепции ЛС Выготского и ее значении для современных исследований психологии личности //Вопросы психологии. – 1988. – №. 5. – С. 108-116.
40. Бондаревская Е. В. Воспитательный потенциал базового учебного курса “Духовно-нравственная культура” //Известия Южного федерального университета. Педагогические науки. – 2009. – №. 10. – С. 17-29.
41. Boymuradova G. O‘qish // 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma – T.: 2016. 240 bet.
42. Белозерцев Е. П. Культурно-образовательная среда: методологическая неизбежность современного отечественного педагогического знания //Евразийский форум. – 2009. – №. 1 (1). – С. 142-152.
43. Васильев Ю.В. Педагогическое управление в школе: методология, теория, практика: научное издание. - М. : Педагогика, 1990. - 144с
44. Вульфов Б.З. Педагогика рефлексии: взгляд на профессиональную подготовку учителя / Б.З.Вульфов, В.Н.Харькин. – Москва: Магистр, 1995. - 111 с.
45. Вульфов Б.З. Рефлексия: учить, управляя /Б.З.Вульфов //Мир образования. - 1997. - №1. - с. 63-65.
46. Вершловский С. Г. Система образования взрослых как объект прогнозирования //Человек и образование. – 2010. – №. 1. – С. 16-21.
47. Выготский Л. С. История развития высших психических функций //Психологическая наука и образование. – 1996. – Т. 1. – №. 2. – С. 5-8.
48. Галперин П. Я. Лекции по психологии. Учебное пособие для студентов вузов //М.: Книжный дом «Университет»: Высшая школа. – 2002.
49. Галперин П. Я. Методы обучения и развития ребёнка //Москва, изд. МГУ. – 1985.

50. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: иқтисодиёт нашриёти, 2011. – 206 б.
51. Горбунова Л.Л. Развитие умений учителя анализировать педагогический опыт. // Формирование профессионально-педагогического мастерства учителей: Сб. Науч. Тр. М.: Изд-во АПН, 1989.- С. 62-71.
52. Гузеев В.В. Образовательная технология: от приема до философии. – М.: Наука, 1996. – 112с.
53. Давыдов В.В.Теория развивающего обучения [Текст] / В.В. Давыдов. - М.: ИНТОР, 1996. - 544 с.
54. Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – 29 б.
55. Деркач А. А., Лаптев Л. Г. Политическая психология. – 2017. – С. 591.
56. Дерзкова Н.П. Дидактические условия формирования эффективного стиля руководства образовательными учреждениями: Дисс… канд.пед.наук.- М.: 1999. – 188 с.
57. Джураев Р.Х.,Турғунов С.Т. Умумий ўрта таълим муассасаларини бошқаришда менежментнинг асосий тушунчалари. – Тошкент: Фан, 2006. – 50 б.
58. Диакону Н.С. Рефлексия как одна из форм организации обучения, способствующая формированию младших школьников умению учиться. /Н.С.Диакону.– URL: http://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/ pedagogicheskie - tekhnologii / 2014 /02 /25 / refleksiya - kak - odna - iz - form)
59. Dilova N., Saidova M., Abdullayeva B. Ta’limda multimedia texnogiyalardan foydalanish //Toshkent “O ’qituvchi. – 2021.
60. Дистервег А. О. О природосообразности и культуросообразности в обучении //Народное образование. – 1998. – №. 7. – С. 193-197.

61. Дьюи Д. Психология и педагогика мышления / Д.Дьюи. - Москва: Совершенство, 1997. - 208 с.
62. Jo‘raev U., Farmonov R., Ergashev SH. Jahon tarixi. Yangi tarixning birinchi davri (XVI-XIX asrning 60-yillari). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014, 160 b.
63. Загвязинский В.И., Гильманов С.А. Творчество в управлении школой. – М., 1991. – 61 с.
64. Zeer E. F., Stepanova L. N. Soft skills as predictors of students’ life self-fulfillment //The Education and science journal. – 2019. – Т. 21. – №. 8. – С. 65-89.
65. Зимняя И. А. Общая культура и социально-профессиональная компетентность человека //Профессиональное образование. – 2006. – №. 2. – С. 18-21.
66. Ibraimov.X, Quronov.M. Umumiy pedagogika//darslik. - T.:2022.
67. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnalogiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: falsafa doktori (PhD) darajasi olish uchun yozilgan diss. Avtoref. – Toshkent, 2017. – 25 b.
68. Ibraximov S.U. Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak sport murabbiylarini guruh a’zolari orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga tayyorlash strategiyalari: Monografiya. – T.: Tafakkur qanoti, 2022. -200b.
69. Ильина Е.В. Рефлексивное управление обучением учащихся общеобразовательной школы: дис. … канд. пед. наук: 13.00.01 / Ильина Елена Викторовна. – Барнаул, 1998. – 202. с. 20
70. Иноятов У.И. Инновационный характер управления качеством образования внутри колледжа // Касб-ҳунар таълими журнали. – 2001. – №6. – 28-31 б.

71. Ипполитова, И.В. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация / И.В. Ипполитова, И. Стерхова // Generaland Professional Education. - 2012. - № 1. - С. 8-14.
72. Исаев И. Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя высшей школы как саморазвивающаяся система //Гаудеамус. – 2002. – Т. 1. – №. 1. – С. 20-30.
73. Каримова В. М. Ижтимоий психология асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 94 б.
74. Карпов А. В. Психология рефлексивных механизмов деятельности / А. В. Карпов. - Москва: Институт психологии РАН, 2004. - 424 с.
75. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 512с.
76. Коваль Н.А. Рефлексивно-диалогическое взаимодействие личности как проблема гуманитарного знания / Н.А.Коваль, М.В.Коваль //Актуальные инновационные исследования: наука и практика. - 2009. - № 3-4.
77. Koshifiy.H.V. Futuvnomai sultoniy, Ahloqiy muhsiniy. – O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. B 376.
78. Комилов Н., Бегматов А., Қуронов М. Раҳбар ва ходим. – Тошкент: Академия, 1998. – 170 б.
79. Корнилова Н. А. Формирование профессиональной рефлексии будущего специалиста: диссертация… кандидата психологических наук /Н.А.Корнилова.- Кемерово, 2009. -285 с.
80. Кузьмина Н.В. Методы системного педагогического исследования: Учебное пособие. – Л.: ЛГУ, 1986. – С. 112.
81. Кулюткин Ю.Н. Диалог как предмет педагогической рефлексии / Ю.Н.Кулюткин. - Санкт-Петербург: Спец Лит, 2001. - 74 с.
82. Кунц Г.,Доннел С. Управление: системный и ситуационный анализ управленческих функций: Пер. с англ. В 2-х т.– М.: Прогресс, 1981. – 997 с.

83. Кухарев Н.В., Решетько В.С. Диагностика педагогического мастерства и педагогического творчества. – Минск, 1996. – С. 32.
84. Kutlimuratova N. Husayin Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy” asari va undagi axloqiy tarbiyaga oid fikrlar //Interpretation and researches. – 2024. – №. 9 (31).
85. Крылова Н. Н. Профессиональное и личностное самоопределение студентов в условиях профессионально-педагогического образования //Труды Международного симпозиума «Надежность и качество». – 2011. – Т. 1. – С. 127-130.
86. Лазарев В.С., Поташник М. М. Управление развитием школы. – М., 1995.– 441с.
87. Lafasov U., Jo‘raev U., Xoliqov E., Qodirova D. Jahon tarixi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri – T.: “O‘qituvchi” nashriyot matbaa uyi, 2014. – 160 b.
88. Лекторский В.А. Субъект. Объект. Познание. – М.: Наука, 1980. – 359 с.
89. Леонтьев Д.А. Методика изучения ценностных ориентаций. - М., 1992. – 17 с.
90. Левитов Н. Д. Психическое состояние агрессии. – 1972.
91. Лернер А. Я. Принципы построения быстродействующих следящих систем и регуляторов. – 1961.
92. Лисина М.И. Проблемы онтогенеза общения. – М.: Педагогика, 1986. – 144 с.
93. Ma’murov B. B. Umumiy pedagogika. Darslik //Buxoro: Durdona. – 2020. – T. 118.
94. Ma’murov B. B. Forming Future Teachers’ Competence in Educational Process Design based on Acmeological Approach //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
95. Malikova D. Pedagoglarning o‘quvchi-yoshlarda “Ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish sohasidagi

kompetensiyalarini rivojlantirish vositalari // qo‘llanma – T. : “Tafakkur qanoti”, 2020.195 b.

96. Мамардашвили М. К., Пятигорский А. М., Сенокосов Ю. П. Символ и сознание. Метафизические рассуждения о сознании, символике и языке. – Школа «Языки русской культуры», 1997. – С. 224-224.
97. Mamanazarov A.B. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining iqtisodiy madaniyatini madaniyatini rivojlantirish. Avtoref. Diss. – T.:2024.54 b.
98. Майоров А.Н., Сахарчук Л.Б., Сотов А.В. Элементы педагогического мониторинга и региональных стандартов в управлении. – СПб., 1992. – 48с.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

99. Mardonov Sh.Q, Xodjayev.B.X, Taylanova.Sh, Xojimuxamedova. Pedagogik aksiologiya // O‘quv qo‘llanma – T. : “Fan va texnologiya”.2013.184-bet.
100. Матросов В. Л. Новый учитель для новой российской школы //Педагогика. – 2010. – №. 5. – С. 3-9.
101. Маркова А. К., Орлов А. Б., Фридман Л. М. Мотивация учения и ее воспитание у школьников. – 1983.
102. Маркова А. К. Акмеологическое содержание профессионального становления психолога в сфере образования //Акмеология. – 2003. – №. 3. – С. 47-50.
103. Маслоу А. Г. Мотивация и личность:[пер. с англ.]. – Издательский дом” Питер”, 2009.
104. Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента / Пер. с англ. – М.: Дело ЛТД, 1995. – 704 с.
105. Мирқосимов М. Мактабни бошқаришнинг назарий ва педагогик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 159 б.
106. Мищенко А.И. Педагогический процесс как целостное явление. – Москва, 1993. – С. – 37.

107. Митина Л. М. Психология личностного и профессионального развития человека в современном социокультурном пространстве //Гуманитарные ведомости ТГПУ им. ЛН Толстого. – 2015. – №. 3 (15). – С. 79-86.

108. Моисеев А.М., Моисеева О.М. Проектное управление в образовании. Учебно-методический комплект материалов для подготовки тьюторов.-М.: АПК и ППРО, 2007. – 124 с.

109. Морозова Н. Г. Воспоминания о ЛС Выготском //Воспитание и обучение детей с нарушениями развития. – 2016. – №. 6. – С. 26-32.

110. Москаленко О.В. Зависимость формирования структуры и социально-психологических характеристик профессиональной компетентности будущих социальных работников от социума. /О.В. Москаленко, И.В. Лаврентьева. М.: МААН. 2013. 98 с.

111. Мусурманов Р. Педагогик тажриба-синов ишларини ташкил этиш ва бошқариш. Тошкент: Фан ва технология, 2011. – 142 б.

112. Musurmonova G. O. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonini tashkil qilishning nazariy asoslari //golden brain. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 4-12.

113. Муракаев И.У., Саифназаров И.С. Менежмент асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 191 б.

114. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha). 7-sinf uchun darslik. – Qayta ishlangan uchinchi nashr. – Toshkent: “Sharq”, 2017. - 160 b.

115. Muslimov N.A, Ishmuhamedov R, Turayev A. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish // O‘quv-uslubiy majmua – T.:2023. 92 bet.

116. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari // O‘quv-metodik qo‘llanma – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

117. Мюнстерберг Г. Учитель //Психологическая наука и образование. – 2000. – Т. 5. – №. 1.

118. Наранхо К. еа-типологические структуры личности: Самоанализ для ищущего. – НПО” МОДК”, 1995.
119. Наранхо К. Гештальт-терапия: Отношение и Практика атеоретического эмпиризма. – Модэк, 1995.
120. Немова Н.В. Управление методической работой в школе. – М., 1999. – 46 с.
121. Неъматов Ш.Э. Изучение истории учебника как актуальная педагогическая проблема. // Образование и воспитание – молодежи – фундамент благополучия и процветания жизни. II часть. Ташкент. 2013, 16-17 апрель. Филиал МГУ имени М.В.Ломоносова в городе Ташкента. С.112-116.
122. Никитин Е.П. Харламенкова Н.Е. Самоутверждение человека // Воп. философии. – М., 1990. – № 9. – С. 32-37.
123. Обухов А.С. Рефлексия в проектной и исследовательской деятельности / А.С.Обухов // Исследовательская работа школьников. - 2005. - № 3. - С. 19-38.
124. Оданович М.В. Дидактические средства реализации проблемно - рефлексивной ситуации на уроке / М.В.Оданович // Биология в школе. – 2012. – № 3. – С. 39–40.
125. Основы разработки педагогических технологий и инноваций / Под.ред. В.А. Пятина. – Астрахань, 1998. – 380 с.
126. Орлова С.В. Перспективное планирование развития школы // Журнал директор школы. – СПб., 1999.– С. 34.
127. Петровский В. А., Петровский А. В. Культурно-историческая психология. 2008 //Том. – Т. 4. – С. 112-118.
128. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии / Под ред. С.А.Смирнова. – М.: Академия, 1998. – 510 с.
129. Пьянкова Г.С. Личностная и профессиональная рефлексия: психологический практикум / Г.С.Пьянкова. - Красноярск: 2012. - 125 с.

130. Реан А.О. Психология развития человека от рождения до старости. - М., 2004.- 437 с.

131. Родина О. Н., Зотова Н. Н. Индивидуально-личностные особенности и успешность профессиональной подготовки студентов-психологов //Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. – 2009. – №. 1. – С. 53-66.

132. Розин В. М. Рефлексия в структуре сознания личности / В.М.Розин // Проблемы рефлексии. - Новосибирск: Наука, 1987. - с.222-228.

133. Роттер Д. Теория социального научения //М.: Просвещение. – 1988.

134. Роджерс К. Становление человека: взгляд на психотерапию. М.: Институт общегуманитарных исследований, 2018. 241 с.

135. Рубинштейн С. Л. Проблемы общей психологии. – 1973.

136. Руденко К.А. Культурология //Учебное пособие. М.: РИОР 2023, 469 с.

137. Мишенко А. И., Шиянов Е. Н, Исаев И. Ф. Практикум по общей и экспериментальной психологии/Под ред. АА Крылова.—Л., 1987 //Педагогическое мастерство и педагогические технологии: Учебное пособие/Под ред. ЛК. – 2000. – С. 59.

138. Славина Л. С, Божович Л. И ,Психология детского подражания (экспериментально-психологическое исследование)(ч. 2) //Культурно-историческая психология. – 2007. – Т. 3. – №. 3. – С. 112-121.

139. Салаева М.С., Джумабаева М. Таълимни модернизациялаш шароитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // UzACADEMIA Ilmiy-uslubiy jurnali ISSN (E) – 2181 - 1334 Barcha sohalar bo’yicha electron jurnal. VOL 2, ISSUE 9 (19), July 2021 Part - 1. - C.54-60. www.academscience.uz

140. Сафарова Р.Г. Ўқув предметлари мазмунини аниқловчи параметрлар. - Монография. Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2011, 15 б.т. (ҳаммуаллифликда)
141. Safarova.R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar//Monografiya – T.: “Sciene and innovation” , 2023. 190-b.
142. Семенов И. Н. Рефлексивность самонаблюдения и персонология интроспекции: к онтологии и методологии рефлексивной психологии индивидуальности //Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. – 2015. – №. 3. – С. 22-39.
143. Сергеева В.В. Управление образовательными системами. – М.: Новая школа, 2000. – С.27.
144. Симонов В.П.Педагогический менежмент. Нау-хау в образовании: учеб. пособие. М.: Высшее обр., Юрайт – издат. 357с.
145. Сластенин В.А., Мищенко А.И. Целостный педагогический процесс как объект профессиональной деятельности учителя. Москва, 1997. – С.19.
146. Слободчиков В.И. О возможных уровнях анализа проблемы рефлексии // Проблемы логической организации рефлексивных процессов. – Новосибирск, 1986. – С.130.
147. Скаткин М. Н. Методология и методика педагогических исследований:(В помощь начинающему исследователю). – Педагогика, 1986.
148. Степанов С. Ю., Семенов И. Н. Психология рефлексии: проблемы и исследования //Вопросы психологии. – 1985. – Т. 3. – С. 31-40.
149. Столяренко А. М. и др. Психологические аспекты деструктивного информационно-психологического воздействия //Психология и право. – 2019. – Т. 9. – №. 4. – С. 75-89.
150. Столин В.В. Самосознание личности. – М.: МГУ, 1988. – 286с.

151. Сухобская Г.С., Горбунова Л.Л. Взаимосвязь теории и практики в процессе подготовки и повышения квалификации педагогических кадров.– М.: НИИ ИОО АПН, 1990. – 92с.

152. Сьюпер Д. Психология карьеры // 1957– 140 с.

153. Талызина Н. Ф. Деятельностный подход к механизмам обобщения //Вопросы психологии. – 2001. – №. 3. – С. 3-16.

154. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. - Т.:ЎзФА «Фан», 2005. - 205 б.

155. Толочек В. А. ” Психологические ниши”: топос и хронос в детерминации профессиональной специализации субъекта //Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. – 2019. – №. 1. – С. 195-213.

156. Тошева Н.Т. Бошланғич синф ўқувчиларида билиш фаолиятини ривожлантирувчи ўқув вазиятларини ташкиллаштиришнинг дидактик шарт-шароитлари // Монография – Тошкент: Тафаккур, 2011. 104 б.

157. Tojiboyeva X.M. Pedagoglarning o‘quvchi-yoshlarda “Ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish sohasidagi kompetensiyalarini rivojlantirish vositalari // qo‘llanma – T. : “tafakkur qanoti”, 2020.195 b.

158. Третьяков П.И. Управление школой по результатам: Практика педагогического менеджмента. – М.: Новая школа, 1998. – 228 с.

159. Турғунов С.Т. Бошқарув жараёнида тарбиявий муносабатлар // Мактаб ва ҳаёт журнали. – 2006. – № 1. – 20-23 б.

160. Управление качеством образования / Под ред. М.М. Поташника. – М.: Новая школа, 2000.

161. Usmonov Q., Juraev U. Norqulov N. O‘zbekiston tarixi (XVI-XIX asrning birinchi yarmi). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan 3-nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, toshkent - 2014, 160 b.

162. Ушева Т.Ф. Педагогические условия формирования рефлексивных умений студентов в учебном процессе вуза: Дисс.. канд.пед.наук. – Иркутск. - 2009. – 184 с.
163. Фромм Э. Психоанализ и этика. – Издательство” Республика”, 1993. – С. 02353-02353.
164. Фозилов Ж.К. Ўзбекистонда мустақиллик шароитида мактабдан ташқари таълим тизимини бошқаришнинг педагогик асослари.: Пед. ф.н. … дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б.
165. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti //T.-2017. – 2017.
166. Хуторский А.В.Современная дидактика: Учебник для вузов. - СПб: Питер, 2001. – 544 с.
167. Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи Султоний . – Т.: “Халқ мероси”, 1994. 108 b.
168. Шамова Т.И., Давыденко Т.М. Управление образовательным процессом в адаптивной школе. – М.: Новая школа, 2001. – 384 с.
169. Щедровицкий П.Г. Мышление. Понимание. Рефлексия. / Г.П.Щедровицкий. - Москва: Восточная литература, 2005. - 800 с.
170. Шиянов Е. Н., Исаев И. Ф. Аксиологический и культурологический подходы к исследованию проблем педагогического образования в научной школе ВА Сластенина //Сибирский педагогический журнал. – 2005. – №. 2. – С. 193-208.
171. Щукина Г.И: нравственные и научные уроки //Universum: Вестник Герценовского университета. – 2007. – №. 10. – С. 62-68.
172. Quronov M., Ibraimov X. I. Umumiy pedagogika (darslik) //T.,” Shaffof. – 2023.
173. Қўчқарова Ф.М.Бошланғич синф дарсликларида ўқув материалларини концентризм принципи асосида структуралаштириш. – Т.: Фан ва технологиялар, 2010. – 72 б.

XOLBO‘TAYEVA DILFUZA USMON QIZI

PEDAGOGIKA TURKUM FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING REFLEKSIV-MADANIY DUNYOQARASHINI TARBIYALASH METODIKASI

MONOGRAFIYA

Bosishga ruxsat etildi. 7.11.2026-y.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog‘ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog‘i 9,5, Adadi 100.
Buyurtma № 09-03 Bahosi kelishuv asosida.

"BROK CLASS SERVIS" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar,
Zargarlik ko'chasi, Segizbayeva 10 a